


90^{yil}
TDIU

U.V.G'AFUROV,
M.SH.XALILOV,
SH.BOYMURODOV

DAVLAT IQTISODIYOTI VA SIYOSATI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MASXUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

U.V.G‘AFUROV, M.SH.XALILOV, SH.BAYMURADOV

DAVLAT IQTISODIYOTI VA SIYOSATI

*O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
huzuridagi Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan 5A230101-
Iqtisodiy nazariya mutaxassisligida tahsil olayotgan talabalar uchun
o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.*

Toshkent – 2021

UO‘K: 338.24(075)

KBK 65.9(2)29

G 98

**U.V.G‘afurov, M.Sh.Xalilov, Sh.Baymuradov.
Davlat iqtisodiyoti va siyosati. O‘quv
qo‘llanma. – T.: «Innovatsion rivojlanish
nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 224 b.**

ISBN 978-9943-7395-2-9

O‘quv qo‘llanma “Davlat iqtisodiyoti va siyosati” fani dasturiga muvofiq tayyorlangan bo‘lib, unda iqtisodiy farovonlik, iqtisodiy o‘shish, tarixiy istiqbolida iqtisodiy o‘shish nazariyasi, qashshoqlik, tengsizlik va zaiflik, iste‘mol, vaqtni taqsimlash va ishlab chiqarishni tanlash, uy xo‘jaligi, mahalliy tovarlar va xizmatlar, ishchi kuchi bozori, investitsiya va moliyaviy bozorlar, xalqaro bozorlar va umumiy muvozanat, institut va korporatsiyalar, siyosat, boshqaruv va siyosiy iqtisod, maqsadli uzatish dasturlari, qishloq xo‘jaligiga bozor aralashuvi va islohotlar, infratuzilma siyosati va dasturlari, ta‘lim, qishloq xo‘jaligini tadqiq qilish va kengaytirish, mikromoliya, jamoat salomatligi, sog‘liqni saqlash masalalari yoritib berilgan. O‘quv qo‘llanma 5A230101-Iqtisodiy nazariya mutaxassisligi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etiladi.

The textbook was prepared in accordance with the course "Empirical Economics", which covers the methodological problems of the subject of empirical economics, economic well-being, economic growth, the theory of economic growth in a historical perspective, poverty, inequality and vulnerability, choice of consumption, distribution of time and production, household, local goods and services, labor market, investment and financial markets, international markets and general equilibrium, institutions and corporations, politics, management and political economy, targeted transfer programs, market intervention and reforms in agriculture, policies and programs in the field of infrastructure, education, agricultural research and expansion, microfinance, public health. The textbook is recommended as a textbook in the specialty 5A230101 - Economic theory.

UO‘K: 338.24(075)

KBK 65.9(2)29

ISBN 978-9943-7395-2-9

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021.

© U.V.G‘afurov, M.SH.Xalilov, SH.Baymuradov, 2021

KIRISH

Mamlakatimizda barqaror va demokratik bozor iqtisodiyotini shakllantirish ko'p jabhalardagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni taqozo etmoqda. Jamiyatdagi yangilanish va o'zgarishlarning pirovard natijasi ko'p jihatdan fuqarolarning mazkur jarayonlardagi ongli va faol ishtirokiga, amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini chuqur anglashga bog'liq bo'lib, ularni tushuntirishda iqtisodiy fanlarning roli beqiyosdir.

Ma'lumki, bugungi kunda iqtisodiy hodisa va jarayonlar, ularni maqsadga muvofiq tartibga solish, rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va tushuntirib berishga xizmat qiluvchi ko'plab iqtisodiy fanlar mavjud. Ko'p hollarda o'quvchilar, talaba va tadqiqotchilar, olim va mutaxassislar bu boradagi nazariy va amaliy ma'lumotlarga tayangan holda o'zlari uchun tegishli xulosalar chiqaradilar, zarur hollarda xo'jalik qarorlarini qabul qiladilar.

Hozirda ko'plab nazariy ahamiyatdagi fanlar bilan bir qatorda amaliyotga, xususan, tajriba orqali chiqariluvchi qoida va xulosalarga tayanuvchi fanlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Iqtisodiyot sohasidagi shunday fanlardan biri "Empirik iqtisodiyot" fani hisoblanadi. Mazkur fan rivojlanish iqtisodiyotining asosiy muammolari, jumladan, sog'liqni saqlash, ta'lim, mehnat sharoitlari, ichki va xalqaro siyosat, bozor sharoitlari kabi jihatlarini rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyoti va tajribalari asosida o'rganishni o'z ichiga oladi. Mazkur fan barqaror iqtisodiyotni shakllantirish yo'lidagi asosiy chora-tadbirlar yo'nalishlarini ko'rsatib berish bilan bir qatorda talabalarda bunyodkorlik g'oyalarini shakllantirish, ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish, iqtisodiy madaniyatini oshirishga ham xizmat qiladi. Shuning uchun magistratura talabalari uchun "Empirik iqtisodiyot" fanidan o'quv qo'llanmaning tayyorlanishi ham bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu o'quv qo'llanmaning tarkibiy tuzilishi jihatidan puxtaligi, fanning barcha asosiy mavzu-muammolarini qamrab olishi, ularning yoritilishidagi izchilligiga ham asoslangan. Jumladan, o'quv qo'llanmada iqtisodiy farovonlik, iqtisodiy o'sish, tarixiy istiqbolda iqtisodiy o'sish nazariyasi, qashshoqlik, tengsizlik va zaiflik, iste'mol,

vaqtni taqsimlash va ishlab chiqarishni tanlash, uy xo‘jaligi, mahalliy tovarlar va xizmatlar, ishchi kuchi bozori, investitsiya va moliyaviy bozorlar, xalqaro bozorlar va umumiy muvozanat, institut va korporatsiyalar, siyosat, boshqaruv va siyosiy iqtisod, maqsadli uzatish dasturlari, qishloq xo‘jaligiga bozor aralashuvi va islohotlar, infratuzilma siyosati va dasturlari, ta’lim, qishloq xo‘jaligini tadqiq qilish va kengaytirish, mikromoliya, jamoat salomatligi, sog‘liqni saqlash kabi masalalar alohida mavzular doirasida bayon etilgan. Ushbu o‘quv qo‘llanma yangi davlat standarti talablari bo‘yicha tuzilgan va Respublika muvofiqlashtirish komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan yangi namunaviy o‘quv dasturi asosida yozildi. Unda dasturdagi barcha mavzular qamrab olingan. Asosiy iqtisodiy tushunchalarni soddaroq qilib, oddiy tilda misollar, jadvallar, grafiklar asosida tushuntirishga harakat qilingan.

Ushbu o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda o‘qitishning yangi pedagogik va informatsion texnologiyalar talablari va xususiyatlari hisobga olinib, har bir mavzudan keyin asosiy tayanch tushunchalar va atamalar, shuningdek takrorlash va munozara uchun savollar ham berildi.

“Davlat iqtisodiyoti va siyosati” fani bo‘yicha mazkur o‘quv qo‘llanma asosan 5A230101 – Iqtisodiy nazariya mutaxassisligi bo‘yicha magistratura talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, undan iqtisodiy yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchi va talabalari, aspirantlar va iqtisodiyot nazariyasi sohasidagi bilimlarga qiziquvchi barcha kitobxonlar ham foydalanishi mumkin.

1-MAVZU: DAVLATNING IQTISODIY SIYOSATIGA KIRISH

1. Davlatning iqtisodiy siyosati kursining dolzarbligi, maqsadi
2. Davlatning iqtisodiy siyosati ta'riflari va ko'nikmalari
3. Davlatning iqtisodiy funksiyalari

1. Davlatning iqtisodiy siyosati kursining dolzarbligi, maqsadi

Iqtisodiyotning qonun-qoidalariga amal qilish iqtisodiy siyosat orqali yuz beradi, chunki ularni anglagan holda iqtisodiyot rivojiga oid chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va bular iqtisodiyotga ta'sir etmay qolmaydi.

Iqtisodiy siyosat – bu iqtisodiyot subyektlarining o'z faoliyatiga oid yo'l-yo'riqlari va sa'y-harakatlarining majmuidir. Har bir iqtisodiyot ishtirokchisining, bu xonadonmi, firmami yoki davlatmi buning farqi yo'q, o'z manfaatlari bor. Bu manfaatlar amaliyotda aniq maqsad shakliga kiradi, iqtisodiy siyosat esa uni amalga oshirishga qaratiladi. Xonadonning maqsadi o'z iste'molini maksimumlashtirish va kelajakni ta'minlash uchun jamg'arma hosil etishdir. Firmaning maqsadi esa foydani maksimumlashtirish va iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta'minlashdir. Davlatning maqsadi esa milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini va shu asosda xalq farovonligini ta'minlashdan iborat.

Bozor xo'jaligi sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish qonunchilik, ijro etish va nazorat qilish xususiyatidagi tadbirlar tizimidan iborat bo'ladi. Hozirgi sharoitda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish takror ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bir qator vazifalarni hal qilishga qaratiladi. Bular jumlasiga iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, bandlikni tartibga solish, tarmoq va mintaqaviy tuzilmalardagi ijobiy siljishlarni qo'llab-quvvatlash, eksportni himoya qilish kabilarni kiritish mumkin.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi to'g'risida to'laroq tasavvurga ega bo'lishi uchun uning maqsadi, vazifalari va tartibga solish usullari hamda vosita yoki dastaklarini to'laroq tavsiflash lozim.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, mavjud

tuzumni mamlakat ichida va xalqaro maydonda mustahkamlash hamda uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish hisoblanadi. Bu asosiy maqsaddan bir qator aniq maqsadlar kelib chiqadi. Ular jumlasiga iqtisodiy siklni barqarorlashtirish; milliy xo'jaliklarning tarmoq va mintaqaviy tuzilishini takomillashtirish, atrof-muhit holatini yaxshilash kabilarni kiritish mumkin. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi uning vazifalarida aniq namoyon bo'ladi. Bozor xo'jaligi sharoitida davlatning iqtisodiy vazifalari asosan bozor tizimining amal qilishini yengillashtirish va himoya qilish maqsadiga ega bo'ladi. Bu sohadagi davlatning iqtisodiy vazifalaridan quyidagi ikki turini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug'diruvchi huquqiy asos va ijtimoiy muhitni ta'minlash;

2) raqobatni himoya qilish.

Davlatning boshqa vazifalari iqtisodiyotni tartibga solishning umumiy tamoyillaridan kelib chiqadi. Bu yerda davlatning uchta vazifasi alohida ahamiyatga ega:

1) daromad va boylikni qayta taqsimlash;

2) resurslarni qayta taqsimlash;

3) iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya'ni iqtisodiy tebranishlar vujudga keltiradigan inflyatsiya va bandlilik darajasi ustidan nazorat qilish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish.

Davlat bozor iqtisodiyotining samarali amal qilishining shart-sharoiti hisoblangan huquqiy asosni ta'minlash vazifalarini o'z zimmasiga oladi. Bozor iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan huquqiy asosni ta'minlash quyidagi tadbirlarning amalga oshirilishini taqozo qiladi: xususiy korxonalarining huquqiy mavqeini mustahkamlash; xususiy mulkchilik huquqini ta'minlash va shartnomalarga amal qilishni kafolatlash; korxonalar, resurslarni yetkazib beruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonuniy bitimlarni ishlab chiqish va boshqalar. O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida», «Tadbirkorlik faoliyati to'g'risida» va «AktSIONERLIK jamiyatlari to'g'risida»gi qonunlari hamda ularga kiritilgan qo'shimcha va tuzatishlar, mulkni davlat tasarrufidan

chiqarish hamda xususiylashtirish bo'yicha tadbirlari bozor iqtisodiyoti uchun zarur huquqiy asosni ta'minlashga qaratilgan.

2. Davlatning iqtisodiy siyosati ta'riflari va ko'nikmalari

Iqtisodiy siyosat uch darajada bo'ladi, ular: mikro, makro va meta (xalqaro) siyosatdir.

Davlatning siyosati – bu makroiqtisodiy siyosat bo'lib, uning muayyan mamlakatning milliy iqtisodiga taalluqli yo'l-yo'riqlari va ulardan kelib chiqadigan sa'y-harakatlaridan iboratdir. Davlatning siyosati har doim milliy bo'ladi, mamlakat rivojining ichki va tashqi sharoitini hisobga oladi. Siyosatda eng avval mamlakat iqtisodiyotining holati, xalqaro iqtisodiy kon'yukturaning milliy iqtisodiyotga nechog'lik ta'sir etishi, unda kutilayotgan o'zgarishlar mamlakat zimmasiga olgan xalqaro majburiyatning qandayligi, mamlakat iqtisodiyotining resurslar bilan ta'minlanish darajasidan kelib chiqadi, ilgari amalga oshirilgan chora-tadbirlar bergan natija ham hisobga olinadi. Davlat siyosati davlat rahbarlarining irodasi va qat'iyatligiga va yetilgan iqtisodiy muammolarni naqadar idrok etishlariga ham bog'liq bo'ladi.

Davlatning siyosati milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda ma'lum maqsadlarni ko'zlaydi. Bulardan asosiylari quyidagilar:

1. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash. Bu yalpi ichki mahsulotning bir maromda va yetarli sur'atlar bilan o'sishiga sharoit hozirlashni bildiradi, chunki YAIM qanchalik tez o'ssa, mamlakat iqtisodiy qudrati shunchalik oshadi.

2. Milliy iqtisodiyotning mustaqilligini ta'minlash, uning chet elga qaram bo'lishiga yo'l qo'ymaslik. Iqtisodiyot qanchalik mustaqil bo'lsa, shunchalik milliy manfaatlarga ko'proq xizmat qiladi.

3. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash. Bu iqtisodiy aylanmaning uzluksizligini, ya'ni takror ishlab chiqarishning to'xtovsiz davom etishini, iqtisodiy falajlikka yo'l qo'yilmasligini bildiradi.

4. Milliy pul qadr-qiymatining barqarorligini ta'minlash – mamlakatdagi pul muomalasining me'yorida borishiga erishish, pulni iqtisodiy aloqalarning muntazam ishlab turuvchi vositasiga aylantirish.

5. Aholi turmush farovonligini mustaqil oshirib, iqtisodiyotning ijtimoiyligini to'laroq yuzaga chiqarishga ko'maklashish.

6. Milliy iqtisodiyotning xalqaro integratsion jarayonlar va globalizatsiyada faol ishtirok etib, xalqaro iqtisodiyotda o'z o'rnini topishi, baynalminal iqtisodiy munosabatlarning teng huquqli ishtirokchisiga aylanishiga erishish.

7. Milliy iqtisodiyotning istiqbolini ta'minlash, ya'ni uning uzoq kelajakda o'sib borishiga sharoit hozirlash. Bular iqtisodiy siyosatning strategik, ya'ni uzoq davrga mo'ljallangan maqsadi hisoblanadi. Biroq uning qisqa vaqtdagi taktik, ya'ni juz'iy maqsadlari ham bor. Bular jumlasiga iqtisodiy tanglikdan chiqib ketish, narxlarning barqarorligini ta'minlash, investitsion faollikni rag'batlantirish, eksport salohiyatini oshirish, novatsiyalarni ta'minlash, yangi tashqi bozorlarga kirib borish kabilar kiradi. Juz'iy maqsadlar strategik maqsadlardan kelib chiqadi va ularga xizmat qiladi.

Davlat siyosati belgilagan maqsadlarga quyidagi vositalar bilan erishadi: birinchisi, iqtisodiy vositalar bo'lib, bular jumlasiga soliqlar, subsidiyalar, litsenziyalar, eksport kvotalari, uchyo stavkalari, davlat buyurtmalari, davlat investitsiyalari, transfertlar, turli iqtisodiy sanksiya (jazolash vositalari) kabilar kiradi. Ikkinchisi, yuridik vositalar. Bu iqtisodiy faoliyat tartibi va qoidalarini, uning davlat tomonidan rag'batlantirilishini belgilab beruvchi qonunlarni, ularga mos ravishdagi qonun osti hujjatlarini ishlab chiqish, ularni qabul qilish va joriy etishdan iboratdir.

Qonunchilik iqtisodiyotning huquqiy asoslarini belgilab beradi, bular esa bozor iqtisodiyotining obyektiv iqtisodiy qonunlari talabidan kelib chiqishi zarur. Iqtisodiyotga oid yuridik qonunlarni parlament qabul qiladi. Hukumat esa ularning amalga oshirilishini ta'minlaydigan qarorlar va farmoyishlarni ishlab chiqadi. Tegishli davlat idoralari qonunlarning amalga oshirilishini nazoratga oladi. Uchinchisi, siyosiy-ma'muriy vositalar. Davlat hokimiyat sohibi bo'lganidan o'z siyosatiga rioya etilishini o'z organlari kuchi bilan ta'minlaydi. Davlat oliy siyosiy institut hisoblanar ekan, uning qarorlari va buyruqlariga hamma itoat etishi kerak bo'ladi. Ma'muriy usul yordamchi usul hisoblanadi, u bozor tizimida yaxshi natija bermaganidan cheklangan holda qo'llaniladi.

3. Davlatning iqtisodiy funksiyalari

Iqtisodiyot yaxlit bo'lar ekan, iqtisodiy siyosat ham yagonadir. Davlatning iqtisodiy siyosati – bu makroiqtisodiy siyosat bo'lib, uning muayyan mamlakatning milliy iqtisodiga oid puxta o'ylangan va ishlab chiqilgan yo'l-yo'riqlari va ulardan kelib chiqadigan sa'y-harakatlaridir. Lekin davlat siyosatining aniq yo'nalishlari bor.

Davlat milliy iqtisodiyotni tartibga solishda bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullarni umumlashtirib quyidagicha guruhlash mumkin:

- bevosita ta'sir qilish usullari;
- bilvosita ta'sir qilish usullari;
- tashqi iqtisodiy usullar.

Markazdan boshqarish tartibi ustun bo'lgan mamlakatlarda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvida bevosita ta'sir qilish usullari ustun bo'lsa, bozor iqtisodiyoti esa asosan, iqtisodiy jarayonlarni bilvosita tartibga solish bilan bog'langan. Shu bilan birga barcha mamlakatlarda iqtisodiyotning davlat sektori mavjud. Davlat sektorini boshqarish mulkchilikning davlat shakliga asoslanib, u asosan quyidagi uchta yo'l orqali shakllanadi:

1) ishlab chiqarish vositalari egalariga pul yoki qimmatli qog'ozlar bilan tovon to'lash orqali mulkni milliylashtirish;

2) davlat byudjeti mablag'lari hisobiga yangi korxonalar, ba'zi hollarda yaxlit tarmoqlarni barpo etish;

3) davlat tomonidan xususiy korporatsiyalarning aksiyalarini sotib olish va aralash davlat-xususiy korxonalarini tashkil etish.

Monetar siyosat – bu davlatning pul-kredit siyosati bo'lib, pul muomalasini tartiblash, tovar va pul massasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, iqtisodiyotdagi pul oqimlarini boshqarib turish siyosati hisoblanadi. Uning maqsadi narxlarni va shunga ko'ra milliy pul birligi xarid qurbini, uning valyuta kursini barqarorlashtirish, oxir-oqibatda pulga talab bilan uning taklifini muvozanatlashtirishdan iborat bo'ladi.

Monetar siyosatning uchta asosiy jihati bor:

1. Qayta moliyalashtirish yoki hisob siyosati. Bunda davlat nomidan markaziy banklar uchyot stavkasini o'zgartiradi. Stavka oshganda pul qimmatlashib, unga talab qisqaradi. U pasaytirilganda

pul arzonlashib, unga talab oshadi. Bu ayni paytda kreditning arzon yoki qimmat bo'lishini bildiradi. Bu esa iqtisodiyotga kredit hisobidan yuboriladigan investitsiyalarni o'zgartirib, uning o'sishiga ta'sir etadi.

2. Ochiq bozorda operatsiyalar o'tkazish siyosati. Bu davlat obligatsiyalarini chiqarib, firmalar, banklar va aholiga sotish va vaqti kelganda ularni qaytadan sotib olishni bildiradi. Bu obligatsiyalarni olish qulay bo'ladi, chunki ularga qat'iy belgilangan foizni davlat to'laydi, bu bilan ularning daromadliligi kafolatlanadi. Davlat obligatsiyalari sotilganda pul ularga bog'lanib qoladi, natijada uning muomaladagi miqdori qisqaradi. Aksincha, ular qaytadan sotib olinganda pul ulardan bo'shab, muomalaga keladi, u yerdagi pul miqdori ko'payadi. Demak, bu usul bilan ham pul miqdori tartiblanadi.

3. Majburiy rezerv siyosati. Bu siyosatga binoan markaziy banklar boshqa banklar uchun kredit resursining majburiy rezervini kiritadi. Bu tartibga ko'ra banklar kreditga beriladigan pulning bir qismini markaziy banklar ixtiyoriga beradi. Bu rezerv oshsa, kredit puli qisqaradi, agar u kamaysa, bu pul ko'payadi. Masalan, mamlakatda jami kredit resurslari 80 mlrd. dollar. Shundan 10 foiz zaxira o'tkazilsa, kredit uchun 72 mlrd. dollar qoladi. Bordi-yu bu zaxira 15 foizga chiqarilsa, kreditga 68 mlrd. dollar qoladi. Bu bilan kreditga mo'ljallangan pulning taklifi oshadi yoki qisqaradi. Shunga qarab, kredit olish goh oshib, goh qisqarib turadi. Monetar siyosatning aytilgan yo'nalishlari shuni ko'rsatadiki, unda turli iqtisodiy vositalar qo'llaniladi.

Monetar siyosat ikki xil bo'ladi:

1) qattiq siyosat. Bunda pul massasi qisqartiriladi, uning emissiya (pul chiqarish) hisobidan o'sishi qat'iy chegaralanadi. Natijada pul massasi qisqarib, tovar massasiga tenglashadi. Pulning qisqarishi talabni kamaytiradi, narxlar esa o'smaydi, pul birligining xarid qurbi barqarorlashadi. Pul topishga intilish iqtisodiyotning jonlanishiga olib keladi. Bunday siyosat ilgari ta'kidlaganimizdek, odatda iqtisodiyotni tanglikdan chiqarish yoki inflyatsiyani keskin susaytirish uchun qo'llaniladi;

2) yumshoq monetar siyosat. Bunda davlat pul massasining ortishiga to'sqinlik qilmaydi, pul emissiyasi hadeb cheklanavermaydi, natijada pul ko'payib, uning arzonlashuvi yuz beradi. Yumshoq siyosat iqtisodiyot o'sish pallada bo'lganda ko'proq qo'llaniladi,

chunki pul massasining o'sishiga qarab tovarlar massasi ham o'sadi. Bunda tovar-pul muvozanati pulni qisqartirish hisobidan emas, balki tovarlarning ko'payishi tufayli ta'minlanib turadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Iqtisodiy siyosat – bu iqtisodiyot subyektlarining o'z faoliyatiga oid yo'l-yo'riqlari va sa'y-harakatlarining majmuidir.

Davlatning siyosati – bu makroiqtisodiy siyosat bo'lib, uning muayyan mamlakatning milliy iqtisodiga taalluqli yo'l-yo'riqlari va ulardan kelib chiqadigan sa'y-harakatlaridan iboratdir.

Iqtisodiy siyosatning strategik maqsadi – milliy iqtisodiyotning istiqbolini ta'minlash, ya'ni uning uzoq kelajakda o'sib borishiga sharoit hozirlash.

Iqtisodiy siyosatning taktik maqsadi – strategik maqsadlardan kelib chiquvchi va ularga xizmat qiladigan qisqa vaqtdagi, ya'ni juz'iy maqsadlar.

Davlat siyosatining iqtisodiy vositalari – soliqlar, subsidiyalar, litsenziyalar, eksport kvotalari, uchyot stavkalari, davlat buyurtmalari, davlat investitsiyalari, transfertlar, turli iqtisodiy sanksiyalar (jazolash vositalari).

Davlat siyosatining siyosiy-ma'muriy vositalari – davlat siyosatiga rioya etilishini o'z organlari kuchi bilan ta'minlashi.

Davlatning iqtisodiy siyosati – bu makroiqtisodiy siyosat bo'lib, uning muayyan mamlakatning milliy iqtisodiga oid puxta o'ylangan va ishlab chiqilgan yo'l-yo'riqlari va ulardan kelib chiqadigan sa'y-harakatlaridir.

Monetar siyosat – bu davlatning pul-kredit siyosati bo'lib, pul muomalasini tartiblash, tovar va pul massasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, iqtisodiyotdagi pul oqimlarini boshqarib turish siyosati hisoblanadi.

Qattiq monetar siyosat – iqtisodiyotni tanglikdan chiqarish yoki inflyatsiyani keskin susaytirish uchun qo'llaniluvchi, pul massasini qisqartirish, uning emissiya (pul chiqarish) hisobidan o'sishini qat'iy chegaralash.

Yumshoq monetar siyosat – iqtisodiyot o‘shish pallada bo‘lganda ko‘proq qo‘llaniluvchi, tovar-pul muvozanatini pulni qisqartirish hisobidan emas, balki tovarlarning ko‘payishi orqali ta‘minlash.

Takrorlash uchun savollar

1. Davlatning iqtisodiy siyosati kursining dolzarbligi va maqsadini qanday sabablar belgilaydi?
2. Iqtisodiy siyosat nima?
3. Iqtisodiy subyektlarning manfaatlari nima bilan farq qiladi?
4. Iqtisodiy siyosatning qanday darajalari mavjud?
5. Davlatning siyosati milliy bo‘ladi, degan ibora nimani anglatadi?
6. Davlatning siyosati orqali ko‘zlanadigan asosiy maqsadlar nima?
7. Iqtisodiy siyosatning strategik va taktik maqsadlariga nimalar kiradi?
8. Davlat siyosati belgilagan maqsadlarga qanday vositalar orqali erishadi?
9. Monetar siyosat nima?
10. Monetar siyosatning qanday asosiy jihatlari bor?
11. Qattiq va yumshoq monetar siyosatning farqi nima?

2-MAVZU: DAVLAT SEKTORI NAZARIYALARI

1. Iqtisodiy rivojlanishga bag‘ishlangan asosiy nazariyalar.
2. Davlatning iqtisodiy funksiyalari to‘g‘risidagi nazariyalar.
3. Davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish mexanizmi.

2.1. Iqtisodiy rivojlanishga bag‘ishlangan asosiy nazariyalar

Davlatning iqtisodiy siyosati natijalarini hamda jamiyatda barpo etilgan tashkiliy va mulkchilik munosabatlari asosida amalga oshirilayotgan jami iqtisodiy jarayonlar majmuini ifoda etuvchi milliy xo‘jalik tizimi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish modeli deb ataladi.

Bu mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini aks ettiruvchi murakkab ko‘rsatkichlar tizimi va ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni yaxlit holda ifoda etadi.

2.1-jadval.

Iqtisodiy rivojlanishga bag‘ishlangan asosiy nazariyalar va ularning umumiy tavsifi

Maktab va yo‘nalishlar hamda ularning namoyondalari	Rivojlanish-ning asosiy davri	Asosiy g‘oyasi
Merkantilizm (savdogarlar manfaatlarini ifodalagan) T.Man, A.Monkreten, J.Kolber	XIV-XVIII asrlar	Jamiyatning asosiy boyligi – pul (oltin va kumush). Bu boylukning manbai – savdo aylanma sohasi. (savdo va pul aylanmasi).Davlat iqtisodiyotga faol aralashish orqali, jamiyatning boyishiga yordam berishi kerak
Fiziokratlar maktabi (tabiat hukmronligini tan olgan, yirik yer egalari manfaatlarini ifodalagan) F.Kene, A.Tyurgo	XVIII asr	Jamiyatning boylik manbayi – savdo aylanmasi emas, ishlab chiqarish hisoblanadi. Ishlab chiqarish, eng avvalo qishloq xo‘jaligi sohasida bo‘lishi lozim. Sanoat – “bepusht soha” bo‘lib, faqatgina tabiat va dehqonchilik mahsulotlarini qayta ishlash bilan shug‘ullanadi.

Siyosiy iqtisodning ingliz klassik maktabi U.Petti, A.Smit, D.Rikardo Marksizm siyosiy iqtisodi(ilmiy kommunizm nazariyasi) K.Marks, F.Engels, V.I.Lenin	XVIII asr o'rtasidan	Jamiyatning boylik manbayi – ishlab chiqarish bo'lib, davlat aralashuviz, erkin va raqobatdosh bozori qtisodiyoti esa uning rivojlanishi uchun qulay sharoit hisoblanadi; Qiymat qonuni konsepsiyasi shakllantirilgan bo'lib, tovar ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosiy qonuni deb qaralgan; Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar to'g'risida ta'limotshakllantirilgan; Takror ishlab chiqarish va iqtisodiy inqiroz nazariyasi ishlab chiqilgan.
Marjinalizm – avstriya maktabi (me'yoriy naflilik nazariyasi) U.Djevons, K.Menger, F.Vizer, Ye.Bem-Baverk	XVII-XIX asrlar	Ishlab chiqarish xarajatlari, talab va taklif hamda narx me'yoriy naflilik borasida o'zining baholashiga tayanadigan alohida xo'jalik subyektining xatti-harakati psixologiyasi bilan izohlanadi.
Neoklassik yo'nalish (kembridj maktabi) A.Marshall, A.Valras	XIX asr oxiridan	Xususiy tadbirkorlikka asoslangan bozor tizimi o'zini-o'zi tartibga solishga qodir bo'lib, davlat faqatgina uning faoliyat olib borishi uchun qulay sharoitlar yaratishi kerak
Keynschilik yo'nalishi (tartibga solinadigan kapitalizm nazariyasi) Dj.M.Keyns	XIX asrning 30-yillaridan (Buyuk depressiya inqirozi, 1929-1933 yy.)	Bozor jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga qodir emas, shu sababli davlat iqtisodiyot va ijtimoiy sohani faol tartibga solishi kerak
Institutsionalizm U.Mitchell, T.Veblen, R.Kouz	XIX-XX asrlar	Iqtisodiyotga, xo'jaliklar va subyektlar o'rtasidagi munosabatlar ichki va tashqi iqtisodiy omillar ta'sirida shakllanadigan tizim sifatida qaraladi
Monetarizm M.Fridmen	20 asrning 2chi yarmidan – hozirgi vaqtga qadar	Iqtisodiyotni barqarorlashtirishda pul omillari muhim rol o'ynaydi

2.2. Davlatning iqtisodiy funksiyalari to'g'risidagi nazariyalar

Milliy iqtisodiyotning samaradorligiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, uning darajasi ko'p jihatdan iqtisodiyotdagi davlat yoki bozor tizimining tutgan rolga bog'liq. Chunki milliy iqtisodiyotning yuqori samaradorligiga asosan quyidagi yo'llar orqali erishiladi:

- 1) iqtisodiyotni tartibga solishning bozor usullarini qo'llash;
- 2) iqtisodiyotni faqat davlat tomonidan markazlashgan holda boshqarish;
- 3) takror ishlab chiqarish jarayoniga davlatning aralashuvi va bozor usullarini uyg'unlashtirish. Hozirgi davrda O'zbekistonning milliy iqtisodiyoti rivoji uchun ko'proq uchinchi yo'l xususiyatli hisoblanadi.

Davlatning iqtisodiyotdagi roli masalasi ilmiy asosda birinchi marta A.Smit tomonidan ko'rib chiqilgan. Uning «Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini tadqiq qilish haqida» (1776) nomli asarida iqtisodiyotning bozor usullari orqali o'zini-o'zi tartibga solishining zarurligi ta'kidlab o'tilgan. A.Smitning fikricha, xususiy tovar ishlab chiqaruvchilar bozori davlat nazoratidan to'liq ozod bo'lishi zarur. Ana shundagina iste'molchilar talabiga mos ravishda ishlab chiqarishni tashkil qilish imkoni mavjud bo'ladi. Bunda bozor vositasida tartibga solish, har qanday chetdan aralashuvsiz, ishlab chiqaruvchilarni butun jamiyat manfaatlari uchun harakat qilishga majbur qiladi.

A.Smit davlatning iqtisodiy jarayonlarga har qanday aralashuvi oxir- oqibatda faqat vaziyatni yomonlashtiradi, deb hisoblaydi. Masalan, davlat tomonidan belgilangan tashqi savdo tartib-qoidalari milliy iste'molchilarga faqat zarar keltirishi mumkin. Haqiqatdan ham, importga boj to'lovi milliy ishlab chiqaruvchilarga ustunlik berib, ularning chet el sheriklariga nisbatan raqobatlashuv qobiliyatini oshiradi. Ammo bu oxir- oqibatda ishlab chiqarishning ancha yuqori xarajatlari va past sifatining saqlanib qolishiga olib keladi. Bundan past sifatli va narxi qimmat tovarlarni sotib olishga majbur bo'lgan milliy iste'molchilar zarar ko'radilar.

A.Smitning «Tinch qo'yish» nazariyasi 1929-1933 yillarda bozor iqtisodiyotiga asoslangan deyarli barcha mamlakatlarni qamrab olgan

iqtisodiy inqiroz davrida tanqidga uchradi. Iqtisodiy tanazzul va ommaviy ishsizlik davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvini kuchaytirishni taqozo qildi.

Davlatning iqtisodiyotdagi rolini oshirish masalasi J.M.Keynsning «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» (1936) nomli asarida o'z aksini topdi. Unda muallif davlat fiskal (xaznaviy) va kreditli tartibga solish vositalaridan foydalanib, jamiyatning yalpi talabini rag'batlantirishni va aholining ish bilan bandligini ta'minlashi zarurligini isbotlaydi. Amalda gap davlatning uzluksiz ravishda inqirozga qarshi siyosat o'tkazishi, iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini tugatish va sanoat siklining o'zgarishini bartaraf etish haqida ketadi. Keyns nazariyasi ancha tugal shaklda AQSHda amalga oshirildi. Urushdan keyingi davrda Keyns nazariyasidagi ko'rsatmalar u yoki bu darajada bozor iqtisodiyoti amalda ustun bo'lgan barcha mamlakatlarda foydalanildi. Shu bilan birga davlatni iqtisodiyotdagi rolining yanada ko'proq oshib borishi ro'y berdi. Hozirgi davrda davlat tomonidan tartibga solishning muhim maqsadi sifatida nafaqat siklga qarshi tartibga solish va ish bilan bandlikni ta'minlash, balki iqtisodiy o'sishning yuqori darajasini va yaxlit takror ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishni rag'batlantirish tan olinadi.

Ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan tizimdan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlatning milliy iqtisodiyotga aralashuvi quyidagi holatlar orqali izohlanadi. Birinchidan, davlat milliy iqtisodiyotda o'zini-o'zi bozor vositasida tartibga solish orqali bajarish mumkin bo'lmagan yoki samarali ravishda amalga oshirib bo'lmaydigan vazifalarni o'ziga oladi. Bular qatoriga mudofaani ta'minlash, mamlakatda ichki tartibni saqlash va aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoyalash kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va iste'molning xususiy tavsifi bir qator ijobiy va salbiy oqibatlarni tug'diradi. Bu oqibatlar bevosita uchinchi tomon manfaatida aks etib, kishilarning alohida guruhi va umuman jamiyat manfaatiga ta'sir qiladi. Masalan, chiqitli texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishlarda tozalash qurilmalariga xarajatlarni tejash xususiy ishlab chiqaruvchilar nuqtai nazaridan (u yoki bu kompaniya yoki individual ishlab chiqaruvchi uchun) foydali, atrof-muhitning

ifloslanishiga olib kelishi esa jamiyatning boshqa a'zolari uchun qo'shimcha salbiy oqibatga ega. Davlat yakka tadbirkor yoki iste'molchidan farqli, jamiyat manfaatini ifodalab, qo'shimcha ijobiy samarani rag'batlantirishga va aksincha, salbiy samara bilan bog'liq faoliyatni tartibga solish hamda cheklashga harakat qilishi zarur. Uchinchidan, davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi shu sababli ro'y beradiki, individual iste'molchilar hamma vaqt u yoki bu tovarni iste'mol qilishning oqibatlarini obyektiv baholay olmaydilar. Shu nuqtai nazardan, davlat foydali iste'molni kengaytirish va aksincha, sog'liqqa salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tovarlar iste'molini cheklash vazifasini o'z zimmasiga oladi. Masalan, davlat tamaki mahsulotlari uchun yuqori aktsiz (egri) solig'ini o'rnatib, bir tomondan o'zining daromadini oshirsa, boshqa tomondan shu mahsulotga bo'lgan talabni cheklaydi. To'rtinchidan, davlat bozorning tabiatidan kelib chiqadigan ayrim holatlarni qisman yengillashtirish vazifasini o'z zimmasiga oladi. Bozor hamma uchun to'lovga qobil talabni qondirishga teng imkoniyatni ta'minlaydi. Ammo bu bozor mexanizmining milliy boylikni ijtimoiy-adolatli taqsimlashini anglatmaydi. Bunday sharoitda davlat aholi kam ta'minlangan qatlamining turmush darajasi haqida g'amxo'rlik qilish, bepul (yoki imtiyozli) bilim berish, tibbiy xizmat ko'rsatish va shu kabilarni o'z zimmasiga oladi. Beshinchidan, hozirgi sharoitda barqaror, izchil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vazifasi ham davlatning zimmasiga tushadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning ma'lum chegaralari ham mavjud bo'lib, ular davlatning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siridan kelib chiqadi. Iqtisodiyotga davlatning har qanday aralashuvi ma'lum xarajatlarni taqozo etadi. Ularga, eng avvalo, tartibga solishni tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha xarajatlarni kiritish mumkin. Shuningdek, tartibga solishning u yoki bu shakli bozor muvozanati, ishlab chiqarish hajmi, resurslarning qayta taqsimlanishiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'sirni ham hisobga olish lozim. Bunda tartibga solishni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan sarf-xarajatlarning miqdori davlatning iqtisodiyotni tartibga solishi natijasida olinadigan samaradan kam bo'lishi lozim. Ularning nisbati davlatning iqtisodiyotga aralashuvi chegaralarini belgilab beradi.

90-yillardan boshlab iqtisodiyotni tartibga solishda Keynscha tendentsiyalar yangidan kuchaya boshladi. Iqtisodiyotni davlat

tomonidan tartibga solishning yangi tipi davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlarni ro'yobga chiqarish, davlat tomonidan tartibga solishning moslashuvchanligini oshirish, to'g'ridan-to'g'ri aralashuv shakllari va byurokratik nazoratning kamayishi bilan tavsiflanadi.

Davlatning klassik iqtisodiy funksiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- iqtisodiyotni barqarorlashtirish
- mulk va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish
- pul muomalasini tartibga solish
- daromadlarni qayta taqsimlash
- ish beruvchi va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish
- tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish
- ijtimoiy ne'matlar yaratish (ishlab chiqarish) (alohida ajratilmaydi hamma uchun, raqobatga ega emas bir kishi foydalanishi ikkinchiga kamaytirmaydi, bo'linmaydi)

2.3. Davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish mexanizmi

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish obyektiv tavsif kasb etadi. Ko'plab iqtisodchilar iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishining zarurligini faqat bozorning kamchiliklari, uning ko'plab iqtisodiy muammolarni hal eta olmaslik holati bilan izohlaydilar. Bu ma'lum ma'noda to'g'ri bo'lsa-da, biroq, iqtisodiyotga davlat ta'sirining obyektiv zarurligi, eng avvalo, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi bilan belgilanadi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning obyektiv asosi bo'lib ham milliy iqtisodiyot darajasida, ham xalqaro miqyosda ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi negizida ishlab chiqarishning umumlashuvi jarayoni xizmat qiladi.

Bu jarayon quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- chuqurlashib borayotgan ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida ishlab chiqarish ixtisoslashgan tarmoqlarining o'zaro aloqasi va o'zaro bog'liqligi yanada kuchayadi;

- ishlab chiqarishning kooperatsiyalashuvi va markazlashuvi natijasida alohida xo‘jalik birliklarining mayda bo‘laklarga ajralib ketish holatlari barham topadi;
- ishlab chiqarishning yirik korxonalarda to‘planuvi jarayoni o‘sadi;
- turli iqtisodiy mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar va faoliyat almashuvi jadallashadi.

Ishlab chiqarishning umumlashuvi darajasining oshishi bilan o‘zaro muvofiqlashtirilgan holda xo‘jalik yuritish, takror ishlab chiqarish nisbatlarini ongli ravishda tartibga solish, yirik ishlab chiqarish majmualari, yaxlit iqtisodiyotni markazlashtirilgan holda boshqarishga obyektiv ehtiyoj paydo bo‘ladi. Shunga ko‘ra, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish ishlab chiqarish munosabatlarining har qanday tizimida ishlab chiqarish umumlashuvining ma’lum darajasida obyektiv zaruriyatga aylanadi.

Davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish mexanizmi quyidagi chora-tadbirlardan iborat:

- tashkiliy-boshqaruv;
- me‘yoriy-huquqiy;
- moliyaviy-iqtisodiy;
- ijtimoiy-psixologik.

Fiskal siyosatning muhim qismi soliq siyosatidir:

Soliq siyosati – soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlarning amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig‘indisidir.

Soliq siyosatini amalga oshirishda davlat quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi:

fiskal maqsad – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning umumdavlat, hududiy va mahalliy dasturlarini moliyalashtirish maqsadida milliy daromadning bir qismini budjet tizimiga jalb etish;

iqtisodiy maqsad – ijtimoiy ishlab chiqarishda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, milliy daromad va YAIMni hududlararo, tarmoqlararo va ijtimoiy qayta taqsimlash, talab va taklifni boshqarish, tadbirkorlik va investitsion faoliyatni rag‘batlantirish maqsadida iqtisodiyotga soliq mexanizmi orqali ta’sir ko‘rsatish;

ijtimoiy maqsad – aholining kam ta'minlangan qatlami, nogironlar va urush holatlari qatnashchilariga soliqdan imtiyoz va yengilliklar taqdim etish hamda soliqqa tortishning progressiv tizimi hisobiga aholi daromadlari darajasidagi tengsizlikni ma'lum darajada yo'qotish;

ekologik maqsad – ekologik to'lovlar va moliyaviy jarimalarning rolini kuchaytirish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanishni ta'minlash;

nazorat maqsadi – davlat budjetiga tushumlarning o'z vaqtida va to'liq tushishini, shuningdek, soliq qonunchiligiga rioya qilinishini ta'minlash maqsadida sayyor va kameral tekshirishlarni o'tkazish. Soliq nazorati tufayli olinadigan ma'lumotlar davlat tomonidan ham soliqlarning o'zini rejalashtirishda, ham mamlakat va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida taktik va strategik qarorlarni qabul qilishda foydalaniladi;

xalqaro maqsad – ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf qilish, bojxona to'lovlarini qisqartirish va milliy soliq tizimlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlash bo'yicha ikki va ko'p tomonlama bitimlarni tuzish orqali boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash.

Asosiy tayanch tushunchalar

Iqtisodiy faoliyat – cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog'liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlar majmui.

Iqtisodiyot – mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo'jaliklardan, xo'jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, konsernlar, qo'shma korxonalar, moliya va bank tizimlaridan, davlatlar o'rtasidagi turli iqtisodiy munosabatlardan iborat o'ta murakkab ijtimoiy tizim.

Ehtiyoj – insonning yashashi va kamol topishi, umuman insoniyatning rivojlanishi uchun kerak bo'lgan hayotiy vositalarga bo'lgan zarurat.

Moddiy ehtiyoj – moddiy ko'rinishdagi ne'matlar vositasida qondiriluvchi zarurat.

Ma'naviy ehtiyoj – insonning shaxs sifatida kamol topishi, dunyoqarashi va ma'naviyatining shakllanishi uchun taqozo etiladigan nomoddiy ne'mat va xizmatlarga bo'lgan zarurat.

Ehtiyojlarning o'sib borishi qonuni – ehtiyojlarning miqdoran o'sib, sifat jihatidan takomillashib borishi.

Iqtisodiy resurslar – tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida foydalanish mumkin bo'lgan barcha vosita va imkoniyatlar majmui.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti – iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish maqsadida hayotiy ne'matlarni (va xizmatlarni) ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni, ijtimoiy xo'jalikni samarali yuritish qonun-qoidalarini o'rganish.

Iqtisodiy qonun – iqtisodiy hayotning turli tomonlari, iqtisodiy hodisa va jarayonlar o'rtasidagi doimiy, takrorlanib turadigan, barqaror sabab-oqibat aloqalari, ularning o'zaro bog'liqligi.

Iqtisodiy kategoriya – doimo takrorlanib turadigan, iqtisodiy jarayonlar va real hodisalarning ayrim tomonlarini ifoda etuvchi ilmiy-nazariy tushuncha.

Uslubiyat – ilmiy bilishning tamoyillari tizimi, yo'llari, qonun-qoidalari va aniq hadisleri.

Ilmiy abstraksiya usuli – tahlil paytida xalal berishi mumkin bo'lgan ikkinchi darajali narsalar, voqea-hodisalarni fikrdan chetlashtirib, o'rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e'tiborni qaratish.

Takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiyot tushunchasi va uning bosh masalasi nima?
2. Ehtiyoj nima? Uning qanday turlarini bilasiz?
3. Iqtisodiy resurs tushunchasiga va uning turlariga ta'rif bering.
4. Nima uchun hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va yetkazib berish insonning turli xil faoliyatlari ichida eng asosiysi hisoblanadi?
5. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti nimadan iborat? U boshqa iqtisodiy fanlar ichida qanday o'rin tutadi?
6. Iqtisodiyot nazariyasi fan sifatida shakllanishida qanday ilmiy maktab va yo'nalishlar vujudga kelgan?

7. Iqtisodiyot nazariyasining qanday vazifalari mavjud? Bu vazifalarning bugungi kundagi ahamiyati nimalarda namoyon bo‘ladi?

8. Iqtisodiy qonunlar nima va ularning qanday turlari mavjud? Iqtisodiy qonunlarning iqtisodiy kategoriyalardan farqi nimada namoyon bo‘ladi?

9. Iqtisodiyot nazariyasini o‘rganishda qanday usullardan foydalaniladi?

10. Makroiqtisodiy tahlil bilan mikroiktisodiy tahlil o‘rtasidagi farq nimadan iborat?

3-MAVZU: OVOZ BERISH JARAYONLARI

1. Ovoz berish metodlari
2. Ommaviy ovoz berishning ijobiy va salbiy jihatlari
3. Kondorset g'olibi tushunchasi

3.1. Ovoz berish metodlari

Ovoz berish - xilma-xil qarashlarni hal qilish yoki afzalliklarni ifoda yetishning eng ko'p qo'llaniladigan usuli. U mahalliy va yuqori darajadagi saylovlar natijalarini aniqlash uchun ishlatiladi. Tashkilotlar ichida ovoz berish bo'limlarga kimlar saylanganligini aniqlaydi va u ushbu bo'limlarning qarorlarini qabul qilishni boshqaradi. Ovoz berish - hayotning barcha sohalarida uchraydigan universal vosita.

Ovoz berishning keng tarqalishi, undan hukumatlarni saylashda va qaror qabul qilish uchun saylangan hukumatlar tomonidan foydalanish ovoz berish xususiyatlariga katta qiziqish uchun asosdir.

Ovoz berishda tabiiy ravishda savol berish - bu qaror qabul qilishning yaxshi uslubi. Yaxshi usulni izlash uchun ikkita asosiy xususiyat mavjud.

Birinchidan, aniq qaror qabul qilishda usulning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi.

Ikkinchidan, ovoz berish har doim samarali natijani beradimi yoki yo'qmi degan savol.

Ovoz berish, agar u tez-tez natijalar tanlovini hal qilinmasdan qoldirgan yoki boshqa alternativlardan aniq pastroq bo'lgan tanlovga olib keladigan bo'lsa, cheklangan ahamiyatga ega bo'ladi. Ovoz berish ushbu xususiyatlarga javob beradimi yoki yo'qmi, qabul qilingan aniq ovoz berish uslubiga bog'liq. Oddiy ommaviy ovoz berish juda tanish, ammo bu ovoz berishning bir qator usullari orasida faqat bittasi. Ovoz berishning ushbu usullaridan ba'zilar ko'pchilik ovoz berishning standart shakli bilan bir qatorda joriy etiladi va tahlil qilinadi.

Aktiv saylov huquqi – bu saylash huquqi bo'lib, har bir fuqaroning davlatni boshqarishda o'z vakillarini saylash bilan ishtirok etishini nazarda tutadi.

Saylov tizimi – O'zbekiston Respublikasida saylov tizimi deganda, keng ma'noda Oliy hokimiyat vakillik organlari hamda mahalliy vakillik organlarini shakllantirish tartibi tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi saylov tizimi majoritar saylov tizimiga asoslangan.

Saylov huquqining asosiy prinsiplari – umumiy saylov huquqi prinsipi; teng saylov huquqi prinsipi; to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi prinsipi; yashirin ovoz berish huquqi prinsipi.

Yosh senzi – saylovlardagi yosh senzi fuqarolarning saylovda ishtirok etishlari uchun muayyan, qonunda belgilangan yoshga yetishlari talab etilishidir. Masalan: Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod sifatida 25 yosh; viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzod sifatida 21 yosh etib belgilangan.

Saylov madaniyati – saylov madaniyati deganda, saylovchilarning o‘z siyosiy huquqlaridan oqilona foydalanib, saylovlarda faol ishtirok etishi, shuningdek, ularning hamda saylov tashkilotchilarining saylovlarni o‘tkazish, unda qatnashish va ovoz berish chog‘ida amaldagi qonunlarga, o‘rnatilgan tartiblarga amal qilishi, saylov qatnashchilarining bir-birlarini hurmat qilishi tushuniladi.

Ovoz berish vaqti va joyi to‘g‘risida saylovchilarni uchastka saylov komissiyasi saylovdan kamida 10 kun oldin xabardor qiladi.

Ovoz berish kuni, vaqti va joyi to‘g‘risida (saylovdan kamida 15 kun oldin), uchastka saylov komissiyasining aniq manzili, telefon raqami, ish vaqti, saylovchilar ro‘yxati hamda deputatlikka nomzodlar haqidagi ma’lumotlar bilan tanishish uchun saylovchilar uchastka saylov komissiyasi tomonidan xabardor qilinadi.

Ovoz beruvchilarning xohish-irodasini nazorat qilishga yo‘l qo‘yilmaydi, ya’ni saylovchilarning saylovga kelish-kelmasligi va o‘zlari xohlagan nomzodga ovoz berish-bermaslik masalasi bu ularning huquqidir.

Mamlakatimiz saylov qonunchiligiga ko‘ra, saylov kuni o‘z yashash joyida bo‘lmaydigan saylovchi muddatidan oldin ovoz berishi mumkin.

Saylovchi saylov kunida bo‘la olmasligi sabablari ko‘rsatilgan ariza asosida uchastka saylov komissiyasiga murojaat qiladi hamda saylov byulletenini olib, ovoz berishni amalga oshiradi.

Saylovchi arizasida saylov kuni ovoz berish uchun saylov uchastkasiga kela olmaslik sababini (vaj) ko'rsatsa, shu arizasiga asosan muddatidan oldin ovoz berish imkoniyati yaratib beriladi.

Arizaga hech qanday qo'shimcha ma'lumot talab etilmaydi. Arizaning o'zi yetarli hisoblanadi.

Uchastka saylov komissiyasi saylovchidan saylov kunida bo'la olmasligining sabablarini tasdiqlovchi qo'shimcha hujjatlarni talab qilish huquqiga ega emas.

Muddatidan oldin ovoz berish saylovga 10 kun qolganida boshlanadi.

Muddatidan oldin ovoz berish saylovga 3 kun qolganida tugallanadi.

Muddatidan oldin ovoz berishni o'tkazish vaqti okrug saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi va saylovchilarning e'tiboriga yetkaziladi.

Muddatidan oldin ovoz beradigan saylovchiga saylov byulleteni u tomondan saylovchilar ro'yxati ko'chirmasiga imzo qo'yilgandan so'ng taqdim etiladi.

3.2. Ommaviy ovoz berishning ijobiy va salbiy jihatlari

Ijtimoiy tanlov nazariyasining markaziy natijasi, Arrowning mumkin emasligi teoremasi, bir nechta kelishuv talablarini qondiradigan va har qanday sharoitda ishlaydigan jamoaviy qaror qabul qilish jarayonini ishlab chiqishning imkoni yo'qligini aytadi. Agar ikkita variant bo'lsa, ommaviy ovoz berish juda yaxshi ishlaydi, ammo ikkitadan ko'p bo'lgan saylovlar bilan biz muammoga duch kelishimiz mumkin. "Xalqning xohish-irodasi" haqida har qancha gap-so'zlarga qaramay, bu nima bo'lishini har doim aniqlash oson emas – aslida, teorema imkonsiz. Bu Arrowning imkonsizligi teoremasining ajoyib haqiqati.

Teoremani taqdim etishdan oldin, 3.1-jadvalda ko'rsatilgan uchta variant bo'yicha (qarama-qarshi) reytingga ega bo'lgan uchta saylovchining eng oddiy holatida ko'rish mumkin. Har bir saylovchida uchta variant bo'yicha o'tish huquqi mavjud. Masalan,

1-saylovchi a ni afzal ko‘radi. Shaxsiy sifatida saylovchilar o‘zlarining xohish-istaklariga to‘liq mos keladi.

3.1-jadval

Kondorset paradoksi

Condorcet paradox

Voter 1	Voter 2	Voter 3
a	c	b
b	a	c
c	b	a

Keling, ushbu variantlardan birini tanlash uchun ommaviy ovoz berish qoidasidan foydalanamiz. Ko‘rib turibmizki, har uch saylovchidan ikkitasi a ni b dan, uchdan ikkitasi b ni c dan, uchdan ikkitasi c ni a dan afzal ko‘rishadi. Kollektiv darajada qaror qabul qilishning iloji yo‘q. Bunday kollektiv imtiyozlar o‘zgaruvchan emas, deymiz, ya‘ni a, b yoki c ga ustunlik berib bo‘lmaydi. Misoldan ko‘rinib turibdiki, guruh imtiyozlarining beparvoligi, individual imtiyozlar tranzitiv bo‘lgan taqdirda ham paydo bo‘lishi mumkin. Shaxsiy tranzitivlikdan kelib chiqadigan ijtimoiy intransitiviyaning ushbu avlodi Kondorset paradoksi deb ataladi.

Ko‘pchilik qoidasi. Faqatgina ikkita variantni o‘z ichiga olgan har qanday vaziyatda, ko‘pchilik qoidalari shunchaki ko‘pchilik ovozga ega variantni tanlashni talab qiladi. Agar yakdillik bo‘lmasa, ozchilikning ko‘pchilikka yo‘l berishini so‘rash diktaturaga juda tabiiy alternativadir.

May teoremasi. Nodikatorlik demokratiya tamoyillarini juda zaif talqin qilishdir. Keng tarqalgan fikr: demokratiya barcha saylovchilarga bir xil munosabatda bo‘lishi kerak. Ushbu simmetriya talabi Anonimlik deb ataladi. Buning uchun har qanday ikki shaxsning ismini almashtirish guruhning afzalligini o‘zgartirmasligini talab qiladi. Shunday qilib, anonimlik hech qanday diktator bo‘lishi mumkin emasligini anglatadi. Tabiiy simmetriyaning yana bir talabi shundan iboratki, jamoaviy qaror qabul qilish jarayoni barcha mumkin bo‘lgan variantlarni bir xilda ko‘rib chiqishi kerak. Bitta variantning foydasiga aniq yon bosish bo‘lmasligi kerak.

May teoremasida faqat ikkita variantni tanlashda Anonimlik, Neytrallik, Qarorlilik va Ijobiy javob berish talablariga bo'ysunadigan yagona jamoaviy qaror qabul qilish jarayoni mavjud. Ushbu jarayon ko'pchilik qoidalaridir.

Ko'pchilikning oddiy qoidasi, agar biz bir vaqtning o'zida ikkita variantni ko'rib chiqsak, bu eng yaxshi ijtimoiy tanlov tartibi. Haqiqiy dunyoda buni qilish oson emas. Masalan, qonunchilik yig'ilishida ovoz berishda, odatda, faqat ikkita variant mavjud: biron bir taklifni ma'qullash yoki rad etish. Shuningdek, ikki tomonlama siyosiy raqobat sharoitida saylovchilar yana ikkilik tanlovga duch kelishmoqda. Shuning uchun boshqa protseduralarga qiziqish faqat ikkitadan ortiq variantni ko'rib chiqishda paydo bo'ladi.

Saylov kuni saylovchi ovoz berish binosiga kelib, uchastka saylov komissiyasining a'zosiga o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni (pasport, fuqarolik pasportini yo'qotgan fuqarolarga ichki ishlar organlari tomonidan berilgan vaqtinchalik ma'lumotnoma, harbiy guvohnoma va jazoni o'tab bo'lganlik yoki jazodan ozod qilinganlik to'g'risidagi ma'lumotnoma) ko'rsatadi hamda saylovchilar ro'yxatiga imzo qo'yadi. Shundan keyin USK a'zosi tomonidan unga saylov byulleteni beriladi.

Ovoz beruvchi byulletenni olgach, uni yashirin ovoz berish xonasida to'ldiradi.

Saylov byulletenini to'ldirish chog'ida ovoz beruvchi shaxsdan boshqa shaxslarning hozir bo'lishi taqiqlanadi.

Ovoz beruvchi o'zi yoqlab ovoz berayotgan nomzodning familiyasi ro'parasida, o'ng tomonda joylashgan bo'sh kvadratga «+» yoki «✓» yoxud «x» mazkur uchta belgidan xohlagan bittasini qo'yadi.

Ovoz beruvchi to'ldirilgan saylov byulletenini saylov qutisiga tashlaydi.

Pareto-samarasini baholash uchun uch bosqichli konseptsyani ishlab chiqish foydalidir. Birinchi bosqich bir taqsimotdan ikkinchisiga o‘tishda Paretoni takomillashtirish g‘oyasini belgilaydi. Pareto imtiyozli buyrug‘i tuzilishi mumkin. Bu bitta taqsimotning boshqasiga afzalligini tekshiradi. Oxirgi bosqich Paretoning afzalliklaridan foydalanib, eng maqbul holatlarni topish va keyinchalik Pareto-samarasi deb belgilanadi. Ushbu bosqichlarning har birini ko‘rib chiqish kontsepsiyaning mazmuni va qiymatini baholashga imkon beradi.

Ushbu dalillarni umumlashtirib aytganda, Pareto-samarasi hech qanday adolat tushunchasini o‘zida mujassamlashtirmaydi va juda adolatsiz ajratmalar mezon bo‘yicha samarali bo‘lishi mumkin. Ko‘pgina hollarda Pareto-samarasi bo‘yicha taqsimotlar juda ko‘p, bu holda mezon siyosatni tanlash uchun juda oz ko‘rsatma beradi. Nihoyat, Pareto-samarasi davlatlarning to‘liq tartibini ta‘minlay olmasligi mumkin. Shuning uchun ba‘zi davlatlar mezon bo‘yicha taqqoslanmaydigan bo‘lib qoladi. Ushbu muvaffaqiyatsizliklarning manbai shundaki, Pareto mezonlari yutuqlarni zararlar bilan solishtirishdan qochadi, ammo aksariyat ajratish qarorlarida aynan shunday hukmlar chiqarilishi kerak. Taqsimotni tanlash uchun daromadlar va zararlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri baholanishi kerak.

9.4. Shaxslararo taqqoslash

Ushbu bobning boshida Pareto-samaradorlik dastlab taklif qilinganligi sababli, farovonlikni shaxslararo taqqoslashni talab qilmasdan muqobil ajratmalarni taqqoslash imkoniyati mavjud bo‘lganligi sababli taklif qilingan edi. Pareto-samaradorlikning muvaffaqiyatsizliklari aynan shu taqqoslashdan qochishdan kelib chiqadi. Ushbu nuqta Ilojsizlik teoremasining asosiy qismidir. Keyinchalik davom ettirish uchun ushbu bo‘lim avval kontekstni ta‘minlash uchun kommunal xizmatlar nazariyasining rivojlanishini ko‘rib chiqadi va keyinchalik alternativa kommunal xizmatlarining taqqoslash darajalarini tavsiflaydi.

O'n to'qqizinchi asr iqtisodchilari foyda, insonning baxt darajasi, potentsial jihatdan o'lchanadigan narsa sifatida qarashgan. Psixologiyadagi yutuqlar haqiqiy o'lchovni o'tkazish uchun uskunani taqdim etishi kutilgan edi. Agar foydali dasturni o'lchash mumkin bo'lsa, demak, bu odamlar orasida taqqoslanishi mumkin. Jamiyat eng katta yaxshilikka intilishi kerakligi falsafasi bilan birgalikda foydali dasturni o'lchash qobiliyati utilitarizmning asosini yaratdi. Kommunal xizmatlarning o'lchovliligi ijtimoiy ta'minotni individual kommunal xizmatlar yig'indisi bilan ifodalashga imkon berdi. So'ngra ushbu yig'indining qiymati bo'yicha davlatlar reytingi, ma'lumot tarkibidan tashqari, imkonsizlik teoremasining barcha shartlarini qondiradigan individual imtiyozlarni yig'ish vositasini berdi. Agar ko'zda tutilgan o'lchov darajasiga erishish mumkin bo'lsa, unda imkonsizlik teoremasining cheklovlari bartaraf etiladi.

Ushbu o'lchovli va taqqoslanadigan foydali dastur tushunchasi yigirmanchi asrning boshlarida yo'q qilindi. Ushbu rad etish uchun ikkita asos bor edi. Birinchidan, foydali vositalarni o'lchash vositasi kashf qilinmagan va avvalgi umidlar amalga oshmasligi aniq bo'lib qoldi. Ikkinchidan, iqtisodiy nazariyadagi yutuqlar iste'molchilar tanlovining izchil nazariyasini yaratish uchun o'lchovli foydalilikka ehtiyoj yo'qligini ko'rsatdi. Aslida, iste'molchining barcha nazariyasini faqat iste'molchining afzal buyurtmalarini ko'rsatish orqali olish mumkin. Keyinchalik yordam dasturining roli ikkinchi darajali bo'lib qoldi, agar kerak bo'lsa, imtiyozlarni ko'rsatish uchun qulay funksiyani taklif qilish mumkin, ammo aks holda ortiqcha. Yordamchi dasturda unga chuqurroq ma'no qo'shilmaganligi sababli, imtiyozlar to'plamini ifodalovchi foydali funksiyalarning har qanday monotonik o'zgarishi ham bir xil kuchga ega bo'lgan foydali funksiya bo'ladi. Yordamchi dastur oddiy tushuncha bo'lib, tabiiy nolgacha yoki o'lchov birliklariga ega emas edi. Kommunal xizmatning qurilishiga ko'ra, turli iste'molchilarning kommunal xizmatlari o'rtasidagi taqqoslash ma'nosiz tushuncha edi. Shu sababli, ushbu holat har xil iste'molchilarning kommunal darajalarini taqqoslashni asoslaydigan ilmiy asoslarni qoldirmadi.

Kommunal xizmatlarning ushbu istiqbollari va natijada iste'molchilar o'rtasida foydali mahsulotlarni taqqoslashni bekor qilish, Pareto-samaradorlik kabi ijtimoiy taqqoslashlar uchun shaxslararo

taqqoslashdan xoli tushunchalarni ishlab chiqish zaruratini tug'dirdi. Biroq ushbu mezonlarning zaif tomonlari tez orada aniq bo'ldi. 1960-yillardan boshlab analitik tendentsiya tahlilida shaxslararo taqqoslanuvchanlikni qayta qabul qilish oqibatlarini o'rganish edi. Qabul qilingan protsedurani asosan taqqoslash mumkin deb taxmin qilishdir. Bu izohlash mumkin bo'lgan natijalarni chiqarishga imkon beradi. Bular qo'llanilishi mumkin bo'lgan siyosat haqida ba'zi umumiy tushunchalarni taqdim etishga umid qilmoqda, garchi yordam dasturini taxmin qilingan tarzda taqqoslash mumkin emas.

Hatto taqqoslash mumkin deb ta'kidlaydigan ba'zi iqtisodchilar ham bor. Buning asoslaridan biri shundaki, barcha iste'molchilar juda o'xshash asosiy imtiyozli buyurtmalarga ega. Hammasi kam daromadga ega bo'lishni afzal ko'radi va daromadlari teng bo'lgan iste'molchilar xarajatlarning muqobil tovar guruhlari o'rtasida juda o'xshash taqsimotlarini amalga oshiradilar. Masalan, sotib olingan oziq-ovqat mahsulotlari juda boshqacha bo'lishi mumkin bo'lsa ham, oziq-ovqat uchun sarf-xarajatlar o'xshashdir. Bunday iste'molchilarni modellash-tirishda ularning barchasi o'z tanlovlarini boshqaradigan bir xil kommunal funksiyaga ega ekanligini tasdiqlash mumkin. Bu ularning yordam dasturlarini to'g'ridan-to'g'ri taqqoslash imkonini beradi.

Hozircha taqqoslash qobiliyati iste'molchilarning foydali darajalari o'rtasida bir-biriga qarama-qarshilik ko'rsatishga imkon beradigan ibora sifatida ishlatilgan. Aslida, turli xil taqqoslash darajalari ko'zda tutilishi mumkin. Masalan, bir xonadonning kommunal xizmat darajasi boshqasiga qaraganda yuqori, degan da'vo 15 foizga ko'proq kommunal xizmatga ega bo'lishiga qaraganda kamroq taqqoslanuvchanlikni talab qiladi. Turli xil taqqoslash darajalari individual kommunal xizmatlarni ijtimoiy imtiyoz buyurtmasiga birlashtirish usullariga ta'sir qiladi.

Taqqoslanishni ko'rib chiqishning boshlanish nuqtasi - bu ikki asosiy foydali dasturni aniqlash. Birinchisi, iste'molchilar nazariyasidan tanish tushuncha bo'lgan tartibli yordamchi dastur. Aslida, tartibli yordamchi funksiya iste'molchining befarqligi egri chizig'ini raqamlashdan boshqa narsa emas, raqami yuqori befarqlik egri chizig'ining foydaliligi yuqori darajada tanlangan. Birgalikda raqamlar o'zlarining ma'nosini o'zgartirmasdan har qanday shaklga o'tkazilishi mumkin, agar bu konvertatsiya raqamlarining reytingini o'tkazishsiz qoldirilishi shart bo'lsa - yuqori darajadagi befarqlik egri chiziqlari hali ham katta yordamchi raqamlariga birlashtirilgan bo'lishi kerak. Ular

shunchalik erkin foydalanishga topshirilishi mumkinligi asosida, bitta xizmatchi uchun ikki vaziyatdan foydalanish foyda darajasidagi farqlarning ma'nosi yo'q, ikkalasining qaysi biri yordam dasturini taqdim etadi.

Iqtisodiy teoremlariga tanqidiy nazar tashladi, garchi bu teoremlar siyosati haqida o'ylashning asoslarini ishlab chiqarish uchun muhim bo'lsa-da, ular o'zlarining maqsadlari uchun emas. Birinchi istiqbolli ikkinchi teoremadagi markazlashtirishni boshqarish va boshqarish uchun zarur bo'lgan bir martalik pul o'tkazmalarining amaliy jarayonining cheklanganligi va iqtisodiy davlatlar tomonidan amalga oshiriladigan qarorni amalga oshirish usuli sifatida Pareto-ishlab chiqarishning zaifligiga bog'liq.

Teoremlar bir qarashda juda kuchli ta'sirga ega bo'lganda ham, ammo tanqidiy nazorat ostiga olinsa, ular zaiflashadi. Ammo ular qadrsiz emas. Jamiyat iqtisodiyoti predmetlarining aksariyati ushbu teoremlarning amaliy ishlarini va bajarilishi mumkin bo'lgan narsalarga yo'l topishga urinishlarini boshlashni rejalashtirmoqda. Agar bir martalik maqbul transfertlar mavjud bo'lsa, nimaga binoan yashashni bilish, erishilgan natijalarni baholash vositalarini ta'minlash va siyosatni takomillashtirish yo'llarini amalga oshirish lozim.

Ikkinchi teoremda ishtirok etadigan boshqa jihat - bu markazsizlashtirish uchun maqbul ajratishni tanlashdir. Ushbu tanlovni amalga oshiruvchilar turli xil kommunal xizmatlarni taqsimlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy ta'minot funksiyasini talab qiladi. Bunday ijtimoiy ta'minot funksiyasi faqat mijozlarning kommunal xizmatlarini taqqoslash mumkin bo'lgan sharoitda tuzilishi mumkin. Bog'da taqqoslashning turli shakllari va ularni mos ravishda ijtimoiy ta'minot funksiyalari tasvirlangan.

Asosiy tayanch tushunchalar

Optimallik mezonlari - maqsad funksiyasiga maksimal yoki minimal qiymat bera oladi.

Soliq – bu yuridik va jismoniy shaxslardan davlat budjetiga undiriladigan majburiy to'lov.

Qayta taqsimlash – yig'ilgan mablag' yoki boshqa resurslarni iqtisodiy subyektlar, jamiyat ishtirokchilari o'rtasida yana taqsimlashdir.

Iqtisodiy taqqoslash – iqtisodiy-statistik usullar majmui bo‘lib, iqtisodiy (natural yoki qiymat) ko‘rsatkichlarni bir-birlariga solishtirish, ilmiy tahlilni ifodalaydi.

Takrorlash uchun savollar

1. Optimallik nimani ifodalaydi?
2. Ijtimoiy iqtisodiyotning ikkinchi teoremasi nima uchun foydalaniladi?
3. Bir martalik soliqlar deganda nimani tushunasiz?
4. Qayta taqsimlash jarayoni qanday amalga oshiriladi?

10-MAVZU: TENGSIZLIK VA KAMBAG‘ALLIK

1. Ijtimoiy ta‘minot funksiyasi, iqtisodiy siyosatni baholash.
2. Adolat va samaradorlik masalalari.
3. Tengsizlikni o‘lchash.

10.1. Ijtimoiy ta‘minot funksiyasi, iqtisodiy siyosatni baholash

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘zining ijobiy tomonlari bilan bir qator ziddiyatli tomonlari ham mavjud bo‘lib, jumladan, mamlakat aholisining daromad jihatdan tabaqalashuvi ijtimoiy nobarqarorlikning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Bunda, u esa bir qator aholi qatlamining kam ta‘minlangan turmush kechirish sharoiti bilan birga yuz beradi. Mazkur ijtimoiy muammolarni yumshatish uchun har bir mamlakat o‘ziga xos tarzda ijtimoiy siyosat olib boradi. Bunday siyosatning mohiyati shundaki, davlat aniq ishlab chiqilgan va aholining u yoki bu sabablarga ko‘ra daromad ishlab topish imkoniyatiga ega bo‘lmagan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish tizimi bilan qamrab olishga harakat qiladi. Mamlakatda samarali ijtimoiy ta‘minot tizimining amal qilishi vujudga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy muammolarni bartaraf qilish imkonini beradi. Rivojlangan mamlakatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan ijtimoiy ta‘minot tizimi insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ijtimoiy muammolarni hal qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy ta‘minot iqtisodiy faol aholining ish joyi, mehnatga layoqati va daromadini yo‘qotish bilan bog‘liq turli xavf-xatarlardan ijtimoiy himoyalash shakli hisoblanadi. Davlat nazorati asosida ish beruvchilar va ishlovchilarning maqsadli badallaridan shakllanuvchi maxsus budjetdan tashqari ijtimoiy jamg‘armalardan moliyalashtirilishi ijtimoiy ta‘minotning xususiyatli jihatidir.

Hozirgi vaqtda davlatning ijtimoiy himoya siyosatini amalga oshirishning huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholining nochor qatlamini adresli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish to‘g‘risida”gi Farmonida aks etgan. Bu hujjatda aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy vazifalari va unda

oila, ayol, mahalla, mahalliy o'z-o'zini boshqaruv idoralari, doimiy tashkilotlar va fondlar rolini oshirish belgilangan. Farmon hozirgi davrda aholini ijtimoiy himoyalash Milliy dasturi asosida yotadi va u quyidagi yo'nalishlarni aniqlaydi:

- Pensiya tizimini takomillashtirish, jamg'arish tizimini asta-sekin joriy etish;

- qariyalarga alohida g'amxo'rlikning paydo bo'lishi, ularga yashash uchun ko'proq qulayliklar yaratish; soliqdan kommunal xizmat alohida dasturlaridan, transport va tibbiy xizmatdan imtiyozlar berish;

- ayollar haqida g'amxo'rlikning, ya'ni ularning sog'lig'i, moddiy farovonligi, sog'lom bolalarni tarbiyalash uchun zaruriy sharoitlarni yaratish kabi g'amxo'rlikning paydo bo'lishiga amaliy chora-tadbirlar qabul qilish;

- oila manfaatlarini himoya qilish, oilani mustahkamlash bo'yicha alohida dasturning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi, yoshlarning uy jihozlarini olishini qo'llab-quvvatlash; hayotni tiklash uchun imtiyozli kreditlar berish;

- maktab yoshidagi bolalarni har tomonlama himoya qilish, ya'ni ularga boshlang'ich sinflarga bepul darsliklar, ularni arzon darslik va maktab o'quv qurollari bilan ta'minlash. Yetim bolalar va bolalar uyida tarbiyalanuvchi uchun g'amxo'rlik paydo bo'ladi. Ularni bepul ovqat, kiyim-kechak va boshqa zaruriy narsalar bilan ta'minlash hamda ularning umumta'lim maktablarida bepul o'qishi davomida choralar qabul qilingan;

- mehnatga layoqatli aholini ish o'rinlari bilan ta'minlash, mehnat resurslarining yil sayin oshishiga muvofiq qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish. Bu maqsadni amalga oshirish uchun kichik korxonalarni, qishloqlarda dehqon, fermer xo'jaliklarini yaratish hamda xususiy va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishdan keng foydalanilmoqda.

- davlat budjet mablag'larini oshirish va nodavlat fondlaridan, korxona, jamoa tashkilotlari, homiylar ixtiyoriy ravishda ajratilgan mablag'lardan keng foydalanish.

10.1-jadval

O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash tizimi

№	Himoya va qo'llab-quvvatlash shakllari	Oluvchilar toifasi	To'lov va xizmat turlari
1	Cheklangan imkoniyatlarga ega kishilarni ijtimoiy himoyalash	Nogironlar, nogiron bolalar	Protez-ortoped mahsulotlar, eshitish uskunalari (apparatlari), kitoblar, darsliklar va tibbiy, sotsial hamda mehnatni oqlash orqali boshqa xizmatlar
2	Boshqalar parvarishiga (boqimiga) muhtoj yolg'iz qariyalarni ijtimoiy himoyalash	Yolg'izqariyalar	Uyda tibbiy xizmatlar, bepul zaruriy oziq-ovqatlar bilan ta'minlash (har oyda 9 nomdagi mahsulot), uy- joyni bepul joriy va kapital ta'mirlashni amalga oshirish
3	Bolalarni ijtimoiy himoyalash, ya'ni ota-ona tarbiyasisiz qolgan bolalar va yetim bolalarni	Yetim bolalar, ota-ona tarbiyasisiz qolgan bolalar	Yetim bolalar uchun "Mehribonlik uyi" yetim bolalarni himoya qiladigan ijtimoiy-psixologik markaz shoxobchasi, Toshkentda "SOS" bolalar shaharchasi
4	Ishsizlarni himoyalash va qo'llab-quvvatlash	Ishsiz fuqarolar	Ishga joylashishi bo'yicha xizmatlar ko'rsatish va pul shaklidagi nafaqa berish bilan moddiy yordam berish
5	Kam ta'minlangan oilalarni, bolali oilalarni, ona-bolali oilalarni qo'llab-quvvatlash	Kam ta'minlangan oilalar, 16 yoshgacha bolalari bor oilalar, 12 yoshgacha bolalarni tarbiyalayotgan onalar	Pul shaklidagi nafaqa berish bilan moddiy yordam berish

6	Nogironlar va nogiron bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash	Nogironlar, nogiron-bolalar	Pul shaklidagi nafaqa berish bilan moddiy yordam berish
7	Pensiya tizimi bilan qamrab olinmagan qariyalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash	Qariyalar	Nafaqa shaklida moddiy qo'llab-quvvatlash
8	Keksaygan, nafaqa yoshiga yetgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash tizimi	Nafaqayoshigayetgan fuqarolar	Pensiya berish orqali moddiy qo'llab-quvvatlash
9	Imtiyozlar va preferensiyalar	1 va II guruh nogironlari, yolg'iz pesionerlar, pensiya uchun zaruriy mehnat stajiga ega bo'lmagan qariyalar, yetim bolalar, kam ta'minlangan oilalar bolalari	Uy-joy uchun kompensatsion to'lovlar, transport xizmatiga imtiyozli to'lovlar, davolash profilaktika muassasalarida bepul dori-darmon va ovqat bilan ta'minlash, sanitar-kurort muassasalariga davolanish uchun yo'llanmalar, protez-ortoped mahsulotlar, soliqning ba'zi turlaridan ozod etish

Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida O'zbekistonda faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda yangicha amaliy va samarali shakllarni qo'llashni taqozo etadi. Jahon tajribasining ko'rsatishicha, pensiya tizimi faoliyatini yo'lga qo'yish va undan samarali foydalanish boshqa daromad hisobga olingan holatda ijtimoiy muammolarni hal qilish va kishilarni keksalikda kambag'allikdan himoyalashning muhim vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Pensiya tizimi ta'minot asosida shakllantiriladigan va aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va konstitutsion huquqlarini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan pul mablag'lari jamg'armasidan

foydalanishga asoslanadi. Pensiya tizimiga xizmat qiluvchi pensiya jamg'armalari uchun daromad manbalarining aniq belgilanganligi, mablag'larning qat'iy maqsadli ishlatilishi, aholi ijtimoiy tabaqlashuvini yumshatishga yo'naltirilganligi, mablag'larning shakllanishi va ishlatilish muddatlarining mos kelmasligi, mustaqil moliya-kredit tashkiloti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'arma ekanligi hamda ijtimoiy ta'minotning muhim elementi ekanligi kabi xususiyatlar xosdir.

Milliy iqtisodiyotdagi pensiya tizimi iqtisodiy resurslar erkin harakatiga asoslangan taqsimot munosabatlari mahsuli bo'lib, katta ijtimoiy yukni ko'taradi. Uning mablag'lari firmalar, korxonalar, uy xo'jaliklari va davlat singari iqtisodiyot subyektlari daromadlarini qayta taqsimlash jarayonida shakllanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatligini ta'minlash tarafdorlarining fikricha, davlat pensiya tizimining mavjudligi va uning amal qilishi maqsadli aniq yo'naltirilgan mablag'larning samarali sarflanishini aks ettiradi. Ushbu tizimning mavjudligi ishlovchining o'zini mustaqil ta'minlash to'g'risida qayg'urishini qisman cheklaydi, mehnat faoliyatini to'xtatgandan keyin pul daromadlari olishga bo'lgan ishonch ularning mehnat sifatini oshirishga qaratilgan manfaatdorligini kamaytiradi. Ishlovchi o'zini moddiy jihatdan mustaqil ta'minlashga bo'lgan ehtiyoji va doimiy intilishi uni mehnat unumdorligini oshirishga rag'batlantiradi. Bu dalilning boshqa jihati investitsion jarayonlarni yanada takomillashtirish maqsadlaridan kelib chiqib iqtisodiy o'sishga yo'naltirilgan aholi jamg'armalarini rag'batlantirib boradi. Shundan kelib chiqib ta'kidlash joizki, kelajakda mustaqil moddiy ta'minlanish to'g'risida qayg'urish faol aholi qatlamini o'zining mehnat faoliyati jarayonida o'z xohishiga ko'ra jamg'armalar qilishga majbur etadi. Bu esa o'z navbatida, ularning banklardagi jamg'arma mablag'lari investitsiya sifatida foydalanilishi va mehnat unumdorligining ortishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natijada belgilangan muddatda pensionerlarni daromad manbai harakatga keladi va ushbu mablag'lar iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Pensiya ta'minoti tizimi oldida quyidagi muhim maqsadlar turadi:

- keksalik davrida kambag'allikdan himoyalash;

- mehnat faoliyati tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan to'lanadigan ish haqi miqdoriga proporsional tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta'minlash;
- bu daromadni kelajakda turmush darajasining pasayishidan himoyalash.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida pensiyalar miqdori, bir tomondan, jamiyatda eng kam daromadlarning himoyasini ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikka erishish imkonini beradi, ikkinchi tomondan ijtimoiy adolatlilikni ta'minlash imkonini beruvchi pensiyaga chiqish oldidagi ish haqi darajasi bilan bog'liq. Shunday qilib, davlat pensiya tizimida joriy pensiya majburiyatlarini qoplash uchun zaruriy badal turlarini yig'ish amalga oshiriladi. Pensiya miqdori esa pensiya jamg'armasining faoliyat natijasiga, moliya bozoriga, mablag'larni samarali investitsiyalash darajasiga bog'liq bo'lmay, investitsion moyillikning susayishi kabi qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Pensiya tizimining davlat (solidar) va jamg'arilib boriladigan pensiya tizimi bu ikki bir-biridan prinsipial farq qiluvchi modellari o'rtasida ko'pgina oraliq variantlar mavjud bo'lib, ulardan har biri tizimdagi kamchiliklarni kamaytirish va ularning ustunligini kuchaytirishiga yo'naltirilgandir. Bu tegishli tashkiliy-huquqiy tarkibni yaratishga urinishda o'z ifodasini topadi. Bunday tarkibni umumlashgan shaklda uch darajali tizim shaklida ko'rishimiz mumkin:

- davlat nazorati ostida amalga oshiriluvchi umumiy va majburiy pensiya tizimi. Mazkur modelda pensiya miqdori ish haqi miqdoriga bog'liq bo'ladi, ish beruvchi va yo'llanma ishlovchidan olinadigan badallarni qayta taqsimlash tamoyili asosida moliyalashtiriladi;

- majburiy ijtimoiy ta'minot tizimi orqali beriladigan va minimal ta'minot stajini "to'plagan" kishilar uchun davlat budjeti dotatsiyasidan foydalanuvchi ijtimoiy pensiya tizimi;

- to'la kapitallashtirish va jamg'arish tamoyiliga asoslangan, individual hisoblarni yuritish orqali amalga oshiriladigan xususiy pensiya tizimi.

Pensiya ta'minotining mazkur modeli quyidagi yondoshuvlarga asoslanadi:

birinchidan, mamlakatning barcha fuqarolarini kambag‘allikdan ijtimoiy himoyalash uning vazifasidir (ijtimoiy pensiyalar);

ikkinchidan, umumiy ta‘minot tizimi uch darajali tizimning muhim elementi hisoblanadi hamda barcha iqtisodiy faol aholiga qarilik bo‘yicha pensiyani “ishlab topish” ni ta‘minlaydi;

uchinchidan, qo‘shimcha ixtiyoriy ta‘minot tizimi, u har bir ishlovchi fuqaroga xususiy jamg‘armalar qilish imkonini beradi.

10.2. Adolat va samaradorlik masalalari

Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yo‘nalish – bu narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o‘rtacha darajasini muntazam oshirib borish hisoblanadi. Bunda respublikaning o‘ziga xos yondashuvi ishlab chiqilib, daromadlar nisbatini o‘zgartirish, ish haqi, pensiyalar, stipendiyalarning, jamg‘arma banklardagi aholi omonatlari stavkalarining eng oz miqdorini bir vaqtning o‘zida qayta ko‘rib chiqish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Daromadlar nisbatini o‘zgartirishda 1993-yil joriy etilgan yangi yagona tarif setkasi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu barcha toifadagi xodimlarning mehnat haqi miqdorlarini tarif koeffitsiyentlari orqali, eng kam ish haqi vositasi bilan bevosita o‘zaro bog‘lash imkonini berdi.

Aholini ijtimoiy himoyalashning ikkinchi yo‘nalishi – ichki iste‘mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste‘molini muayyan darajada saqlab turish bo‘ldi. Bunga erishishda muhimi mahsulotlar eksportini bojxona tizimi orqali nazorat qilish va ularga yuqori boj to‘lovlari joriy etish, kundalik zarur tovarlarni me‘yorlangan tarzda sotishni tashkil qilish kabi tadbirlar katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Milliy valyuta joriy etilishi bilan oziq-ovqat mahsulotlarini me‘yorlangan tarzda sotishdan voz kechish erkin narxlarga o‘tish imkoniyatini yaratadi.

Iqtisodiy islohotlarning ilk bosqichida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning uchinchi yo‘nalishi – aholining kam ta‘minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo‘llab-quvvatlash borasida kuchli chora-tadbirlar o‘tkazilganligi bo‘ldi. Bu yo‘nalishda aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari – pensionerlar, nogironlar, ko‘p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o‘quvchi yoshlar hamda

qayd etilgan miqdorda daromad oluvchi kishilar turli xil yo‘llar bilan himoya qilib borildi.

Yalpi ijtimoiy himoyalash tizimidan ishonchli ijtimoiy kafolatlar va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimiga izchillik bilan o‘tish – ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga, ijtimoiy himoya vositasini kuchaytirishda sifat jihatdan yangi bosqich boshlashini bildiradi.

Yangilangan ijtimoiy siyosat adolat tamoyillariga izchillik bilan rioya qilishga asoslanib, ijtimoiy ko‘maklashishning mavjud usullarini va pul bilan ta‘minlash manbalarini tubdan o‘zgartirishni taqozo qiladi. Bu siyosat ijtimoiy himoya aniq maqsadli va aholining aniq tabaqalarini qamrab olishni ko‘zda tutadi. Yordam tizimi faqat kam ta‘minlangan va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nisbatan qo‘llanilib, shu maqsad uchun davlat manbalari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, turli tashkilot hamda jamg‘armalarning mablag‘laridan ham foydalaniladi.

Ijtimoiy ko‘maklashishning yangi tizimida bolalar va kam daromadli oilalar yordamdan bahramand bo‘luvchi asosiy kishilar hisoblanib, ular uchun hamma nafaqa va moddiy yordamlar faqat mahalla orqali yetkazib beriladi. Shu maqsadda mahallalarda budjet mablag‘lari, korxona va tashkilotlar, tadbirkorlik tuzilmalari va ayrim fuqarolarning ixtiyoriy o‘tkazgan mablag‘lari hisobidan maxsus jamg‘armalar hosil qilindi.

Ijtimoiy ko‘maklashishning yangi tizimi mehnatga rag‘batlantiradigan omillar va vositalar yangi tuzilmasi paydo bo‘lishini ham taqozo qiladi. Shunday qilib, islohotlar davrida davlat aholining muhtoj tabaqalarini qo‘llab-quvvatlash bilan birga, o‘z mehnat faoliyati orqali oilasining farovonligini ta‘minlashga intiluvchi kishilar uchun teng sharoit va qulay imkoniyat yaratishga harakat qiladi. O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar buning yaqqol dalilidir.

Mamlakatimiz aholisi pul daromadlarining oshib borishi o‘z navbatida ular turmush sharoiti va sifatining bosqichma-bosqich yaxshilanib borishiga zamin yaratmoqda. Bu esa o‘tgan davrda qator ijobiy o‘zgarishlarni qo‘lga kiritish imkonini berdi.

Shuni e'tiborda tutish lozimki, respublikamizda keyingi yillarda aholining kam ta'minlangan va muhtoj qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ularga moddiy yordam ko'rsatish borasida aniq yo'naltirilgan samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, ta'lim, kadrlar tayyorlash, sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy himoya qilish sohalarida maqsadli umummilliy dasturlarni hayotga tatbiq etish yanada faollashtirildi.

Bularning barchasi mamlakat aholisini ijtimoiy jihatdan har tomonlama qo'llab-quvvatlash va himoya qilish, uning turmush farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Tengsizlikni o'lchash

Dunyodagi barcha mamlakatlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlar darajasi bilan bir-biridan keskin farqlanadi. Bu turli mamlakatlar aholisining daromadlari darajasi o'rtasida tengsizlik mavjudligini bildiradi. Shu bilan birga alohida olingan mamlakatlar aholisining turli qatlam va guruhlar o'rtacha daromadlari darajasida ham farq mavjud bo'ladi. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi ham daromadlaridagi farqlarni bartaraf eta olmaydi.

Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishi - davlatni ravnaqi, kelajagining porloqligi shuningdek, aholi turmush darajasi farovonligini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Lekin, iqtisodiy o'sish yoki barqaror rivojlanish har doim ham mamlakatda istiqomat qilayotgan barcha fuqaro va ijtimoiy guruhlarni bir hilda farovon hayot kechirayotganligini ifodalamaydi. Balki boshqa omillar ta'sirida jumladan, daromadlar taqsimotidagi muammolar, jamiyatda tengsizlikni kelib chiqishiga sabab bo'ladi, natijada ijtimoiy himoyaga muxtoj bo'lgan kambag'al qatlam paydo bo'lishiga olib keladi. Bu holat ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida qaralib, ko'plab iqtisodchi va sosiolog olimlar tomonidan tadqiq etishga sabab bo'lgan. Hozirgi bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan jamiyatda ham ushbu muammo dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonda biz birinchi navbatda kambag'al, kambag'allik kategoriyasining mazmun-mohiyatini to'g'ri anglanishi kerak.

Kambag'allik - bu shaxs yoki ijtimoiy guruh iqtisodiy holatini tavsiflovchi, ular o'zlarining mehnat qobiliyatlarini tiklash va avlod davomiyligini saqlab qolish uchun hayotiy ne'matlarga bo'lgan minimal ehtiyojlarini qondira olmasligi ifodalovchi kategoriya hisoblanadi.

19 asrdayoq oila budjeti asosida kambag'allik chegarasini hisoblash, mutloq kambag'allik mezonini, daromadlar darajasi, mehnat qilish qobiliyatini qo'llab-quvvatlash va sog'ligini qayta tiklash kabilar bilan bog'langan holda kiritish taklifi ilgari surilgandi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, kambag'allik muammolari bilan asosan iqtisodchilar bilan bir qatorda sosiologlar shug'ullangan va ularning ko'p qismi tomonidan kambag'allikni mavjudligi qonuniyat sifatida tan olingan, turli qarashlarni, nuqtai-nazarlarni mavjudligi eng avvalo uni hal etishda davlat aralashuvi kerak yoki kerak emasligi, agar aralashsa uning ko'lami qay darajada bo'lishi kerakligi xususida mulohazalar yuritilgan.

Kambag'allik ko'plab o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan omillar natijasidir, asosiy bo'linish, jamiyatning yoki shaxsning xususiyati kabi, uni yuzaga kelish sabablari darajasida paydo bo'ladi. Odatda, kambag'allik ishchi kuchi bozoridagi holat, oila tarkibi va yoshi bilan chambarchas bog'liqdir. Kambag'al qatlam asosan kam haq to'lanadigan ishda ishlovchilar, ishsizlar, yolg'iz ota yoki ona, bolalar va qariyalardir. SHuni ta'kidlash joizki, har bir davlatda kambag'allarning ko'rinishi va tarkibi bo'yicha yondashuv bir-biridan farqlanishi mumkin.

O'zbekistonda kambag'allik ko'p yillar yopiq mavzu bo'lib keldi, Davlatimiz rahbari SH.Mirziyoyev 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida kambag'allik ochiq-oydin gapirdi va kambag'allikni qisqartirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

O'zbekistonda kambag'allikning milliy standartlarini belgilashda 3 ta aholi toifalarining kambag'allik darajasidan kelib chiqib kompleks yondoshish talab etiladi:

1-toifa. Ijtimoiy maqomdan kelib chiqib, doimiy kambag'allar (ayrim pensionerlar-yakka yolg'iz, qarovchisi yo'qlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, qarovchisini yo'qotgan yoki ko'p bolali oilalar va h.k).

2-toifa. Kambag'allikdan chiqib ketish imkoniyatiga ega bo'lgan toifalar (balog'at yoshidagilar, ayollar, ishsizlar va h.k.).

3-toifa. Kambag'allikka yuz tutish xavfi bo'lgan toifalar – kamdaromadli farroshlar, qarovullar, oddiy ishchilar, kasbi zamon talablariga javob bermaydiganlar, ishdan bo'shab qolganlar, farovonlikka intilmaydiganlar va h.k.).

Kambag'allik nisbiy va ko'p qirrali tushuncha, mazkur jamiyatdagi umumiy turmush darajasi me'yorlariga bog'liq bo'lib, Djinni koeffisienti orqali ifodalanadi.

Kambag'allik bu shunday holatki, insonlar undan chetroqda bo'lishni afzal ko'rishadi, bu holatga tushib qolganlar esa undan chiqish yo'llarini izlaydilar, har doim ham davlatning yoki biron bir ko'makchining yordamisiz undan chiqishni imkoni bo'lmaydi. Davlat kambag'allikni tartibga solishdan ko'zlagan maqsadi, uni qisqartirishga yo'naltirilgan, bu o'z navbatida aholining kam ta'minlangan qatlamini moddiy va ijtimoiy ne'matlardan kengroq foydalanish imkoniyati kengaytirish, bandlik va kasbga o'qitishni qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarga erishishning asosiy yo'nalishlari bo'lib, makroiqtisodiy siyosat va iqtisodiy o'sish, ijtimoiy siyosat, xududiy siyosat hamda monitoring tizimi hisoblanadi.


“Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 12-15 foiz yoki 4-5 million aholimiz kambag'al. Bu ularning bir kunlik daromadi 10-13 ming so'mdan oshmayapti, degani. Yoki bir oilada mashina ham, chorva ham bo'lishi mumkin, lekin bir kishi og'ir kasal bo'lsa, oila daromadining kamida 70 foizi uni davolatishga ketadi. Xo'sh bunday oilani o'ziga to'q deyish mumkinmi? Prezident sifatida meni odamlarimizning ovqatlanishi, davolanishi, bolalarini o'qitishi, kiyintirishi kabi hayotiy ehtiyojlari nima bo'layapti, degan savol har kuni qiynaydi” – dedi Shavkat Mirziyoev¹.

Makroiqtisodiy siyosat, iqtisodiy o'sish va yakuniy mahsulotni to'g'ri taqsimlanishi kambag'allik darajasini qisqartirishga imkon beradi. Iqtisodiy o'sish, rivojlanish sur'atiga va jamiyatda daromadlarni samarali taqsimlanishiga pul-kredit siyosati, narxlar

¹ Tadbirkorlikni rivojlantirish va kasbga tayyorlash orqali kambag'allikni kamaytirish choralari belgilandi (27.02.2020) - <https://president.uz/uz/lists/view/3408>

barqarorligi va pulning harid qobiliyati mustahkamligini ta'minlash orqali ahamiyatli darajada ta'sir qiladi. Soliq-budjet tizimi soliqlarni nazorat qiladi va shu orqali ijtimoiy himoya tizimini zaruriy darajada qo'llab-quvvatlaydi. Turmush darajasiga aholi guruhlari o'rtasida soliq yukini taqsimlash orqali ham ta'sir etish mumkin. Investision siyosat ishlab chiqarishni modernizasiyalash va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun zarur. Aholining kam ta'minlangan qatlami iste'molchi sifatida ham va ishlab chiqaruvchi sifatida ham mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatiga qaramdir. Iqtisodiy o'sish zaruriydir, lekin bu barcha muammoni hal eta oldigan darajada etarlicha shart bo'lib hisoblanmaydi. Ushbu iqtisodiy o'sishning bir qismi aholining kambag'al qatlami iste'moliga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

O'z-o'zidan aniqki, iqtisodiy o'sish daromadlarning ko'payishiga olib keladi. Bunda butun aholi daromadlari mutlaq miqdorda asta-sekin o'sib boradi. Daromadlarning mutlaq miqdori ko'payib borsa-da, har doim ham daromadlar tengsizligi darajasiga ta'sir ko'rsatmasligi mumkin. Daromadlar tengsizligi darajasini miqdoriy aniqlash uchun jahon amaliyotida Lorens egri chizig'idan foydalaniladi 10.1-rasm. Chizmaning yotiq chizig'ida aholi guruhlarning foizdagi ulushi, tik chizig'ida esa bu guruhlar tomonidan olinadigan daromadning foizdagi ulushi joylashtirilgan. Nazariy jihatdan daromadlarning mutlaq teng taqsimlanishi imkoniyati (burchakni teng ikkiga bo'luvchi) OE chiziqda ifodalangan bo'lib, u oilalarning har qanday tegishli foizi daromadlarning mos keluvchi foizini olishini ko'rsatadi. Ya'ni aholining 20 foizi barcha daromadlarning 20 foizini, aholining 40 foizi daromadlarning 40 foizini, aholining 60 foizi daromadlarning 60 foizini olishini bildiradi va h.k. Demak, OE chizig'i daromadlarning taqsimlanishidagi mutlaq tenglikni ifodalaydi. Shuningdek, nazariy jihatdan mutlaq tengsizlikni ham ajratib ko'rsatish mumkin. Bunda aholining ma'lum guruhlari (20 foiz, 40 yoki 60 foiz va h.k.) hech qanday daromadga ega bo'lmay, faqat bir foizi barcha 100 foiz daromadga ega bo'ladi. Chizmadagi OFE siniq chizig'i mutlaq tengsizlikni ifodalaydi.



10.1-rasm. Lorens egri chizig'i.

Real hayotda mutlaq tenglik va mutlaq tengsizlik holatlari mavjud bo'lmaydi. Balki aholining ma'lum guruhlari o'rtasida daromadlarning taqsimlanishi notekis ravishda boradi. Bunday taqsimlanishini Lorens egri chizig'i deb nomlanuvchi 0E egri chizig'i orqali kuzatish mumkin. Aholi guruhlari ulushi va daromad ulushini birlashtiruvchi egri chiziqdan ko'rinadiki, aholining dastlabki 20 foiziga daromadlarning juda oz (taxminan 3-4 foizgacha) qismi to'g'ri keladi. Keyingi guruhlarga to'g'ri keluvchi daromad ulushi ortib boradi. Daromadning eng katta qismi (deyarli 60 foiz) aholining so'nggi 20 foiziga to'g'ri keladi. Bu guruh chegarasi ichida ham daromadlar notekis taqsimlangan, ya'ni dastlabki 10 foiz taxminan 20 foiz daromadga ega bo'lsa, keyingi 10 foizga daromadning deyarli 40 foizi to'g'ri keladi va h.k.

Mutlaq tenglikni ifodalovchi chiziq va Lorens egri chizig'i o'rtasidagi tafovut daromadlar tengsizligi darajasini aks ettiradi. Bu farq qanchalik katta bo'lsa, ya'ni Lorens egri chizig'i 0E chizig'idan qanchalik uzoqda joylashsa, daromadlar tengsizligi darajasi ham shunchalik katta bo'ladi. Agar daromadlarning haqiqiy taqsimlanishi mutlaq teng bo'lsa, bunda Lorens egri chizig'i va bissektisa o'qi bir-biriga mos kelib, farq yo'qoladi.

Daromadlar tabaqalanishini aniqlashning ko'proq qo'llaniladigan ko'rsatkichlaridan biri ditsel ko'effitsiyenti hisoblanadi. Bu ko'rsatkich 10 foiz eng yuqori ta'minlangan aholi o'rtacha daromadlari va 10foiz

eng kam ta'minlanganlar o'rtacha daromadi o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi. Masalan, AQSH va Buyuk Britaniyada bu nisbat 13:1ga, Shvetsiyada esa 5,5:1ga teng.

Yalpi daromadning aholi guruhlari o'rtasida taqsimlanishini tavsiflash uchun aholi daromadlari tengsizligi indeksi (Jini koeffitsiyenti) ko'rsatkichi qo'llaniladi. Jini koeffitsiyenti chizmadagi Lorens egri chizig'i bilan mutlaq tenglik chizig'i o'rtasidagi yuzaning OFE uchburchak yuzasiga nisbati orqali aniqlanadi. Bu ko'rsatkich qanchalik katta bo'lsa, (ya'ni 1,0 ga yaqinlashsa) tengsizlik shuncha kuchli bo'ladi. Jamiyat a'zolari daromadlari tenglashib borganda bu ko'rsatkich 0 (nol)ga intiladi. Masalan, keyingi yarim asr davomida Jini indeksi Buyuk Britaniyada 0,39 dan 0,35 ga qadar, AQSHda esa 0,38 dan 0,34 ga qadar pasaygan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisodiy beqarorlik tufayli qarab chiqilgan bu ko'rsatkich o'sish tamoyiliga ega bo'ladi. Umumiy daromadning tabaqalanishi alohida tarmoqlar va faoliyat sohalarida ish haqi darajasidagi farqlarning ortishi bilan birga boradi. Milliy iqtisodiyotda o'rtacha ish haqining tarmoqlar, korxonalar va ishlovchilar toifalari bo'yicha yuqori tengsizligi tarkib topadi. Daromadlar tengsizligida katta farqlar mavjud bo'lishining asosiy sababi bozor tizimiga asoslangan iqtisodiyotning o'z xususiyatlaridan kelib chiqadi. Respublikamizda ham bozor iqtisodiyotiga o'tish daromadlar tengsizligi muammosini keskinlashtiradi. Bu yerda asosiy rolni mol-mulk (uy-joy, ko'chmas mulk, aksiya va boshqalar)ga ega bo'lish omili o'ynay boshlaydi. Daromadlarning tabaqalanish jarayoni yetarli darajada tez boradi, minimal darajadan bir necha o'n baravar yuqori daromadga ega bo'lgan ijtimoiy qatlam shakllanadi. Daromadlarning tabaqalanishi mulkiy tabaqalanishni keltirib chiqaradi. Vaqt o'tishi bilan oilalarning o'z mol-mulkini meros qilib qoldirishi natijasida daromadlar tabaqalanishining kuchayishi ro'y beradi. Har xil oilalar uchun turlicha iste'mol muhiti yaratiladi. Ijtimoiy tenglik va daromadlar taqsimotida adolatni ta'minlashda muhim muammolar vujudga keladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi umumiy omillar ham mavjud bo'ladi. Bularning asosiylari quyidagilar:

- kishilarning umumiy (jismoniy, aqliy va estetik) layoqatidagi farqlar;
- ta'lim darajasi va malakaviy tayyorgarlik darajasidagi farqlar;
- tadbirkorlik mahorati va tahlikaga tayyorgarlik darajasidagi farqlar;
- ishlab chiqaruvchilarning bozorda narxlarni o'rnatishga layoqatliligi (bozordagi hukmronlik darajasidan kelib chiqib) darajasidagi farqlar.

Bunday sharoitda davlatning daromadlarni qayta taqsimlash vazifasi daromadlar tengsizligidagi farqlarni kamaytirish va jamiyat barcha a'zolari uchun ancha qulay moddiy hayot sharoitini ta'minlashga qaratiladi.

Daromadlar tengsizligi kamayishining taxminan 80 foizini asosan transfert to'lovlari taqozo qiladi. Aniqroq aytganda, davlat transfert to'lovlari eng past daromad oluvchi kishilar guruhi daromadining asosiy qismi (70-75 foiz) ni tashkil qiladi va qashshoqlikni yumshatishning eng muhim vositasi hisoblanadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Aholi daromadlari – aholining ma'lum vaqt davomida pul va natural shaklda olgan daromadlari miqdori.

Nominal daromad – aholi tomonidan pul shaklida olingan daromadlari summasi.

Ixtiyorida bo'lgan daromad – barcha soliqlar to'langandan keyin qolgan daromad, ya'ni shaxsiy iste'mol va jamg'arma maqsadlarida foydalanish mumkin bo'lgan daromad.

Real daromad – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib aholi ixtiyoridagi daromadning zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni sotib olishga yetadigan quvvati, ya'ni aholi daromadining xarid quvvati.

Lorens egri chizig'i – daromadlar tengsizligi darajasini miqdoriy jihatdan ifodalovchi geometrik egri chiziq.

Ijtimoiy to'lovlar – kam ta'minlanganlarga pul yoki natural shaklda yordam ko'rsatishga qaratilgan turli xil to'lovlar.

Ijtimoiy siyosat – davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni, iqtisodiyot qatnashchilari o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo‘naltirilgan siyosat.

Takrorlash uchun savollar

1. Davlatning aholi daromadlarini shakllantirish siyosati deganda nimani tushunasiz? Ijtimoiy adolatni ta‘minlashda bu siyosatning roli qanday?

2. Aholi daromadlari tushunchasini va uning darajasiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni sanab ko‘rsating.

3. Turmush darajasi va uning tushunchasiga izoh bering. Turmush darajasini qanday ko‘rsatkichlar tavsiflab beradi?

4. Daromadlar tengsizligining asosiy sabablarini sanab ko‘rsating va tushuntirib bering.

5. Lorens egri chizig‘i nimani anglatadi? Uning mazmunini misollar yordamida bayon qiling.

6. Jini koeffitsiyenti qanday aniqlanadi? Rivojlangan mamlakatlarda mazkur koeffitsiyent qiymatining o‘zgarish tendensiyalari nima bilan izohlanadi?

7. O‘zbekistonda davlat yordam dasturlari tizimini isloh qilish va uni hozirgi davrdagi asosiy yo‘nalishlarini izohlang.

8. Mamlakatimizda «Ijtimoiy himoya yili» davlat dasturi doirasida qanday ishlar amalga oshirildi?

9. Keyingi yillarda O‘zbekistonda aholi daromadlarini oshirish borasida qanday natijalar qo‘lga kiritilmoqda?

10. Mamlakatimizdagi aholi daromadlari tarkibining o‘zgarishida qanday tendensiyalar kuzatilmoqda?

11-MAVZU: TOVAR VA DAROMAD SOLIG'I

1. Tovar soliqlari, tovarlarning sotib olish bilan bog'liq operatsiyalar.
2. Maqbul tovar soliqlari.
3. Daromad solig'ining maqbul darajasini aniqlash.

11.1. Tovar soliqlari, tovarlarning sotib olish bilan bog'liq operatsiyalar

Mahsulot solig'i tovarlarni sotib olish bilan bog'liq bitimlardan olinadi. Transaksiya operatsiyalari bo'yicha hisob varaqlarni yuritish zarurati, odatda, ommaviy ma'lumot bo'lishini ta'minlaydi. Bu ularni soliqqa tortish uchun qulaylik imkonini beradi. Biroq buning kamchiligi tovarlarga soliq solinishi, iste'molchilar tanloviga salbiy ta'sir qiladi va samarasizlikka olib keladi. Ba'zi ajoyib misollarni Buyuk Britaniya tarixidan topish mumkin, u yerda derazalarga va o'choqlarga soliqlar solingan (uylarga soliq).

Deraza solig'i 1696-yilda Uilyam III davrida joriy qilingan va 1851-yilgacha davom etgan. Soliq oltitadan ko'p derazaga ega bo'lgan har qanday uyga to'langan (1825-yilda sakkiztaga ko'tarilgan), bu esa ruxsat etilgan oltitadan oshiq derazalarni g'isht bilan suvab tashlashga turtki bo'lgan. Hatto bugun ham Angliyada derazalari devor bilan o'ralgan eski uylarni uchratish mumkin.

Binoning har bir o'chog'i uchun yiliga daromad solig'i 1662-yildan 1689-yilgacha ikki shiling (shudgor qiluvchining ikki kunlik ish haqi) stavkasi bo'yicha undirilgan.

Bu esa odamlar tomonidan o'choqlarni suvab tashlashga va qishni titrab o'tkazishga undadi. Tovarlariga solinadigan soliqlar ishlab chiqaruvchilar oladigan narxlar va iste'molchilar to'laydigan narxlar o'rtasida farqni keltirib chiqaradi.

Bu bir martalik soliqlar bilan erishish mumkin bo'lgan natijaga nisbatan, samarasizlikka olib keladi va erishiladigan farovonlik darajasini pasaytiradi.

Tovar soliqlarining ta'sirini tushunish juda oson - soliqni joriy etish mahsulot narxini ko'taradi. Bozorning iste'molchi tomonida standart tahlili.

Daromad va o'rnini bosuvchi samara, talab bilan nima bo'lishini bashorat qiladi. Ishlab chiqaruvchilar uchun soliq bu xarajatlarning ko'payishi bo'lib, ular shunga mos ravishda munosabat bildirishadi.

Qizig'i shundaki, hukumat uchun maqbul soliqlar to'plamini tanlash. Bu savol uchun qiziqarli yondashuvlar mavjud. Eng oddiy variantni quyidagicha ta'riflash mumkin. Faqat tovarlarga solinadigan soliqlar hisobidan, moliyalashtirilishi kerak bo'lgan davlat daromadlarining ma'lum bir darajasi mavjud.

Kerakli daromadni oshirish, jamiyat xarajatlarini minimal-lashtirish uchun soliqlarni qanday belgilash kerak? Bu Ramseyning samarali soliqqa tortish muammosi hisoblanadi.

1920-yillarda. Ushbu tadqiqot, mahsulotga optimal soliqlarni o'rnatish kerakligini ifodalaydi. Ko'proq umumiy muammolar samaradorlikdan tashqari tenglik masalalarini ko'taradi.

Mahsulot solig'i joriy etilishi natijasida qaytarib bo'lmaydigan zararlarni muhokama qilish boshlanadi. Tovarlarni maqbul soliqqa tortishning diagramma asosida tahlili keltirilgan. Ushbu diagramma Diamond - Mirrlees ishlab chiqarilishini namoyish qilish uchun ham foydalaniladi.

Samaradorlik natijasi. Shundan so'ng Ramsey qoidasi chiqariladi va uning talqini beriladi.

Keyin ko'plab iste'molchilar uchun kengaytma amalga oshiriladi, adolat va samaradorlik o'rtasidagi o'zaro kelishuv ta'kidlanadi. Shundan so'ng empirik ma'lumotlarga asoslanib, maqbul soliqlarning ba'zi raqamli hisob-kitoblari haqida umumiy ma'lumot beriladi.

Bir martalik soliqqa tortish mukammal soliq vositasi sifatida tavsiflangan, chunki u hech qanday o'zgarishlarni, buzilishlarni keltirib chiqarmaydi. O'zgarishlarni buzilishlarning bo'lmasligi, xatti-harakatlarning o'zgarishi soliq darajasiga ta'sir etmasligi sharti bilan bir martalik soliq belgilanishi bilan bog'liq. Tovarlarga soliq solish ushbu tavsifga tushmaydi. Tovarlarga soliq solishning joriy qilinishi natijasida, har doim iste'mol rejasini o'zgartirishga asos bo'lishi mumkin. Talab yuqori soliq solinadigan tovarlardan past solikli tovarlarga o'tishi mumkin va kam iste'mol qilish yoki ko'proq tejash orqali umumiy iste'mol kamayishi mumkin.

Marjadagi ushbu o'zgarishlarni, ya'ni soliq bilan bog'liq o'zgarishlar, buzilishlar almashtirish samarasi, effektlari deb ataymiz.

Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning asosiy vositalari quyidagilar hisoblanadi:

soliq;

dotatsiya;

o'rnatilgan narx.

Bozorni tartibga solishda davlatning eng madaniylashgan vositasi soliqlar hisoblannadi, ular iqtisodiy subyektlar erkin xarakatini cheklamaydi, shuningdek, bozor mexanizmining amal qilishini izdan chiqarmaydi.


Bozorga soliqlarning ta'sirini tovarga aksiz solig'ini o'rnatish misolida ko'rib chiqishimiz mumkin:

a) soliq sotuvchilar tomonidan to'lanad;

b) soliq iste'molchilar tomonidan to'lanadi.


1-variantdan boshlaymiz. Faraz qilamiz, o'rnatilgan soliq tovarning har bir birligiga T so'mni tashkil etadi. Soliqni joriy qilgunga qadar talab chizig'i $D1DD1$ holatida edi, taklif chizig'i esa – $S1S1$. Muvozanatlashgan narx $P1$ ni tashkil qilgan (muvozanatlashgan sotuv hajmi – $Q1$ (11.1-rasm)).

Soliqni joriy qilish natijasida taklif chizig'i tepaga T miqdorga siljiydi, sotuvchi avvalgi miqdordagi daromadni olish uchun mazkur tovarni T so'mga yuqori narxda sotishga rozi bo'ladi. Taklif chizig'i $S2S2$ holatida bo'ladi. Bozorda yangi muvozanat o'rnatiladi, ya'ni sotuv hajmi $Q1$ dan $Q2$ ga qisqaradi, xaridorlar uchun narx R - dan $R+$ ga yuqorilashadi. Soliqning umumiy miqdori, davlat budjetiga tushadigan qismi, $R+AVR$ - to'g'ri to'rtburchagi yuzasiga teng bo'ladi. Soliq ushbu variantimiz shartiga ko'ra sotuvchilar tomonidan to'lanadi, lekin soliq yuki sotuvchi va xaridorlar o'rtasida taqsimlanadi. Sotuvchilar to'lovi $R1SVR$ - to'g'ri to'rtburchagi yuzasiga, xaridorlar to'lovi esa – $R+ASR1$ ga teng bo'ladi.




11.1. - rasm. Aksiz solig'i sotuvchi tomonidan to'langanda bozor muvozanantiga ta'siri.

Ikkinchi variant. Aksiz solig'i davlat budjetiga xaridorlar tomonidan to'lanadi. Xaridorlar tovarning avvalgi hajmda sotib olishga tayyor, agar uning narxi soliقدan tashkari T so'mga past bo'lsa. Bunday holatda xaridorlar soliq bilan birga hisoblanganda avvalgi narxga teng qiymatda to'lashadi. Natijada talab chizig'i T ga pastga ko'chadi (11.2.-rasm). Yangi sotuv hajmi Q_2 , narx R^+ va R^- o'xshash variant bo'ladi, sotuvchilar to'lagandagi kabi. Bundan kelib chiqadiki, bevosita soliq to'lovchi - sotuvchimi yoki xaridormi ahamiyat kasb etmaydi. 11.2. – rasmdan, soliq yuki sotuvchi va xaridor o'rtasida taqsimlanish ulushi avvalgidan, ya'ni sotuvchilar tomonidan to'langandagi kabi o'zgarmaydi.



11.2. - rasm. Aksiz solig'i xaridorlar tomonidan to'langanda bozor muvozanantiga ta'siri .

Soliq joriy etilishidan avval, p tovar narxi, X_0 iste'mol miqdori. Ushbu narxda iste'molchi ortiqcha daromadi, farovonligi abc uchburchagida o'z ifodasini topgan. Tovardan maxsus soliq t summa olinganda, narx $q = p + t$ gacha ko'tariladi, iste'mol esa X_1 gacha pasayadi.



Narxning o'sishi bilan iste'molning ushbu pasayishi, iste'molchi daromadi va farovonligining aef gacha pasayishiga olib keladi. Soliq daromadi tX1 ga, ya'ni cdef yuzaga ortadi. Iste'molchining dastlabki daromadiga nisbatan, soliqqa jalb qilinmagan daromad – DWL bu sof yo'qotish, bde uchburchagi orqali ifodalangan.

125

$$DWL = \frac{1}{2} \left| \varepsilon^d \right| \frac{X^0}{p} t^2,$$

Ushbu holat p dan $q = p + t$ gacha narxlarining to'liq o'zgarishida elastiklik doimiy ekanligini ifodalaydi.

Sof yo'qotish formulasi ikkita muhim kuzatuvni amalga oshiradi. Birinchidan, sof zarar soliq stavkasining kvadratiga mutanosibdir. Shunday qilib, soliq stavkasi oshishi bilan sof zarar tez o'sib boradi. Ikkinchidan, sof yo'qotish talabning egiluvchanligi bilan mutanosibdir. Belgilangan soliq o'zgarishi holatida sof zarar katta bo'ladi, hattoki tovarga bo'lgan talab elastikligidan ham yuqori.

Tovarlarga soliq solishning muqobil yondashuvi 11.4-rasmda keltirilgan. a nuqta - soliq solinmagan holatdagi boshlang'ich pozitsiya. Endi bir martalik soliq va 1-tovarga solinadigan tovar solig'i o'rtasidagi farqni ko'rib chiqing, bu yerda ikkita soliq vositasi bir xil daromad darajasini oshiradi. Rasmda bir martalik soliq a nuqtadan b nuqtaga o'tish bilan ifodalanadi.




Figure 15.2
Income and substitution effects

11.4-rasm. Daromad va almashtirish samarasi.

Budjet cheklovi ichki tomonga siljiydi, lekin uning gradyenti o'zgarmaydi.

Iqtisodiy subyektlarning alohida va jamoaviy ehtiyojlari ishlab chiqarish imkoniyatlaridan yuqori turadi. Chunki ehtiyoj darasiga nisbatan resurslar miqdori cheklangan va resurslardan foydalanishning turli variantlari nazarda tutiladi, bu esa maqbul tanlov muammosini yuzaga keltiradi. Tanlov jarayonida agentlar, iste'molchilar va jamiyat nafaqat xarajat va naflilikni taqqoslashga duch keladi balki, boshqa imkoniyatlardan voz kechish bilan bog'liq bo'lgan muqobil xarajatlar ham mavjud.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx signallaridan foydalangan holda markazlashmagan tanlov amalga oshiriladi. Raqobatli iqtisodiyotda narxning ortishi tovarga bo'lgan talabning ortganini namoyon etadi, bu o'z navbatida, firmalar foydani ko'paytirish imkoniyatiga ega bo'lganligi bilan jozibadordir. Talab yuqori bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish uchun firmalar boshqa soha va tarmoqlardan ishchi kuchi va kapital resurslarning oqib o'tishiga imkon beradi. Bundan tashqari, firmalar bozorga kirishlari jarayonida texnologiyalar darajasini takomillashtirishadi.

Bozor iqtisodiyoti ushbu muammoni hal etishdagi xatti-harakati eng mukammal bo'lmisligi mumkin, bular quyidagilar bilan izohlanadi:

1. Monopoliya va har qanday ko'rinishdagi nomukammal raqobat firmalarda bozor hukmronligining paydo bo'lishi, namoyon etishiga sabab bo'ladi. Ular tovar sifatini mos holda yaxshilamasdan, narxni oshirish imkoniga ega.

2. Ijtimoiy ne'matlar – alohidalik xususiyatiga ega bo'lmagan resurslar, ya'ni ulardan foydalanish to'lovlar to'lash kerakligi bilan cheklovlarni yuzaga keltiradi. Shu sabab yuqori talab bo'lishiga qaramay firmalarni ularni yetarli miqdorda ta'minlay olmaydi.

3. Eksternallar – ishlab chiqarish va iste'moldan olinadigan naflilik va xarajatlar, uchinchi shaxslarga nasib etishi. Masalan, patent tizimning mavjud emasligi kashfiyot, yangi texnologiyalardan olinadigan naflilikka boshqalar ega bo'lishi mumkin, bu esa talab bo'lishiga qaramasdan firma foydasini kamaytiradi va innovatsiyaga bo'lgan intilishni barbod qiladi.

Bunday holatlar davlat tomonidan korrektirovka qilinishini, ya'ni tartibga solinishini talab qiladi.

Hozirgi zamon rifvojlangan bozor iqtisodiyotida, davlat iqtisodiy siyosati hisobiga alohida iqtisodiyot sektorlarini rag'batlantirishga harakat qiladi. Misol tariqasida quyidagilarni kertirishimiz mumkin:

1. Ijtimoiy ne'matlar taklifi.
2. Alohida tarmoqlarga soliq imtiyozlarini berish.
3. Antimonopol tartibga solish.
4. Eksternallarni bartaraf etish (masalan, Pigou solig'i).

Iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatning qonunchilik negizini shakllantirish va takomillashtirish;
- valyuta bilan tartibga solish;
- soliq bilan tartibga solish;
- tarif va notarif tartibga solish;
- O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlariga rioya etilishi uchun himoya, kompensatsiya va dempingga qarshi choralarni qo'llash;
- tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilash, shu jumladan, miqdoriy cheklovlar o'rnatish hamda tovarlarning ayrim turlari eksport va import qilinishi ustidan davlat monopoliyasini o'rnatish;
- eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda talab qilinadigan hujjatlarning to'liq ro'yxatini belgilash;
- olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlarni sertifikatlash;
- texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya, ekologiya standartlari, talablari, qoidalari va normalarini belgilash;
- tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari uchun preferensiya va imtiyozlar berish.

Davlat jamiyat a'zolari o'rtasida daromadlarni qayta taqsimlashda soliq imtiyozlarini belgilash orqali soliq tizimidan ham keng foydalanadi.

Bozor mexanizmining resurslarni qayta taqsimlashdagi layoqatsizligi ikki holatda ko'rinadi, ya'ni raqobatli bozor tizimi: 1) ma'lum tovarlar va xizmatlarning kam miqdorini ishlab chiqaradi; 2) ishlab chiqarishi o'zini oqlagan ayrim tovarlar va xizmatlarga resurslarning har qanday turini ajratish holatida bo'lmaydi.

Resurslarning qayta taqsimlanishi tovarlarni ishlab chiqarish yoki iste'mol qilish bilan bog'liq foyda yoki zarar uchunchi tomonga, ya'ni bevosita xaridor yoki sotuvchi hisoblanmaganlar tomonga «siljigan» chog'da vujudga keladi. Bu qo'shimcha samara deb ataladi, chunki u bozor qatnashchisi hisoblanmaganlar hissasiga to'g'ri keluvchi foyda yoki zararni ifodalaydi. Bunga atrof-muhitning ifloslanishini misol qilib keltirish mumkin. Kimyo korxonasi o'zining sanoat chiqindilarini ko'l yoki daryoga oqizsa, bu ushbu suv havzasida cho'miluvchilar, baliqchilar va atrofdagi aholiga zarar keltiradi. Ishlab chiqaruvchi esa

atrof-muhitni muhofazalovchi inshoot va qurilmalar o'rnatmaslik hisobiga o'z ishlab chiqarish xarajatlarining ancha past darajasini ta'minlaydi. Resurslarning nomutanosib taqsimlanishi natijasida vujudga keladigan bunday holatlarni tartibga solish uchun davlat qonunchilik tadbirlarini qo'llaydi yoki maxsus soliq va jarimalardan foydalanadi. Masalan, atrof-muhit va suv havzalarining ifloslanishini taqiqlovchi yoki cheklovchi qonunlar ishlab chiqaruvchilarni o'zlarining sanoat chiqindilarini ishlab chiqarish jarayonida ifloslangan suvni tozalovchi qurilmalar sotib olish va o'rnatish bilan yo'qotishga majbur qiladi. Shuningdek, davlat maxsus soliqlarni kiritish orqali atrof-muhitning ifloslanishidan boshqalarga kelishi mumkin bo'lgan zararni korxonalarning o'ziga yuklashga harakat qiladi.

Davlat bir qator yo'llar bilan resurslarning nomutanosib taqsimlanishi keltirib chiqaradigan oqibatlarni yumshatishga ham harakat qiladi. Birinchidan, iste'molchilarning muayyan tovar va xizmatlarni xarid qilish qobiliyatini oshirish yo'li bilan ularning talabi kengaytiriladi. Masalan, respublikamizda bozor munosabatlariga o'tishning dastlabki davrida oziq-ovqat mahsulotlariga talon tizimi joriy etilishi past daromadli oilalarning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini oshirdi va shu orqali resurslarning nomutanosib taqsimlanishini bartaraf qildi. Ikkinchidan, davlat taklifni oshirish maqsadida ishlab chiqarishni subsidiyalashi mumkin. Subsidiyalar ishlab chiqaruvchilarning zararlarini qisqartiradi va mahsulotlar ishlab chiqarishda resurslarning yetishmasligi muammosini bartaraf qiladi. Uchinchidan, davlat ayrim tovarlar va ijtimoiy ne'matlarning ishlab chiqaruvchisi sifatida chiqadi. Bunday tarmoqlar davlat mulkiga asoslanadi va davlat tomonidan bevosita boshqariladi yoki ularni moliyalashtirishni davlat o'z zimmasiga oladi. Fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, milliy mudofaa, favqulodda ro'y beradigan tabiiy hodisalarga qarshi kurash, ichki tartibni saqlash shular jumlasidandir.

Davlat byudjet mablag'lari hisobiga resurslarni xususiy sohada qo'llanilishdan bo'shatadi hamda ularni ijtimoiy ne'mat va xizmatlar ishlab chiqarishga yo'naltirishi mumkin. Shunday qilib, davlat mamlakat milliy mahsuloti tarkibida muhim o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadida resurslarni qayta taqsimlaydi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya'ni iqtisodiyotning barcha sohalarini resurslar bilan ta'minlash, to'la bandlik va narxlarning barqaror darajasiga erishishda yordam berish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish davlatning eng muhim vazifasi hisoblanadi.

Tabiiy resurslardan foydalanish shartlari

Tabiiy resurslardan foydalanishga tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etish, tabiat majmualari yaxlitligini saqlab qolish, jonli tabiat obyektlarining yashash va o'sish muhiti buzilishiga yo'l qo'ymaslik, boshqa tabiiy resurslardan foydalanuvchilarning huquqlarini buzmaslik sharti bilan yo'l qo'yiladi.

Tuproqdan foydalanish shartlari.

Tuproq deyilganida yer qobig'ining tiriklik uchun foydalaniladigan va o'simliklar bilan birga amal qiladigan yuzadagi unumdor qatlami tushuniladi.

Tuproqdan uning unumdorligini pasaytirmagan holda tabiiy va madaniy o'simliklardan hosil olish uchun foydalaniladi.

Tuproqning inshoot ostida qoladigan gumusli qatlami boshqa joylarda hosildorlikni oshirish uchun olib ketilishi kerak.

Yer osti boyliklari va foydali qazilmalardan foydalanish shartlari

Yer osti boyliklari va foydali qazilmalardan foydalanishga quyidagi shartlar asosida yo'l qo'yiladi:

- qazib olishda yer osti boyliklari va foydali qazilmalar hamda ularga qo'shib chiqadigan boshqa tabiiy resurslardan kompleks va tejamli foydalanish ta'minlansa, shuningdek, atrof-muhit va yer qa'ri ifloslanishining oldi olinsa;
foydali qazilmalarni qazib olish chog'ida holati o'zgargan yerlar rekultivatsiya qilinsa;
- qayta tiklanadigan foydali qazilmalardan tabiiy qayta tiklanishiga erishiladigan darajadagina foydalanilsa;
yer osti boyliklaridan va keng tarqalgan foydali qazilmalardan foydalanish sohasida belgilangan qoidalarga rioya etilsa;
- foydali qazilma konlarini ishga solish loyihalari bo'yicha, shuningdek, mineral xomashyoni qazib olish va qayta ishlash korxonalarini qurish, rekonstruksiya qilish hamda kengaytirish loyihalari yuzasidan davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasi mavjud bo'lsa;

- yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini beruvchi litsenziya mavjud bo'lsa yoki yer qa'ri uchastkalarini foydalanishga berish nazarda tutilgan mahsulot taqsimoti to'g'risidagi bitim mavjud bo'lsa;
- foydali qazilmalarning yuzasini olishda hosil bo'ladigan va sig'diradigan jinslar ag'darmalari, saqlagichlar, terrikonlar ularning atrof-muhitga eng kam darajada zararli ta'sir ko'rsatishi ta'minlangan holda joylashtirilsa.

Suvlar va suv havzalaridan foydalanish shartlari

O'zbekiston Respublikasi hududidagi yer usti, yer osti va dengiz suvlaridan zarur miqdordagi suvning tabiiy aylanishini saqlash, uning normativda ko'rsatilgan darajada tozaligini ta'minlash, suv o'simliklari va hayvonlarini asrash, suv havzalarining ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, ularda ekologiya muvozanatini saqlash va suv havzasiga landshaft elementi sifatida ziyon yetkazmaslik sharti bilan yo'l qo'yiladi.

Mahalliy hokimiyat idoralari, o'rmon va suv xo'jaligi idoralari daryo irmoqlari hosil bo'ladigan joylarda, suv havzalari sohili mintaqalarida daraxtzorlarni tiklashlari va dov-daraxtni ko'paytirishlari hamda ularning saqlanishini ta'minlashlari shart.

Atmosfera havosidan foydalanish shartlari.

Atmosfera havosi deyilganida O'zbekiston Respublikasi hududi ustidagi havo bo'shlig'i tushuniladi. Havodan foydalanishga muayyan hudud havosining sifatini o'zgartirmaslik, uni belgilangan normativlardan ortiq darajada ifloslantirmaslik yoki siyraklashtirmaslik sharti bilan yo'l qo'yiladi.

Xalqaro bitimga muvofiq vazirliklar va idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, xususiylar shaxslar ozon qatlamiga zararli ta'sir etuvchi kimyoviy moddalar ishlab chiqarish hamda bunday moddalardan foydalanishni qisqartirishlari va kelgusida batamom to'xtatishlari shart.

Jonli tabiat obyektlaridan foydalanish shartlari

Jonli tabiat deyilganida tabiiy o'simliklar, shu jumladan, o'rmon, tabiatda erkin yashaydigan hayvonlar va boshqa jonli organizmlar tushuniladi.

Jonli tabiat obyektlaridan:

- ularning qayta tiklanish qobiliyatini saqlash;

- ularning xilma-xil turini va toʻdalarining barqarorligini saqlash;
- atrof tabiiy muhitning biologik jihatdan ifloslanishiga yoʻl qoʻymaslik sharti bilan foydalaniladi.

Chiqindi bilan bogʻliq ishlarni amalga oshirish shartlari

Chiqindi bilan bogʻliq ishlarni amalga oshirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda olib boriladi.

Chiqindi bilan bogʻliq ishlarni amalga oshirishning atrof - muhitga xavfsizligi uchun chiqindilarning mulkdorlari javob beradilar. Chiqindi bilan bogʻliq ishlarni amalga oshirish obyektlarini tegishli hududga joylashtirish masalalarini mahalliy davlat hokimiyati organlari hal qiladi.

Tabiiy resurslardan foydalanish huquqidan mahrum etish

Tabiiy resurslardan foydalanish talablarini muttasil buzadigan foydalanuvchi tabiiy resurslardan foydalanish huquqidan mahrum etilishi mumkin.

12.3. Cheklavlarni aniqlash

Oʻzbekiston Respublikasida qonun hujjatlari bilan tovarlar eksporti, importini taqiqlash hamda cheklash belgilanishi mumkin va ular quyidagi maqsadlarni koʻzlaydi:

- Oʻzbekiston Respublikasi xalqining madaniy merosini saqlash; madaniy boyliklarni noqonuniy olib chiqish, olib kirish va ularga boʻlgan mulk huquqlarini boshqaga oʻtkazishdan himoya qilish;
- Oʻzbekiston Respublikasining toʻlov balansini saqlab turish;
- Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarish; tiklab boʻlmaydigan tabiiy resurslar tugatilishining oldini olish;
- Oʻzbekiston Respublikasining boshqa manfaatlarini himoya qilish.

Tovarlarning ayrim turlarini eksport va import qilish faqat ularni olib kirish yoki olib chiqish uchun tegishli ruxsatnoma (litsenziya) olinganidan keyin amalga oshiriladi. Tovarlarning ayrim turlarining eksporti va importini amalga oshirish uchun litsenziyalar Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organlar tomonidan beriladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ayrim tovarlar turlarini eksport va import qilishga nisbatan miqdoriy cheklavlar (kvotalar) belgilashi mumkin.

Kvotalarni taqsimlash, qoida tariqasida, tanlov yoki kim oshdi savdosi asosida amalga oshiriladi.

Eksport va import qilinishi, litsenziyalanishi hamda kvotalanishi zarur bo'lgan tovarlar ayrim turlarining ro'yxati, shuningdek, litsenziyalarni berish va kvotalarni taqsimlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidan belgilanadi.

Tovar importining ko'payganligiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan muhofaza choralari qo'llanilishi mumkin.

Muhofaza choralarining qo'llanilish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Demping narxlaridagi tovar importiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan antidemping bojlari qo'llanilishi mumkin.

Antidemping bojlarining qo'llanilish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Subsidiya bilan ta'minlangan tovar importiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan kompensatsiya bojlari qo'llanilishi mumkin.

Kompensatsiya bojlarining qo'llanilish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan tovarlar O'zbekiston Respublikasida belgilangan texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya va ekologiya standartlari, talablari, qoidalari va normalariga muvofiq bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi hududiga:

- ko'rsatilgan standartlar, talablar, qoidalar va normalarga mos kelmaydigan tovarlarni;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda sertifikatga, markirovkaga yoki muvofiqlik belgisiga ega bo'lmagan tovarlarni olib kirish taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining hududida erkin iqtisodiy zonalar uchun tashqi iqtisodiy faoliyatning alohida tartibi (bojxona, valyuta, soliq va boshqalar) o'rnatilishi mumkin bo'lib, u erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solib turiladi.

O‘zbekiston Respublikasi bojxona bojlari, soliqlar va ularga teng kuchga ega bo‘lgan yig‘imlarni bekor qilishga, tovarlarni eksport va import qilishning miqdoriy cheklovlariga, tovarlarning erkin harakat qilishi yo‘lidagi boshqa to‘siqlarni bekor qilishga qaratilgan erkin savdo to‘g‘risida xorijiy davlatlar bilan xalqaro shartnomalar tuzishi mumkin.

Asosiy tayanch tushunchalar

Moliya – pul mablag‘larining harakati, ya’ni ularning shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishi bilan bog‘liq ravishda vujudga keladigan munosabatlar.

Moliyaviy munosabatlar – davlat, mintaqalar, tarmoqlar, korxona va tashkilotlar hamda alohida fuqarolar o‘rtasida pul mablag‘lari fondlarining harakati bilan bog‘liq holda vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar majmui.

Soliqlar – jamiyatda vujudga keltirilgan sof daromadning bir qismini budjetga jalb qilish shakli.

Soliq stavkasi – soliq summasining soliq olinadigan summaga nisbatining foizdagi ifodasi.

Takrorlash uchun savollar

1. Jamiyat va davlat moliya tizimlari asosiy bo‘g‘inlarining tavsifini bering. Moliya tizimida davlat budjetining o‘rni qanday?
2. Soliqlarning iqtisodiy mohiyatini tushuntiring va uning turlarini, asosiy vazifalarini ko‘rsating.
3. Soliq yuki nima? Uning iqtisodiyotga ta’sirini ko‘rsatib bering.
4. Laffer egri chizig‘ining mazmuni nimadan iborat?
5. Keyingi yillarda O‘zbekistonda budjet va soliq tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni gapirib bering.

13-MAVZU: SOLIQ TO‘LASHDAN BO‘YIN TOVLASH

1. Daromadni soliqdan ozod qilish.
2. Soliqqa tortiladigan iqtisodiy faoliyatni qasddan deklaratsiya qilmaslik.
3. Iqtisodiyotning raqamlashuvining soliq tushumlariga ta’siri.

13.1. Daromadni soliqdan ozod qilish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyayev jismoniy shaxslarni soliq solishdan ozod qilish o‘zini o‘zi band qilgan 60 dan ziyod kasb egalari daromad solig‘idan ozod qilinishi haqida ma’lumot berildi.

Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligidagi joriy yilgi videoselektor yig‘ilishida o‘zini o‘zi band qilgan aholi daromad solig‘idan ozod qilinishi aytiladi.

Pandemiya tufayli kambag‘al aholi va ishsizlar soni oshishi, oilalar daromadi kamayishi bois qisqa fursatda yangi ish o‘rinlari yaratish uchun kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni faol qo‘llab-quvvatlash zarurligi aytilgan.

Yig‘ilishda tadbirkorlar huquqlari kafolatlari va mulk daxlsizligini ta’minlash masalasiga jiddiy e’tibor qaratildi.

O‘zini-o‘zi band qilayotgan, qo‘lida kasb-hunari bor odamlarga munosib sharoit yaratish maqsadida yangi tizim joriy etilishi belgilandi. Ya’ni sartarosh, etikdo‘z, novvoy, temirchi, duradgor, tikuvchi, haydovchi, tarjimon, dizayner, kompyuter dasturchisi kabi o‘zini-o‘zi band qilgan 60 dan ziyod kasb egalari daromad solig‘idan ozod qilinadi. Mazkur imtiyozdan foydalanish uchun telefon orqali soliq idoralarini xabardor qilish kifoya. Ilg‘or xorijiy tajriba asosida bunday fuqarolarni ro‘yxatga olish va hisobini yuritish bo‘yicha mobil ilova ishlab chiqiladi.

Soliq kodeksining 54-bobi «Soliq imtiyozlari» deb nomlanib unda olingan daromaddan soliq to‘lashdan to‘liq yoki qisman ozod bo‘lish huquqiga ega jismoniy shaxslar guruhlarini belgilangan.

13.1-jadval.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lashdan ozod qilish (Soliq kodeksining 378-379-moddalari)	
To'lig'icha	To'lig'icha
xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa – O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha.	vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari ko'magida amalga oshirilayotgan bo'lsa; xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti va boshqalar.

13.2. Soliqqa tortiladigan iqtisodiy faoliyatni qasddan deklaratsiya qilmaslik

Deklaratsiyalash jismoniy shaxs o'tgan yilda olgan barcha daromadlarini, shuningdek, ulardan to'langan soliqlarni qayd etishni nazarda tutadi. Deklaratsiyadagi ma'lumotlar to'lov manbai buxgalteriyasi tomonidan berilgan oylar bo'yicha hisoblangan daromadlar Rasshifrovkasi bilan birga To'langan daromadlar va ushlab qolingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summalari to'g'risidagi ma'lumotnoma asosida aks ettiriladi.

Dividendlar tarzidagi daromadlarni deklaratsiyada aks ettirish.

Dividendlar mulkiy daromadga kiradi va jismoniy shaxsning jami daromadiga kiritiladi. Dividendlardan soliqni to'lov manbai 10%lik stavkada ushlab qoladi.

Jismoniy shaxslarning dividendlar tarzida olingan va dividend to'lagan yuridik shaxsning ustav fondiga yo'naltirilgan daromadlari soliq solishdan ozod qilingan (Soliq kodeksining 179-moddasi 19-bandi). Ushbu imtiyoz o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi ustav fondini (kapitalini) ko'paytirishga yo'naltirilganda qo'shimcha aksiyalarning qiymati yoki aksiyalarning nominal qiymatini ko'paytirish

tariqasida olingan daromadlarga ham tatbiq etiladi. Imtiyoz qo'llanganda soliq solinmaydigan daromad summasi deklaratsiyaning II bo'limi 12-bandi «d» kichik bandida ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Deklaratsiyada dividendlar tarzidagi daromadlar va ulardan ushlab qolingani soliq to'lov manbaidan qat'iy nazar deklaratsiyaning I bo'limi 6-bandida qayd etilgan bo'lishi lozim. Shuningdek, imtiyozlar – soliq solinadigan daromad bo'lmaganda ham ular jami daromadning umumiy summasi tarkibida III bo'limning jadvalida ko'rsatiladi. Dividendlardan ushlab qolingani soliq summasi hisoblangan va to'langan soliqning umumiy summasida ko'rsatiladi. Imtiyoz qo'llanishi sababli dividendlardan soliq ushlanmagan hollarda III bo'limning jadvalida ularning summasi faqat jami daromad va undan chegirmalar tarkibida ko'rsatiladi.

Yurtimizda aholining real daromadlarini ko'paytirish va uni erkin tasarruf etish uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Jumladan, amaldagi mehnat qonunchiligiga ko'ra, jismoniy shaxslar asosiy ish joyidan tashqari, boshqa korxona yoki tashkilotda o'rindoshlik asosida, shuningdek, o'ziga tegishli mol-mulkni ijaraga berish, qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatlar bilan shug'ullanib, cheklanmagan miqdorda daromad olishlari mumkin.

Bu daromad esa deklaratsiya asosida soliqqa tortilib, u O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi hamda boshqa qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlar asosida tartibga solinadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining Soliq kodeksining 189-moddasida qayd etilgan daromadlariga deklaratsiya asosida soliq solinadi. Mulkiy, fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar, asosiy bo'lmagan ish joyidan moddiy naf tarzida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi, ya'ni soliq agentlari bo'lmagan manbalardan ko'rilgan daromadlar shular sirasiga kiradi.

Jismoniy shaxslar ushbu daromadlari bo'yicha jami yillik deklaratsiyani doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1- apreldan kechiktirmay taqdim etishi lozim. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, agar jismoniy shaxsning asosiy bo'lmagan ish joyidan olgan daromadidan, uning arizasiga ko'ra, eng

yuqori stavkada soliq ushlab qolingani bo'lsa, deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Mol-mulkini ijaraga berish orqali daromad olayotgan jismoniy shaxslar esa bunday daromad paydo bo'lgan kundan boshlab birinchi oydan so'ng besh kun ichida dastlabki deklaratsiyani topshirishi kerak. Agar mol-mulkni ijaraga berishdan daromad olish tugasa, bu haqda doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organini yozma ravishda xabardor qilishi shart.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 574, 603-moddalari hamda Uy-joy kodeksining 86-moddasida fuqarolar o'rtasida tuzilgan ko'chmas mulkni — uy-joy va noturarjoyi ijaraga berish shartnomasi notarial tasdiqlanishi shartligi belgilab qo'yilgan. Ijara shartnomasining bo'lmasligi yoxud uning majburiy notarial tasdiqlanishiga rioya qilmaslik O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 1591-moddasiga muvofiq, eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solinishiga sabab bo'ladi.

Jismoniy shaxslar daromadlari to'g'risidagi deklaratsiya asosida hisoblab chiqarilgan daromad solig'ini o'tgan soliq davridan keyingi yilning 1-iyunidan kechiktirmay to'lashlari kerak.

Daromadlari to'g'risidagi deklaratsiyani o'z vaqtida taqdim etmagan yoki uni atayin noto'g'ri to'ldirgan fuqarolarga nisbatan esa Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga binoan, eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 181-moddasiga ko'ra, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining belgilangan eng kam stavkasi bo'yicha soliq solinadi. Joriy yilda bu stavka 7,5 foiz etib belgilangan.

Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikda jismoniy shaxslar tomonidan turarjoylarni ketma-ket keladigan o'n ikki oylik davr ichida bir martadan ortiq realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlariga ham soliq solinishi qayd etilgan. O'n ikki oylik davr esa turarjoyning birinchi marta realizatsiya qilingan sanasidan boshlab hisoblanadi.

13.3. Iqtisodiyotning raqamlashuvining soliq tushumlariga ta'siri

Jahon savdo tashkiloti doirasida “elektron savdo” tushunchasi telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalangan holda ishlab chiqarish, marketing, logistika va tovar (xizmat)larni to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish jarayonlari sifatida talqin qilinadi . Umuman olganda, elektron savdoni amalga oshirish orqali biznesni masofadan boshqarish, tovar va xizmatlarni onlayn xarid qilish va ularni istalgan manzilga yetkazib berish, turli virtual to‘lov tizimlaridan foydalanish mumkin bo‘ladi.

Elektron savdoning mohiyatini yanada kengroq anglash uchun uning quyidagi shakllarini alohida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq:

- C2C (Consumer – to – Consumer): elektron savdo maydonchalaridan foydalangan holda iste’molchilarning iste’molchilar bilan o‘zaro munosabatlari. Bunda internet saytlari sotib oluvchi va sotuvchi o‘rtasida elektron vositachi vazifasini bajaradi. Elektron savdoning ushbu shaklida asosan, elektronika va maishiy texnika vositalari, kiyimlar, oyoq kiyimlar va bolalar tovarlari sotilishi amaliyotda ko‘p kuzatiladi.

- B2C (Business – to – Consumer): iste’molchilar va biznes o‘rtasidagi munosabatlar. Bunga internet do‘konlarini yaqqol misol tariqasida keltirish mumkin.


- B2B (Business – to – Business): biznes subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro savdo va iqtisodiy munosabatlar tizimini namoyon qiladi.

- B2G (Business – to – Government): biznesning davlat bilan o‘zaro munosabatlari tizimidan iborat. Davlat xaridlari elektron portallari elektron savdoning ushbu shakli amal qilishining namunasidir.

Elektron savdolar ayrim xorijiy adabiyot va huquqiy hujjatlarda elektron tender maydonchasi, internet savdo maydonchasi deb ham ataladi. Elektron savdo tadbirkorlik faoliyatini elektron tarzda amalga oshirishning virtual axborot platformalarini o‘zida namoyon qiladi. Ma’lumki, axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining

eng istiqbolli yutuqlaridan biri bu internet global tarmog‘ining yaratilishi bo‘ldi. Shuningdek, elektron tizimlar va tarmoqli texnologiyalar kengayishi natijasida iqtisodiy faoliyatning yangi modeli elektronlashgan faoliyat va uning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan elektron tijorat mexanizmlari amaliyotda faol qo‘llanila boshlandi. Buning natijasida tovar (xizmat)larni ishlab chiqarish, sotish va taqsimlash jarayonlarini axborot texnologiyalarsiz tasavvur qilish ham

mumkin bo'lmagan taraqqiyotning yangi davrida hayot kechirmoqdamiz.




13.1-rasm. Elektron savdo shakllari.

Kompyuter tarmoqlari orqali tovarlar oldi-sotdisini amalga oshirish va pul mablag'larini o'tkazish operatsiyalari elektron savdoning dastlabki ko'rinishlari bo'lsa, bugungi kunda elektron savdo ko'lami va geografiyasi jihatdan bir necha marotaba kengaydi. Bugungi kunga kelib elektron savdo nafaqat tovar va xizmatlar oldi-sotdisi bilan bog'liq tijorat operatsiyalarini amalga oshirish, balki xarajatlarni qisqartirish va daromadlarni oshirish, marketing tadqiqotlarini olib borish, tovar va xizmatlarga talabni shakllantirish, mijozlarga qulay va tezkor xizmat ko'rsatish, raqobatbardoshlikni ta'minlash, hamkorlar bilan ishlash munosabatlarni takomillashtirish singari bir qator istiqbolli yo'nalishlar asosini belgilab bermoqda. Hech kimga sir emaski, istalgan tadbirkorlik subyekting asosiy maqsadi iste'molchilar talabini imkon qadar to'liqroq qondirish va shu asosda maksimal daromad olishga qaratilgan bo'ladi. Elektron savdolarida ishtirok etuvchi iste'molchilar ham an'anaviy savdolaridagi iste'molchilardan farqli ravishda "iste'molchi tabiati" nuqtai nazaridan ayrim xususiyatlarga ega bo'lishi mumkinki, elektron savdoni tashkil etayotgan tadbirkorlik subyektlari savdolarida ana shu iste'molchi

tabiati omillarini ham inobatga olishi maqsadga muvofiq. Bunda elektron savdolar an'anaviy savdolariga nisbatan o'zining qator xususiyatlariga ega, jumladan:

- bozordagi umumiy vaziyat va talabga tezkorlik bilan moslashish;
- muomala xarajatlari, shu jumladan, saqlash, tashish, sotish va personal xarajatlarini iqtisod qilish;
- bozor (iste'molchi)larning geografik joylashuvi bilan bog'liq noqulayliklarni istisno etish.

Shu o'rinda elektron savdoning instrumentlariga ham alohida to'xtalib o'tish joizdir. Amaliyotda elektron savdoning eng ko'p uchraydigan instrumentlari (turlari) quyidagilardan iborat (13.2-rasm).



13.2-rasm. Elektron savdo instrumentlari (turlari).

Elektron do'kon – bu ixtisoslashtirilgan veb-sayt bo'lib, u orqali tovar va xizmatlarni sotish va sotib olish amalga oshiriladi. Elektron do'konda tovarlarni tanlash, buyurtmalarni rasmiylashtirish, elektron to'lovlarni amalga oshirish va yetkazib berish xizmatlaridan foydalanish mumkin.

Elektron auksion – an'anaviy auksiondagi lotlar bo'yicha savdolar jarayonini o'zida aks ettiradigan veb-sayt hisoblanadi. Elektron auksionlar ikki xil ko'rinishda amalga oshiriladi: to'g'ridan-to'g'ri va teskari auksionlar. To'g'ridan – to'g'ri auksionlarda eng

yuqori narxni belgilagan holda iste'molchilar raqobatlashsa, teskari auksionda tovarga eng past narxni belgilagan holda sotuvchilar bellashadi. Savdolar onlayn rejimida amalga oshadi. Lekin, elektron do'konlari kabi elektron to'lovlar qilish va tovarlarni yetkazib berish xizmatlaridan foydalanish unchalik muhim ahamiyatga ega emas.

Elektron birja – elektron birja savdosi operatsiyalarini o'tkazish tizimidir. Bu ham an'anaviy birjadagi lotlar bo'yicha savdolar jarayonini o'zida aks ettiradigan veb-sayt hisoblanadi. Elektron birjada tovarlar assortimenti cheklangan bo'lib, ro'yxatdan o'tgan profillar kesimida savdolar amalga oshiriladi. Real vaqt rejimida bitimlar tuzish zarurligini inobatga olib, birjada qaror qabul qilish va operatsiyalar tezkorligi muhim ahamiyatga ega. Elektron to'lovlar va yetkazib berish xizmatlari elektron birjalar faoliyati doirasiga kirmaydi.

Elektron savdo maydonchasi – birjadan tashqari elektron savdo operatsiyalarini amalga oshirish tizimi hisoblanadi. Elektron savdo maydonchasida sotib oluvchilar va sotuvchilar o'rtasida bitimlar tuziladi. Savdo maydonchalari, qoida tariqasida, muayyan tarmoq kesimida faoliyat yuritadi. Elektron birjadan farqli ravishda tovarlar assortimenti cheklanmagan.

Elektron savdo markazi – bu bir nechta elektron do'kon va kataloglarni o'zida birlashtiradigan veb-saytdir. Bunda umumiy platforma orqali elektron do'konlarda savdo qilinadi va himoyalangan to'lov operatsiyalari amalga oshiriladi. Elektron savdo markazi umumiy savdo provayderi (tashkilotchisi) vazifasini bajaradi. Uning afzalligi shundaki, iste'molchilar yagona platforma orqali keng assortimentdagi bozorlarga kirib boradi. Bundan tashqari, elektron savdo markazi brendi ostida yangi elektron do'konlar mijozlarni jalb qilish imkoniyati oshadi.

Elektron ma'lumotnoma (katalog) – tovar yetkazib beruvchilar o'rtasida tenderlar o'tkazish uchun ixtisoslashtirilgan veb-sayt. Bu katalog ko'rinishida bo'lib, mijoz yetkazib beruvchini tanlagan holda u muzokaralar o'tkazadi. Yetkazib beruvchilarni tanlab olish tovarning xususiyati, narxi, yetkazib berish shartlari, nomenklaturasi va boshqa mezonlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Moliyaviy munosabatlar – davlat, mintaqalar, tarmoqlar, korxona va tashkilotlar hamda alohida fuqarolar o'rtasida pul mablag'lari fondlarining harakati bilan bog'liq holda vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar majmui.

Moliya tizimi – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

Davlat budjeti – davlat daromadlari va xarajatlari hamda ularni moliyaviy ta'minlash manbalarining tartiblashtirilgan rejasi.

Budjet taqchilligi – davlat budjeti xarajatlarining daromadlardan ortiqchaligi.

Davlat ichki qarzi – davlatning mamlakat ichida qimmatli qog'ozlarini chiqarish, turli nobudjet fondlaridan olgan qarzi.

Davlat tashqi qarzi – xorijiy davlatlardan, ulardagi jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan olingan qarz.

Davlat krediti – davlat qarz oluvchi yoki kreditor sifatida maydonga tushadigan barcha moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi.

Takrorlash uchun savollar

1. Moliya tizimida davlat budjetining o'rni qanday?
2. Davlat budjeti milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashda qanday rol o'ynaydi? Bunda qanday usullardan foydalaniladi?
3. Budjet taqchilligi nima? Ijobiy va salbiy budjet taqchilligini tushuntiring.
4. Moliyaviy siyosat va fiskal siyosatning umumiy va farqli jihatlarini tavsiflang.
5. Davlatning ichki va tashqi qarzlari manbalarini izohlab bering.
6. Keyingi yillarda O'zbekistonda budjet va soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni gapirib bering.

14-MAVZU: VAQTINCHALIK SAMARADORLIK

1. Bozor narxlari.
2. Nomukammal raqobat turli shakllari.
3. Budjet cheklovlari.

14.1. Bozor narxlari

Vaqt iqtisodiy faoliyatning eng muhim tarkibiy qismidir. Vaqt o'tishi bilan iste'molchilarning tug'ilish va o'limi bor, shuningdek, sotib olish, amortizatsiya va oxir-oqibat eskirish. U yangi mahsulotlar va ishlab chiqarish jarayonlari qanday joriy etilayotganligi, qarz olish va jamg'arishni rag'batlantiradi. Shuningdek, vaqt hukumat oldiga, ijtimoiy ta'minotning yaxshilanishi davlat siyostiga va iqtisodiy o'sishiga ta'siri xususida yangi va muhim masalalarni ilgari suradi.

Raqobatli iqtisodiyot statistik nuqtai-nazardan iqtisodiy samaradorlik mustahkam asosini ta'minladi. Ushbu jihat samaradorlikning pasayishi tahliliga asoslangan bo'lib, unga nisbatan siyosiy tadbirlarni o'zida mujassam etgan.

Narx – bozor mexanizmining muhim tarkibiy unsurlaridan biri. U o'zining vazifalari orqali barqaror iqtisodiyotning shakllanishi hamda samarali amal qilishiga, bozor muvozanatining ta'minlanishiga, milliy daromadning iqtisodiyot turli tarmoq va sohalari, xo'jalik yurituvchi subyektlari bo'yicha taqsimlanishiga, aholining ijtimoiy jihatdan himoya qilinishiga sharoit yaratadi. Shuningdek, u ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirib, sog'lom raqobat muhitining yaratilishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu bobda narxning iqtisodiy mazmuni va vazifalari, shakllanish tamoyillari, narx darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, narx turlari batafsil bayon etiladi. Shuningdek, turli darajadagi raqobat sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari, davlatning narx siyosati va uning O'zbekistondagi o'ziga xos jihatlari ham ko'rib chiqiladi.

Tovarlar qiymati va ularning nafliligi o'zlarining namoyon bo'lishini narxda topadi. Amaliy hayotda qiymat tovar ishlab chiqaruvchilarni, naflilik esa iste'molchilarni rag'batlantiruvchi, ularni harakatga keltiruvchi kuch sifatida amal qiladi.

Tovarning bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan, lekin doimo bir-birini taqozo etadigan, birisiz ikkinchisi bo'lmaydigan ikki xususiyatga, ya'ni ma'lum bir naflilikka (iste'mol qiymatiga) va qiymatga ega ekanligi, tovar yoki xizmat shu ikki xususiyat birligidan iborat ekanligi o'quvchiga oldingi boblardan ma'lum. Oldingi o'rinlarda biz tovarning qiymati har qanday sarflarni emas, balki mavjud sharoitda shu tovarni ijtimoiy zaruriy miqdorda va sifatda ishlab chiqarish, ya'ni ijtimoiy-zaruriy naflilikni yaratish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy zaruriy sarflarni ifoda etishini aytib o'tgan edik. Narxlar mazmunini aniqlashda tovardagi mana shu ikki xil xususiyatning, ya'ni ijtimoiy qiymat va ijtimoiy naflilik birligini, bunda iste'mol qiymati (naflilik) qiymatni o'zida olib yuruvchi moddiy asos ekanligini to'g'ri hisobga olmaslik natijasida narx mazmuni turli olimlar va oqimlar tomonidan turlicha aniqlanmoqda va unga turlicha ta'rif berilmoqda. Buning ustiga narxning darajasiga (yuqori yoki past bo'lishiga), uning o'zgarishiga turli xil omillar ta'sir qiladiki, bu ham masalani to'g'ri tushunishni bir oz chigallashtiradi. Masalan, ingliz klassik siyosiy iqtisod maktabi vakillari g'oyalarida hamda oldingi siyosiy iqtisod darsliklarida narxning asosini qiymat tashkil qiladi, deyilgan bo'lsa, marjinalizm yo'nalishidagi va hozirgi davrdagi P.Samuelson, K.Makkonnell va S.Bryularning «Ekonomiks» darsliklarida, shuningdek, yaqinda chop etilgan ayrim iqtisodiyot nazariyasi darsliklari va o'quv qo'llanmalarida tovar narxining asosini uning nafliligi, aniqroq aytganda, qo'shilgan miqdor nafliligi tashkil qiladi, deyiladi. Bunda so'nggi qo'shilgan miqdor nafliligiga alohida e'tibor beriladi. Uchinchi guruh olimlar esa narx talab va taklif asosida tashkil topadi deyishadi. Ularning har biri o'zlaricha turli dalillar topib, o'z g'oyalarini isbotlashga harakat qiladilar.

Rosiyada chop etilgan bir qator «Iqtisodiyot nazariyasi» darsliklarida tovarning ikki xil xususiyati va binobarin, har ikki nazariyaning mohiyati, mazmuni va ularning narxni to'g'ri aniqlashdagi roli beriladi, lekin narxning asosida nima yotishi haqida aniq fikr berilmaydi.

Alohida tovarlarga qilingan mehnat sarflari turlicha bo'lib, ulardan ayrimlari ijtimoiy mehnat sarfi sifatida to'liq tan olinsa, boshqasi qisman tan olinadi, uchinchisi esa umuman tan olinmasligi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, bozordagi mavjud narxlarga

mehnat sarflari yoki qiymatning aynan o'zi deb qarash noto'g'ridir. Chunki unga mehnat sarfidan boshqa omillar ham ta'sir qilib, natijada narx qiymatdan past yoki yuqori bo'lishi mumkin. Jumladan, o'zgarib turuvchi talab va taklif ta'siri ostida biror tovarning bozor narxi tebranib, uning qiymatidan u yoki bu tomonga farqlanishi mumkin. Raqobat ham qiymat – narx nisbatiga xuddi talab va taklif kabi ta'sir ko'rsatadi. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, xaridor u yoki bu tovarni sotib olishda, nafaqat uning qancha turishini, balki mazkur tovarning iste'mol xususiyatlari o'zining ehtiyoji va didiga qanchalik mos kelishini, ya'ni uning nafliligini ham hisobga oladi. Tovarning xarid qilinishi uning alohida olingan bir kishi uchun emas, balki jamiyat uchun nafliligini va shu bilan birga ijtimoiy qiymatini ham tan olishni bildiradi. Shu sababli, «ijtimoiy naflilik» tushunchasining o'zi biror tovar (xizmat) ning jamiyat uchun nafliligi, qadr-qimmatga egaligini ko'rsatadi. Shu mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, narx o'zida faqatgina qiymat yoki naflilikning birini emas, balki har ikkalasining bir vaqtda mavjudligini va ularning ma'lum miqdorini pul ko'rinishida ifoda etadi. Tovardagi ikki xususiyat birdaniga tan olinmasa, u pulda ifodalanmasa oldi-sotdi sodir bo'lmaydi. Chunki tovarning qiymati tomonida sotuvchining manfaati, nafliligi (iste'mol qiymati) tomonida esa xaridorning manfaati yotadi. Tovar egasi tovar ishlab chiqarish sarflarini qoplab, ma'lum darajada, iloji boricha ko'proq foyda olishni ta'minlashi mumkin bo'lgan qiymatni pul shaklida o'zlashtirishga intilsa, xaridor iloji boricha sarflayotgan pulining har bir birligiga ko'proq naflilik (iste'mol qiymati) olishga harakat qiladi. Ularning manfaatlari to'g'ri kelgan nuqtada, darajada narx o'rnatilib, tovar-pul almashuvi, oldi-sotdi sodir bo'ladi.

Tovarning narxi ma'lum bir iqtisodiy jarayonni ifoda etuvchi mustaqil ilmiy tushuncha ekanligi, tovarning ikki xususiyatiga asoslanishini, ular bilan chambarchas bog'liqlikda o'zgarishini ko'rish mumkin. Undan tashqari, hozirgacha iqtisodiy fanlarda real hayotda turli-tuman tovarlar va xizmatlar nafliligini, ularning o'zgarishini bir ko'rsatkichga keltirib hisoblashning pul ko'rinishidan boshqa o'lchami topilgan emas. Naflilikning marjinalistlar tomonidan kiritilgan shartli o'lchami – yutil (inglizcha utility – naflilik) ham turli tovarlar nafliligi hisobini olib borishga qodir emas. Bulardan xulosa qilib aytish

mumkinki, narx – real bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy nafliligining puldagi ifodasidir.

Bu yerda shuni yana bir bor ta’kidlash joizki, narxda alohida olingan ishlab chiqaruvchilarning individual sarflari emas yoki alohida olingan individual shaxslarning psixologik jihatdan naflilikka bergan bahosi ham emas, balki jamiyat tomonidan tan olingan ijtimoiy sarflar va jamiyat uchun zarur bo’lgan miqdorda va sifatda yaratilgan va tan olingan ijtimoiy naflilik (iste’mol qiymat) o’z ifodasini topadi. Tovarlar va xizmatlar uchun qilingan ijtimoiy sarflarning asosli ravishda o’sishi yoki tovar va xizmatdagi sifat ko’rsatkichlarining o’sishi ushbu tovar narxining oshishiga olib keladi. Masalan, avtomobil dvigatelida ot kuchining oshishi, saloni, boshqaruv tizimi va tezligida bo’lgan o’zgarishlar uning narxi oshishiga sabab bo’ladi. Chunki shu o’zgarishlar bilan bir vaqtda unga sarflangan xarajatlar ham oshgan bo’ladi. Bunday ikki tomonlama o’zgarishlar natijasida narxlarning o’zgarishi hamma tovarlar va xizmatlarga xosdir. Narx tovar va xizmatlardagi ikki xususiyatning puldagi ifodasi sifatida, ularning o’zgarishi natijasida o’zgaradi.

Narxning mazmunini to’laroq tushunishda, uning darajasiga ta’sir etuvchi omillarni bilish muhim ahamiyatga egadir. Bulardan asosiylari bo’lib, qiymat yoki ishlab chiqarish sarflari; tovarning naflilik darajasi; mazkur tovarga talab va taklif nisbati; raqobat holati; davlatning iqtisodiy siyosati va h.k. hisoblanadi.

Hozirgi davrda iqtisodiyot nazariyasi bo’yicha chop etilayotgan ko’plab darslik va o’quv qo’llanmalarda narx darajasiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar qatorida pulning qadr-qimmati e’tibordan chetda qolmoqda. Holbuki, pulning qadr-qimmatining o’zgarishi ham narx darajasiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Bu, ayniqsa, milliy valyutani chet el valyutalariga ayirboshlash nisbatining o’zgarishi orqali yaqqolroq namoyon bo’ladi. Masalan, 1 AQSH dollari 1300 so’mga teng bo’lgan chog’da 10 dollar turuvchi qandaydir tovarning narxi 13000 so’m bo’ladi. Agar so’mning qadri oshib, 1 dollar 1000 so’mga tenglashsa, u holda shu tovarning narxi 10000 so’m bo’ladi. Narx darajasiga boshqa omillarning ta’siriga alohida to’xtalmasa ham bo’ladi. Chunki soliq miqdori qancha ko’p bo’lsa, narx darajasi shuncha yuqori bo’lishi hammaga ayondir. Narxning iqtisodiy mazmuni uning vazifalari ko’rib chiqilganda yanada yaqqol namoyon bo’ladi.

Narx bozorda talab va taklifning hajmi va tarkibiga ta'sir etish orqali ularni muvozanat holatiga keltiradi. Bozor narxi – bu muvozanatlashgan narx bo'lib, u birinchidan, tovarlarning sotilishini ta'minlaydi, ikkinchidan, bozorda tovarlar taqchilligini yuzaga keltirmaydi.

Bozor holati (kon'yunkturasi) talab va taklif hamda ularning nisbatiga bog'liq. Talabning ortishi muayyan tovarni ishlab chiqarishni kengaytirishni, askincha holatda esa tovar ortiqchaligini, uni ishlab chiqarishni qisqartirish zarurligini bildiradi. Bozor narxi tovar ishlab chiqaruvchilar faoliyatiga ularning daromadlari orqali ta'sir ko'rsatadi. Muayyan ishlab chiqarish xarajatlari saqlangan holda narx yuqori bo'lsa, foyda miqdori ortadi, narx tushsa, foyda kamayadi va hatto ishlab chiqaruvchilar zarar ko'rish ham mumkin. Bu ishlab chiqaruvchilar faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Bozorda narx oshsa, ishlab chiqarish kengayadi. Boshqa kapitallar ham foyda yuqori bo'lgan soha va tarmoqlarga oqib kela boshlaydi. Xullas, narx ishlab chiqarishni tartibga solib, uni o'zgartirib turadi va rivojini ta'minlaydi.

Iqtisodiyotning turli sohalari va tarmoqlaridagi ishlab chiqarish va sotish sharoitlarining xilma-xilligi hamda bozor munosabatlarining rivojlanishi darajasidagi farqlar narx turlarini farqlash zaruratini tug'diradi. Iqtisodiyotda amal qilib turgan barcha narx turlari narx tizimini tashkil qiladi. Narxlar tizimida ularning ayrim turlarining iqtisodiy mazmunini qisqacha qarab chiqamiz.

Ulgurji narx – ishlab chiqaruvchilar tomonidan katta miqdordagi tovarlar bir yo'la ko'tarasiga sotilganda qo'llaniladigan narx. Ulgurji narx ishlab chiqaruvchilar va ta'minlash-sotish tashkilotlari xarajatlarini qoplashi hamda ularning ma'lum miqdorda foyda ko'rishini ta'minlashi zarur. Ulgurji narx tovar birjalari va savdo uylarida ham qo'llaniladi.

Shartnoma narx – sotuvchi va xaridorning roziligi bilan belgilanadigan, ular tomonidan tuzilgan shartnomada qayd qilingan narx. Shartnoma narx odatda, shartnoma bitimi amal qilib turgan davrda o'zgarmaydi. Mazkur narx ham milliy, ham xalqaro bozorlarda qo'llaniladi. U xalqaro bozorda qo'llanilganda tovar (xizmat)larning jahon narxlariga yaqin turadi.

Chakana narx – tovarlar bevosita iste'molchilarga sotiladigan narx. Chakana narxga tovarning ulgurji narxi, chakana savdo

tashkilotlarining xarajatlari va ularning oladigan foydasi kiradi. Chakana narx tovarlarga bo'lgan talab va taklifni bog'lovchi rolini o'ynaydi hamda ularning nisbatiga qarab yuqori yoki past bo'lishi mumkin.

Davlatning narxlarni tartibga solish faoliyati chegaralangan (limitlangan) va dotatsiyalangan narxlarni vujudga keltiradi. Chegaralangan narx – davlat tomonidan yuqori va quyi chegaralari belgilanib, shu doirada o'zgarishi mumkin bo'lgan narx. Bunday narx yordamida davlat inflyatsiyani jilovlaydi, narx darajasini nazorat qiladi. Dotatsiyalangan narx – davlat budjeti hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narx. Bunday narxdan kam daromadli oilalar, beva-bechoralar, ishsiz va nogironlarni hayotiy zarur ne'matlar bilan eng kam darajada ta'minlab turishda foydalaniladi.

Demping narx – bozorda o'z mavqeini mustahkamlash va raqiblarini bozordan siqib chiqarish uchun firmalar tomonidan foydalaniladigan maxsus narx. U «bozorga kirib olish narxi» deb ham ataladi. Demping narxda rasmiy narxning bir qismidan kechib yuboriladi.

Nufuzli narx – sotish hajmini o'zgartirmasdan, yuqori foyda olishga erishish uchun firmalar tomonidan foydalaniladigan narx. Bu narxni qo'llash uchun bozorda raqobat cheklangan bo'lib, monopol vaziyat mavjud bo'lishi zarur. Mazkur vaziyatda talab narxga bog'liq bo'lmaydi, shu sababli narxning ko'tarilishi tovar sotilishini keskin kamaytirmaydi. Bundan tashqari, aholining yuqori daromad oluvchi qatlami xarid qiladigan nufuzli tovarlar ham mavjudki, ular nufuzli narxlarda sotiladi. Rivojlangan mamlakatlarda yuqori daromad oluvchi aholi qatlami uchun dala hovliga ega bo'lish, mashhur kurortlarda dam olish, so'nggi nusxadagi kiyimlar kiyish, yangi modeldagi avtomashinada yurish – martabali yoki obro'talab iste'mol hisoblanadi. Martabali iste'mol nufuzli narxlarni yuzaga keltiradi. Ular odatdagi narxlardan ancha yuqori bo'ladi. Nufuzli narxlarni qo'llashda tovarlarni ishlab chiqarish xarajatlari va rentabellik darajasi, bozordagi talab, uning o'zgarishi va bozordagi raqobatlashuv sharoiti hisobga olinadi. Shunga qarab, ma'lum davrgacha o'zgarmaydigan qat'iy (standart) narx va o'zgaruvchan narx qo'llaniladi. Shunday tovarlar borki, iste'molchilar ularning narxi o'zgarmasligini afzal ko'radi.

Masalan, kommunal xizmat, transport xizmati tariflari shunday narxlar jumlasiga kiradi.

Erkin bozor narxi – bu talab va taklif asosida vujudga keladigan bozor narxidir. Madaniylashgan bozor sharoitlarini vujudga keltirishda erkin narx jamiyat va bozor munosabatlari barcha subyektlari manfaatlarini eng maqbul tarzda uyg'unlashtirishga imkon beradi.

Narx diapazoni narxlar oralig'ining puldagi ifodasidir. Narx diapazoni quyi, o'rta va yuqori narxlarni o'z ichiga oladi. Narx diapazoni qanchalik keng bo'lsa, tovar muomalasi shunchalik tez yuz beradi, chunki talab bilan narx o'zaro bog'lanadi.


Bozor ko'lami hisobga olinganda hududiy (mintaqaviy), milliy va xalqaro narxlar mavjud bo'ladi. Hududiy narx faqat ma'lum hududiy bozorga xos bo'lib, u shu hudud doirasidagi omillar ta'sirida hosil bo'ladi. Milliy bozor narxi bir mamlakat doirasida amal qiluvchi va ularning xususiyatini aks ettiruvchi narxdir. Milliy narx mamlakat doirasidagi ijtimoiy sarf-xarajatlarni, milliy bozordagi talab va taklifni, tovar nafliligini, uning qanchalik qadrlanishini hisobga oladi. Jahon bozori narxi muayyan tovarni ishlab chiqarishga sarflangan baynalminal xarajatlarni, tovarning jahon standarti talabiga mos kelish darajasini va xalqaro bozordagi talab va taklif nisbatini hisobga oladi.

Narxning xilma-xil turlari mavjud bo'lsa-da, ular bir-biri bilan o'zaro bog'langan, chunki ularda jamiyatdagi iqtisodiy resurslarning ishlatilish samarasi o'z ifodasini topadi. Iqtisodiyot nazariyasida narx nisbati degan tushuncha bor, u narx pariteti deb ham yuritiladi. Iqtisodiyot va undagi jarayonlar bir-biriga bog'liq bo'lganidan narxlar bir-birini yuzaga chiqaradi. Masalan, ruda narxi metall narxiga, metall narxi mashina narxiga, mashina narxi kiyim narxi tarkibiga kiradi, chunki bu narxlarning har biri o'zidan keyingi mahsulot xarajatlarini shakllantiradi. Bozorga shunday o'ziga xos tovarlar chiqadiki, ular ko'pchilik sohalarda ishlatiladigan eng muhim iqtisodiy resurslar hisoblanadi. Bular metall, neft, ko'mir, gaz, yog'och, bug'doy, paxta kabi tovarlar bo'lib, ular narxining o'zgarishi butun narxlar nisbatini o'zgartiradi.

Bozor narxi erkin shakllanadigan yoki tashkil topish xususiyatlarini tadqiq etgan dastlabki iqtisodchilardan biri A.Marshall hisoblanadi. Uning fikricha, bozor narxini shakllanishi jarayonida ikki xil, ya'ni sotuvchi va xaridor narxlari mavjud bo'ladi. Nazariy jihatdan

har ikki narxning yuqori va quyi darajalari mavjud. Sotuvchi o'z tovari narxining imkon qadar yuqori bo'lishidan manfaatdor, chunki bunday narx uning foydasi hajmini oshiradi. Sotuvchi narxining eng past darajasi shu tovarni ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlarni qoplashi kerak. Xaridor tovarni eng past narxda sotib olishdan manfaatdor, biroq erkin raqobatli bozor sharoitida uning ham tovar sotib ololmay qolish xavfi mavjud bo'ladi.

Sotuvchi va xaridor o'rtasidagi qulay narxga erishish borasidagi kurash har ikki narxning mosligi ta'minlangunga, ya'ni bozor narxi paydo bo'lgunga qadar davom etadi. Shunday qilib, sotuvchining narxi tomonidan ishlab chiqarish xarajatlari, xaridor narxi tomonidan esa so'nggi qo'shilgan miqdor nafliligi maydonga tushib, ularning nisbati asosida bozor narxi paydo bo'ladi. Bu holatni Marshall shunday ifodalaydi: «...«ishlab chiqarish xarajatlari» prinsipi hamda «so'nggi qo'shilgan naflilik» prinsipi, shubhasiz, yagona talab va taklif umumiy qonunining tarkibiy qismi hisoblanib, ulardan har birini qaychining bitta kesuvchi tomoniga qiyoslash mumkin». Talab va taklifning muvozanati bozor narxining shakllanishiga muvofiq keladi 14.1 - rasm.



14.1- rasm. Bozor narxning shakllanishi.

Bozordagi yagona muvozanatlashgan, nisbatan uzoq vaqt barqaror amal qiluvchi narx sifatida talab hajmi taklif hajmiga muvofiq kelgan holdagi narx RE maydonga tushadi. Muvozanat narxi har doim ham darhol, bir zumda tarkib topmaydi. Unga erishishda toki talab va taklif muvozanatga kelgunga qadar bozor narxi atrofidagi

tebranishlarni o'z ichiga oluvchi ma'lum davrlar taqozo etilishi mumkin.

14.2. Nomukammal raqobat turli shakllari

Iqtisodiyotda bir tarmoq ichidagi raqobatning to'rtta shakli alohida ajratib ko'rsatiladi. Bular sof raqobat, sof monopoliya, monopolistik raqobat va oligopoliyadir.

Sof raqobat sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqda juda ko'p sonli korxonalar mavjud bo'ladi. Yuqori darajada tashkil qilingan bozorda ko'plab sotuvchilar o'zlarining mahsulotlarini taklif qiladilar. Ayni paytda, ushbu mahsulot xaridor va iste'molchilarining soni ham juda ko'p bo'ladi. Sof raqobatli bozorda alohida korxonalar mahsulot narxi ustidan nazorat o'rnata olmaydi yoki nazorat sezilarli darajada bo'ladi. Chunki har bir korxonada umumiy ishlab chiqarish hajmi uncha katta bo'lmaydi. Shu sababli alohida korxonada ishlab chiqarishning ko'payishi yoki kamayishi umumiy taklifga, demak, mahsulot narxiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Sof raqobat sharoitida yangi korxonalar tarmoqqa erkin kirishi, tarmoqda mavjud bo'lgan korxonalar esa uni erkin tashlab chiqishi mumkin. Xususan, yangi korxonalarning paydo bo'lishi va ularning raqobatli bozorda mahsulotlarini sotishga huquqiy, texnologik, moliyaviy va boshqa jiddiy iqtisodiy to'siqlar bo'lmaydi.

Sof monopoliyada tarmoq bitta firmadan iborat bo'lganligi sababli, u mavjud mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakkahukmronlik shakllanadi. Monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi. Buning sababi oddiy bo'lib, u mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va demak, taklifning umumiy hajmi ustidan nazorat qiladi.

Monopolistik raqobat o'z ichiga ham monopoliya, ham raqobat unsurlarini oladi. Bunda tarmoqdagi bir turdagi mahsulotning o'nlab ishlab chiqaruvchilari bir-birlari bilan qulay narx hamda ishlab chiqarish hajmiga erishish borasida raqobatlashadilar. Biroq, ayni paytda, har bir ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotini tabaqalashtirish, ya'ni shu turdagi boshqa mahsulotlardan qaysi bir jihati (sifat darajasi, shakli, qadoqlanishi, sotish sharoitlari va h.k.) bo'yicha farqlantirish orqali uning monopol ishlab chiqaruvchisiga aylanadi.

Oligopoliya – tarmoqda u qadar ko‘p bo‘lmagan korxonalarning mavjud bo‘lishi va hukmronlik qilishidir. Bu oligopoliyaning eng muhim belgisi bo‘lib, qaysi tovarlar va xizmatlar bozorida nisbatan kam sonli ishlab chiqaruvchilar hukmronlik qilsa, shu tarmoq oligopolistik tarmoq hisoblanadi.

Oligopolistik tarmoq bir xil yoki tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqarishi mumkin. Ko‘pchilik sanoat mahsulotlari – po‘lat, mis, aluminiy, qo‘rg‘oshin, temir va shu kabilar fizik ma‘noda bir turdagi mahsulotlar hisoblanadi va oligopoliya sharoitida ishlab chiqariladi. Iste‘mol tovarlari – avtomobillar, kir yuvish vositalari, sigaretlar, maishiy elektr buyumlari va shu kabilarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar tabaqalashgan oligopoliya hisoblanadi.

Oligopoliya sharoitida korxonalar o‘rtasidagi raqobat o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Oligopolistik tarmoqda hech qaysi firma o‘zining narx siyosatini mustaqil o‘zgartirishga botina olmaydi.

Biz qarab chiqqan raqobatning to‘rtta shaklining har biri milliy iqtisodiyotda alohida-alohida, ya‘ni sof holda uchramaydi. Iqtisodiyot sohalarini batafsil o‘rganish, cheksiz ko‘p har xil raqobatli vaziyatlar mavjudligi sharoitida, ikkita bir xil tarmoqni topish qiyinligini ko‘rsatadi. Hozirda turli darajadagi monopolistik tuzilmalar rivojlanib borishi bilan ular o‘rtasidagi raqobatning shakllari ham turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lib bormoqda. Jumladan, turli monopollashuv darajasidagi tuzilmalar o‘rtasida mavjud bo‘lishiga ko‘ra quyidagi raqobat turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- 1) monopollashmagan korxonalar o‘rtasidagi raqobat;
- 2) monopoliyalar hamda monopolistik birlashmalarga kirmagan ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi raqobat;
- 3) turli monopoliyalar o‘rtasidagi raqobat;
- 4) monopolistik birlashmalar ichidagi raqobat.

Shuningdek, iqtisodiy adabiyotlarda g‘irrom va halol raqobatlashuv usullari ham ajratib ko‘rsatiladi. Raqobatlashuvning noan‘anaviy, jamiyat tomonidan e‘tirof etilmagan, ijtimoiy axloq qoidalari doirasidan chetga chiquvchi, noiqtisodiy (ya‘ni jismoniy kuch ishlatish, majburlash, raqiblarning obro‘sigacha putur yetkazish va h.k.) usullaridan foydalanish g‘irrom raqobat deb yuritiladi. G‘irrom raqobat orqali firmalar o‘z raqiblarining tarmoqqa kirib kelishini tajovuzkorona va shafqatsiz bartaraf qilishi mumkin. Banklarni,

moddiy resurs ta'minotchilarini kredit va materiallar yetkazib berishdan voz kechishga majburlash, yetakchi mutaxassislarni og'dirib olish, narxni keskin pasaytirish g'irrom raqobatning oddiy usullaridir.

Halol raqobat – raqobat kurashida jamiyat tomonidan tan olingan iqtisodiy usullarni qo'llash, o'zining maqsad va manfaatlariga erishishda umumjamiyat manfaatlariga zid keluvchi holatlarni qo'llamaslik kabi qoidalariga asoslanadi. Shu o'rinda halol raqobatning quyidagi belgilarini ham ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- qalbaki bellashuv, majburiy safarbarlikni tan olmaydi;
- boqimandalik, befarqlik, yuzakichilik, ko'zbo'yamachilik kabi salbiy holatlarga barham beradi;
- qarindosh-urug'chilikni, oshna-og'aynigarchilikni, tanish-bilishlikni, ma'muriy-buyruqbozlikni tan olmaydi .

Raqobat kurashining ikki usuli farqlanadi: narx vositasidagi raqobat va narxsiz raqobat.

Narx vositasida raqobatlashuvda kurashning asosiy usuli bo'lib ishlab chiqaruvchilarning o'z tovarlari narxini boshqa ishlab chiqaruvchilarning shunday mahsulotlari narxiga nisbatan pasaytirishi hisoblanadi. Uning asosiy va eng ko'p qo'llaniladigan ko'rinishi – «narxlar jangi» deb ataladiki, bunda yirik ishlab chiqaruvchilar raqiblarini tarmoqdan siqib chiqarish uchun narxni vaqti-vaqti bilan yoki uzoq muddat pasaytirib turadi. Bu usulni qo'llash uchun ishlab chiqaruvchi boshqa raqiblariga qaraganda unumliroq texnologiyani kiritishi, malakaliroq ishchilarni yollashi va ishlab chiqarishni yaxshiroq tashkil qilishi kerak bo'ladi. Faqat shundagina uning tovarining individual qiymati bozor qiymatidan past bo'lib, mazkur tovar narxini pasaytirish imkonini beradi.

Narx vositasida raqobatlashish usullaridan biri – demping narxlarni qo'llashdir. Bunda milliy ishlab chiqaruvchilar o'zlarining tovarlarini boshqa mamlakatlarga ichki bozordagi narxlardan, ayrim hollarda tannarxidan ham past bo'lgan narxlarda sotadi. Shu orqali ular ichki bozorda narxlarning barqarorligiga erishish mamlakatdagi ortiqcha mahsulotni yo'qotish, yangi bozorlarga kirib olish va unda o'zlarining iqtisodiy mavqeini mustahkamlashga harakat qiladi.

Ayrim hollarda narx yordamida raqobatlashishning belgilangan narxlardan chegirma qilish, asosiy xarid qilingan tovarlarga boshqa

tovarlarini qo'shib berish, muayyan hollarda imtiyozli narxlarni belgilash kabi usullaridan ham foydalaniladi.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda narx yordamida raqobat qilish o'z o'rniga ega emas, chunki ishlab chiqaruvchilardan birining o'z mahsuloti narxini pasaytirishi uning raqobatchilarining ham shunday harakat qilishiga olib keladi. Natijada firmalarning bozordagi mavqei o'zgarmay, faqat tarmoq bo'yicha foyda hajmini kamaytiradi.

Narxsiz raqobat shu bilan tavsiflanadiki, bunda raqobat kurashining asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, servis xizmat ko'rsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obro'-e'tibori hisoblanadi.

Narxsiz raqobat bilan bir vaqtda yashirin narx yordamidagi raqobat ham bo'lishi mumkin. Bunday holatda yangi tovarlar sifatining oshishi va iste'mol xususiyatlarining yaxshilanishi ular narxlarining oshishiga qaraganda tez ro'y beradi. Hozirgi davrda bir turdagi mahsulotlarning ko'payishi ularni sotishni rag'batlantiruvchi reklama, tovar belgilari va fabrika muhrlaridan foydalanishni keltirib chiqarmoqda. Iste'mol bozorlarida qo'shimcha xizmat ko'rsatish orqali xaridorlarni o'ziga jalb qilish keng tarqalmoqda.

Narxsiz raqobatning tovar sifatini tabaqalashtirish kabi usuli ham mavjudki, bunda tovarlar bir xildagi ehtiyojni qondirishi va bir turga mansub bo'lishi, lekin turli-tuman iste'mol xossalariga ega bo'lishi mumkin.

Tovarlar talabga nisbatan ortiqcha bo'lgan sharoitda ishlab chiqaruvchilar tovarlarini kreditga sotish usulidan foydalanib raqiblaridan ustun kelishlari mumkin. Bunda dastlab, tovar narxining faqat bir qismi to'lanadi, uning qolgan qismi esa shartnomada kelishilgan aniq muddatlarda to'lanadi.

Fan-texnika taraqqiyoti avj olgan hozirgi sharoitda, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlari ustidan nazorat qilish uchun kurash raqobatning asosiy usullaridan biriga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchi korxonalar xaridorlarni jalb qilish maqsadida uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlariga kafolatli va kafolatdan keyingi xizmat ko'rsatishni amalga oshirmoqdalar. Masalan, kompyuter ishlab chiqaruvchi firma o'z mahsulotini shunchaki sotish bilan cheklanmasdan, balki uni o'rnatib berish,

korxona xodimlarini kompyuterdan foydalanishga o'rgatish, kafolatlangan muddatda va undan keyingi davrda ta'mir ishlarini bajarish, texnikaviy xizmat ko'rsatish kabilarni ham amalga oshiradi; mahsulot xossa va o'lchamlarini buyurtmachi ehtiyojlariga yaqinlashtiradi.

Narxsiz raqobat usullari ichida marketing muhim ahamiyatga ega bo'lib, u mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini talabga moslashtiruvchi tadbirlar tizimidan iborat. Bozor iqtisodiyoti sharoitida talabni yaxshi o'rgangan va iste'molchilar ehtiyojlarini to'laroq qondira oladigan korxonalar har doim raqobat kurashida yutib chiqadi.

Yirik ishlab chiqaruvchilar bozordagi vaziyatni o'zgartirish uchun o'zlarining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni kamaytirib tovar taklifini qisqartiradilar. Shu sababli iqtisodiy beqarorlik davrlarida ham narx barqarorligicha qolaveradi. Shunday qilib, monopoliyalar hukmron bo'lgan sharoitda narxsiz raqobat muhim o'rin tutadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, monopoliyalar tovar sifatini oshirish, iste'molchilarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash yo'li bilan sotiladigan tovar hajmini ko'paytirishi mumkin. Ikkinchidan, ular moliyaviy jihatdan kuchli bo'lganligi sababli mahsulotini yangilash, ishlab chiqarishni qayta jihozlash va reklamaga zarur bo'lgan mablag'ni sarflay oladilar.

14.3. Budget cheklovlari

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, o'z oldiga qo'yilgan vazifalar va maqsadlarni amalga oshirishda davlat budjeti muhim ahamiyat kasb etadi. Biz davlat budjetini mazmun mohiyatini anglash orqali qanday budget cheklovlari mavjud bo'lishi mumkinligini ko'rib chiqamiz.

Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 1 dekabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2020 yil 18 dekabrda ma'qullangan (O'RQ-657-son 25.12.2020) O'zbekiston Respublikasi 2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining konsolidasiyalashgan budjetini shakllantirish va ijro etish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Birinchi darajali budget mablag'larini taqsimlovchilarga O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan ushbu Qonunga muvofiq ajratiladigan mablag'lardan faqat 2021 moliya yili davomida foydalaniladi va kelgusi moliya yiliga o'tkazilmaydi.

14.1-jadval.

2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasi Konsolidasiyalashgan budjetining jamlanma parametrlari hamda 2022-2023 yillarga budjet mo'ljallari²

mlrd so'm

T/r	Ko'rsatkichlar	2021 yil uchun prognoz	Budjet mo'ljallari:	
			2022 yil	2023 yil
I.	Konsolidasiyalashgan budjet daromadlari	178 712,4	208 371,3	238 954,0
1.	Davlat budjeti daromadlari	147 202,3	173 550,2	200 708,6
2.	Davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari*	26 173,9	28 251,7	30 544,5
3.	O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga tushumlar	5 336,2	6 569,4	7 700,8
II.	Konsolidasiyalashgan budjet xarajatlari	216 246,6	231 338,9	258 096,0
1.	Davlat budjeti xarajatlari *	149 950,5	163 780,4	183 675,0
2.	Davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlari	40 772,5	46 709,1	51 720,2
3.	O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larining sarflanishi	13 423,6	6 569,4	7 700,8
4.	Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar	12 100,0	14 280,0	15 000,0
III.	Davlat maqsadli jamg'armalariga transfertlar	15 928,9	17 930,2	21 097,2
IV.	Konsolidasiyalashgan budjet sal'dosi(profit +, defisit -)	-37 534,2	-22 967,6	-19 142,1
V.	Davlat budjeti va Davlat maqsadli jamg'armalari sal'dosi (profit +, defisit-)	-17 346,8	-8 687,6	-4 142,1
VI.	Davlat qarzlarini so'ndirish	7 767,7	10 316,8	12 478,2

² 2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida, O'zbekiston Respublikasining Qonuni (O'RQ-657-son 25.12.2020) - <https://lex.uz/docs/5186044>

14.2-jadval.**2021 yil uchun respublika budjeti daromadlari prognozi³**

mlrd so‘m

T/r	Ko‘rsatkichlar	Summa
	O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti daromadlari	120 231,7
1.	Bevosita soliqlar	32 515,5
1.1.	Foyda solig‘i	26 064,8
1.2.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	6 450,8
2.	Bilvosita soliqlar	60 145,9
2.1.	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	46 955,4
2.2.	Aksiz solig‘i	9 439,3
2.3.	Bojxona boji	3 751,2
3.	Resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i	12 919,9
3.1.	Er qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq	12 919,9
4.	Boshqa daromadlar va soliq bo‘lmagan boshqa tushumlar	14 650,4

Jadval ma’lumotlariga e’tibor qaratsak O‘zbekiston Respublikasi budjeti daromadlari 2021 yil uchun 120231,7 mlrd so‘mni tashkil etmoqda. Bevosita soliqlar 32515,5 mlrd so‘m, bilvosita soliqlar 60145,9 mlrd so‘m, resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i 12919,9 mlrd so‘m, boshqa daromadlar va soliq bo‘lmagan boshqa tushumlar 14650,4 mlrd so‘mni tashkil etgan.

2021 yil uchun respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari aks etgan jadvalda budjet mablag‘larini ya’ni 135 800 591,4 mln. so‘mni barcha sub’ektlari o‘rtasida taqsimlanishi o‘z ifodasini topgan. Ushbu mablag‘ tahminan 56 yo‘nalishdagi vazirlik, qo‘mita va boshqa muassasalar, fondlar o‘rtasida taqsimlangan (ushbu ma’lumot bilan to‘liq tanishish uchun havolaga murojat qilish tavsiya etiladi <https://lex.uz/docs/5186044>).

³ 2021 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (O‘RQ-657-son 25.12.2020) - <https://lex.uz/docs/5186044>

14.3-jadval.

2021 yil uchun respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari⁴

		mln so'm
T/r	Ko'rsatkichlar	Summa
	Respublika budjetidan ajratiladigan mablag'lar, jami	135 800 591,4
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	78 494 963,7
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	6 692 303,6
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	15 512 398,6
	davlat maqsadli jamg'armalariga transfertlar	15 928 935,7
	O'zbekiston Respublikasi respublika budjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi transfertlar	10 442 954,9
	qayta taqsimlanadigan mablag'lar	15 421 338,4

Umumdavlat moliyasi davlat budjetini, ijtimoiy sug'urta fondini hamda davlat mol-mulk va shaxsiy sug'urtasi fondini, soliq tizimini o'z ichiga oladi. Davlat pul mablag'larining asosiy markazlashgan fondi bo'lmish davlat budjeti moliya tizimining muhim bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi. Davlat budjeti – bu davlat daromadlari va xarajatlar hamda ularni moliyaviy qoplash manbalarining yillik rejasidir. Davlat daromadlari va xarajatlarning asosiy qismi davlat budjeti orqali o'tadi. Uning asosiy vazifasi moliyaviy vositalar yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va umumdavlat miqyosidagi ijtimoiy vazifalarni hal qilish uchun sharoit yaratishdir.

⁴ 2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida, O'zbekiston Respublikasining Qonuni (O'RQ-657-son 25.12.2020) - <https://lex.uz/docs/5186044>

Davlat budjetining ikki tomoni bo'lib, bir tomonida budjetga kelib tushadigan daromadlar tarkibi va ularning manbalari, ikkinchi tomonida esa asosiy xarajatlarning tarkibi va miqdori o'z ifodasini topadi.

O'zbekistonda davlat budjetining tuzilishi, daromadlari va xarajatlarining tarkibi quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi 14.4-jadval.

14.4-jadval

O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining daromadlari tarkibi (YAIMga nisbatan %da)

Daromadlar qismi tarkibi	Xarajatlar qismi Tarkibi
Shu jumladan:	Shu jumladan:
To'g'ri soliqlar	Ijtimoiy sohaga
Egri soliqlar	Ijtimoiy himoyaga
Mulk solig'i va resurs to'lovlari	Iqtisodiyot uchun xarajatlar
Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq	Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari
	Davlat hokimiyati, boshqaruv va sud organlariga xarajatlar
Boshqa daromadlar	Boshqa xarajatlar

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari.

Davlat budjetining daromadlari va xarajatlari muvozanatda bo'lishini taqozo qiladi. Lekin ko'pchilik hollarda davlat budjeti xarajatlarining daromatlardan ortiqchaligi kuzatiladi, buning oqibatida budjet taqchilligi ro'y beradi. Bu holning sabablari ko'p bo'lib, ularning ichida davlatning jamiyat hayotining barcha sohalaridagi rolining uzluksiz o'sib borishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarining kengayishi alohida o'rin tutadi. Budjet taqchilligining o'sishi yoki kamayishi mutlaq miqdorda va uning yalpi ichki mahsulot (YAIM)ga nisbatida aniq namoyon bo'ladi.

Budjet taqchilligining oʻzgarishi xoʻjalik konyunkturasidagi joriy tebranishlar, ishlab chiqarishdagi davriy inqiroz va yuksalishlarni ham aks ettiradi, inqirozlar davrida davlat budjet mablagʻlari hisobidan iqtisodiyotning maʼlum sektorlarini moliyaviy taʼminlab turishga, umumdavlat ahamiyatiga ega boʻlgan tarmoqlarda investitsiyalar hajmini saqlab turishga majbur boʻladi. Oʻrnatilgan xalqaro standartlarga koʻra budjet taqchilligi YAIMning 5% darajasidan oshmasligi lozim. Budjet taqchilligi, asosan, davlat qarzi hisobiga qoplanadi.

Davlat qarzi ichki va tashqi qarzlardan iborat boʻladi. Davlat ichki qarzi – bu davlatning mamlakat ichida zayomlar va boshqa qimmatli qogʻozlarini chiqarish, turli nobudjet fondlari (sugʻurta fondi, ishsizlik boʻyicha sugʻurtalash fondi, pensiya fondi)dan qarz olish koʻrinishidagi qarzlar.

Budjet taqchilligini moliyalashtirish (qoplash)ning muhim koʻrinishlaridan biri davlat krediti hisoblanadi. Davlat krediti – davlat qarz oluvchi yoki kreditor sifatida maydonga tushadigan barcha moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar yigʻindisi.

Moliyaviy resurslarni davlat tomonidan qarzga olishning asosiy shakli – bu davlat qarz majburiyatlari (zayomlari)ni chiqarish hisoblanadi. Ularni joylashtirish jarayonida davlat aholi, banklar, savdo va sanoat kompaniyalarining vaqtincha boʻsh turgan pul mablagʻlarini jalb qiladi.

Davlat oʻz majburiyatlarini nafaqat xususiy sektorda joylashtirishi, balki ularni Markaziy bankda hisobga olishi ham mumkin. Bunda bank muomalaga pulning tovar hajmining koʻpayishi bilan bogʻliq boʻlmagan qoʻshimcha miqdorini chiqaradi. Mazkur holda, davlat budjetini moliyalashtirish pul muomalasiga toʻgʻridan-toʻgʻri inflyatsion taʼsir koʻrsatadi. Pul massasining oʻsishi jamiyat haqiqiy boyligining koʻpayishi bilan birga bormaydi.

Davlat qarzlarining toʻxtovsiz koʻpayib borishi, milliy daromadni foiz toʻlovlari shaklida tobora koʻproq qayta taqsimlanishga olib keladi.

Katta budjet taqchilligi va davlat majburiyatlari boʻyicha foiz toʻlovlari oʻsish sharoitida davlat qarzlarini toʻlash vaqtini imkon darajada choʻzishga harakat qiladi. Buning uchun turli xil usullardan foydalanish mumkin. Jumladan, davlat oʻzining qisqa muddatli

majburiyatlarini o'rta va uzoq muddatli zayomlarga almashtiradi. U o'zining qisqa muddatli majburiyatlarini ancha yuqori foiz bo'yicha yangi, uzoq muddatli zayomlar chiqarish hisobiga ham sotib olishi mumkin. Bunday turdagi tadbirlar qisqa davrli samara berishi va vaqtincha davlatning moliyaviy ahvolini yengillashtirishi mumkin, chunki u odatda kelgusida foiz stavkasining oshishi va qarzlar umumiy miqdorining o'sishi bilan bog'liq.

Xo'jalik hayoti baynalminallashuv jarayonlarining tez o'sishi, xalqaro kreditning jadal rivojlanishi natijasida davlat o'ziga zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni jalb qilish uchun bo'sh pul mablag'larining milliy chegaradan tashqaridagi manbalaridan faol foydalanadi. Buning natijasida tashqi qarz vujudga keladi. Davlat tashqi qarzi – xorijiy davlatlardan, ulardagi jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan olingan qarz.

Tashqi qarzning me'yoridan oshib ketishi milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar tashqi qarz bo'yicha to'lovlar mamlakat tovar va xizmatlari eksportidan tushumning ahamiyatli qismi, masalan, 20-25% dan oshib ketsa, bu holat mamlakatning kredit bo'yicha reytingini pasaytirib yuboradi. Natijada, chetdan yangi qarz mablag'larini jalb etish mushkullashadi. Shunga ko'ra, davlatlar muntazam ravishda tashqi qarzni tartibga solish chora-tadbirlarini amalga oshirib boradilar. Bular qatoriga mamlakat oltin-valyuta zaxirasi hisobidan qarzlarni to'lab borish; kreditorlarning qarz to'lov muddatlarini o'zgartirishlari, ayrim hollarda ularning ma'lum qismidan voz kechishlariga erishish; qarzlarni mamlakatdagi ko'chmas mulklar, qimmatli qog'ozlar, kapitalda ishtirok etish va boshqa huquqlarni sotish hisobiga to'lash; xalqaro banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlardan yordam olish va h.k.

Demak, davlat o'z faoliyatini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda ssuda kapitallarining ham milliy bozoridan, ham tashqi bozoridan qarz olishi mumkin.

Xalqaro kreditning tez o'sishi, kapitalning mamlakatlararo migratsiyasi mamlakat va mintaqalar iqtisodiy o'zaro bog'liqligi chuqurlashuvining muqarrar natijasi hisoblanadi. Xalqaro kredit moliyaviy resurslarni ham xususiy sektorning ehtiyojlarini qondirish, ham davlat budjeti taqchilligini qoplash uchun jalb qilish imkoniyatini

sezilarli kengaytiradi. Shu bilan birga tashqi qarzlarning o'sishi bir qator boshqa muammolarni keltirib chiqaradi. Bu o'rinda eng asosiy muammo milliy iqtisodiyotning kreditor va debitor mamlakatlar iqtisodiyotiga bog'liqligining kuchayib borishi hisoblanib, bu jarayonni mamlakatdagi ichki moliyaviy dastaklar bilan nazorat qilish imkoniyati bo'lmay qoladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Narx – real bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy nafliligining puldagi ifodasi.

Bozor narxi – bir tomondan, tovarlarning sotilishini ta'minlovchi, boshqa tomondan, bozorda tovarlar taqchilligini yuzaga keltirmaydigan muvozanatlashgan narx.

Moliya – pul mablag'larining harakati, ya'ni ularning shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishi bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan munosabatlar.

Davlat budjeti – davlat daromadlari va xarajatlari hamda ularni moliyaviy ta'minlash manbalarining tartiblashtirilgan rejasi.

Budjet taqchilligi – davlat budjeti xarajatlarining daromadlardan ortiqchaligi.

Takrorlash uchun savollar

1. Narxning tashkil topishi borasida qanday nazariyalar mavjud? Ularning afzallik va kamchilik tomonlarini ko'rsatib bering.

2. Narxning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar nimalardan iborat?

3. Jamiyat va davlat moliya tizimlari asosiy bo'g'inlarining tavsifini bering. Moliya tizimida davlat budjetining o'rni qanday?

4. Davlat budjeti milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashda qanday rol o'ynaydi? Bunda qanday usullardan foydalaniladi?

5. Budjet taqchilligi nima? Ijobiy va salbiy budjet taqchilligini tushuntiring.

6. Keyingi yillarda O'zbekistonda budjet va soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni gapirib bering.

15-MAVZU: IJTIMOIIY XAVFSIZLIK VA QARZLAR

1. Oddiy ijtimoiy ta'minot tizimi.

2. Ijtimoiy himoya

3. Pensiya inqirozi.

15.1. Oddiy ijtimoiy ta'minot tizimi

Mustaqillikka erishgan kundan boshlab, Respublikamizda alohida ijtimoiy ta'minot tizimini ishlab chiqishga kirishildi. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari Prezidentimiz tomonidan belgilab berildi. Respublikamizda amal qilayotgan pensiya tizimi "avlodlar birdamligi" tizimi bo'lib, 1991-yilda pensiya miqdorini ish staji davomiyligi va o'rtacha oylik ish haqiga uzviy bog'lash hamda maxsus pensiya jamg'armasi hisobidan tizimni moliyalashtirishni amalga oshirishga harakat qilindi va davlat tomonidan dastlabki bosqichi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi bilan tavsiflandi.

Ushbu Qonun O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda davlat pensiyalarini tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta hisoblash va to'lash tartibini belgiladi.

Davlat pensiya ta'minoti tizimida ushbu Qonunning 2-moddasiga asosan davlat pensiyalarining turlari quyidagilar hisoblandi

1. Yoshga doir pensiya. Ushbu pensiyani erkaklar – 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda, ayollar – 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar.

Yoshga doir pensiya tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega bo'lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni 37-moddasi birinchi qismining "a", "b", "v" va "g" bandlarida nazarda tutilgan kamida 5 yil ish staji mavjud bo'lgan taqdirda, borstajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

Imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiyalar olish huquqiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil qarori

bilan tasdiqlangan imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning 1-, 2- va 3-son ro'yxatlariga asosan alohida toifadagi fuqarolar egadirlar:

1-son ro'yxat – yoshidan qat'iy nazar;

2-son ro'yxat – umumiy belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirgan holda;

3-son ro'yxat – umumiy belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirgan holda;

Imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiyalar olish huquqiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 12-maydagi 250-son qarori bilan tasdiqlangan imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning 1-, 2- va 3-son ro'yxatlariga asosan alohida toifadagi fuqarolar egadirlar:

1-son ro'yxat

2-son ro'yxat

3-son ro'yxat

Umumiy belgilangan yoshni qisqartirgan holda imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqiga, shuningdek:

Urush nogironlari, bolalikdan nogironlar onalari – 5 yilga qisqartirgan holda;

liliput va pakanalar – 10 yilga qisqartirgan holda.

Imtiyozli shartlarda pensiyalarni tayinlash tartibining asosiy shartlari O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunining 10-13-moddalarida aks ettirilgan.

Qonunning 37-moddasining "a", "b", "v" va "g" bandlarida nazarda tutilgan kamida yigirma yillik ish staji bo'lgan ayollar ellik to'rt yoshga to'lganda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

2. Nogironlik pensiyalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari deb topilgan shaxslarga tayinlanadi.

Nogironlik sabablari va guruhlar, shuningdek, nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan aniqlanadi. Ko'rikdan o'tkazish va kasbiy mehnat layoqatini yo'qotish darajasini aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 1-iyuldagi "Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan

fuqarolarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga, nogironlikni va kasbiy mehnatga layoqat yo'qotilishi darajasini aniqlashga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 195-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomlar asosida amalga oshiriladi.

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda bepiladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat'iy nazar tayinlanadi.

Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari nogironlik boshlangan paytga qadar O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunining 17-moddasi 2-qismida belgilangan ish stajiga ega bo'lgan taqdirda tayinlanadi.

3. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi. Vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi.

Quyidagilar oilaning mehnatga qobiliyatsiz a'zolari hisoblanadilar:

a) bolalar, aka-ukalar, opa-singillar va nabiralar 16 yoshga to'lmagan bo'lsa yoki 16 yoshdan katta bo'lsa ham 16 yoshga to'lmasdan nogiron bo'lib qolgan bo'lsalar. Bunda aka-ukalar, opa-singillar va nabiralarning mehnatga qobiliyatli ota-onasi bo'lmasa;


b) ota, ona, o'gay ota, o'gay ona, xotin, er, basharti, ular 7-moddada nazarda tutilgan pensiya yoshiga to'lgan yoki 1- yoki 2 -guruh nogironi bo'lsalar;

v) yoshidan va mehnat qobiliyatidan qat'iy nazar, ota va onadan biri yoki er (xotin) yoxud buva, buvi, aka-uka yoki opa-singil, agar u vafot etgan boquvchining bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nabiralarini, 3 yoshga to'lgunga qadar boqish bilan mashg'ul bo'lsa va ishlamasa;

g) buva va buvi agar qonunga muvofiq ularni boqishi shart bo'lgan kishilar bo'lmasa;

O'quvchilar 18 yoshga to'lgunga qadar boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga egadirlar.

O'gay o'g'il va o'gay qiz, agar ular ota-onalaridan aliment olmagan bo'lsalar, haqiqiy farzandlarsingari pensiya olish huquqiga egadirlar.



15.1-rasm. O‘zbekistonda davlat pensiyalarning turlari.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo‘lgan voyaga yetmagan farzandlar, ular farzandlikka olinganlarida ham bu huquqni saqlab qoladilar.

O‘gay ota va o‘gay ona, agar vafot etgan o‘gay o‘g‘ilni (qizni) 18 yoshga to‘lgunga qadar kamida 5 yil tarbiyalagan yoki boqqan bo‘lsalar, haqiqiy ota va ona singari pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar”.

“Bazaviy hisoblash miqdorini belgilashning asosiy tamoyillaridan biri pensiya miqdorini ish stajining muddatiga bog‘liq bo‘lib, quyidagilardan tarkib topadi:

- pensiyaning tayanch miqdoridan;
- ish staji uchun pensiyaning oshirilishidan;
- pensiyaga qo‘shiladigan ustama haqlari;

Pensiyani hisoblash uchun pensiyalarning quyidagi bazaviy miqdorlari belgilanadi:

a) yoshga doir pensiyalar uchun - pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin rasmiy belgilangan yoshga doir eng kam pensiyaning kamida 100 foizi;

b) I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun - pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin yoshga doir eng kam pensiyaning kamida 100 foizi miqdorida;


v) boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi uchun oilaning har bir mehnatga layoqatsiz a‘zosiga - pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 30 foizi miqdorida, lekin yoshga doir eng kam pensiyaning kamida 50 foizi miqdorida;

g) har ikkala ota-onasini yo‘qotgan bolalarga (chin yetimlarga) boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi uchun yoki vafot etgan yolg‘iz onaning bolalariga har bir bola uchun - pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin yoshga doir eng kam pensiyaning kamida 100 foizi miqdorida.

Pensiya tayinlash uchun talab qilinadigandan ortiq ish stajining har bir to‘liq yili uchun pensiyalarning bazaviy miqdorlari:


a) yoshga doir pensiyalar - pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 1 foiziga;

b) I va II guruhlar nogironlariga nogironlik pensiyalari - pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 1 foiziga; (15.2-rasm)



15.2-rasm. Tayinlanadigan pensiya miqdorining tarkibi.

v) boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari oilaning har bir mehnatga layoqatsiz a‘zosiga - boquvchi o‘rtacha oylik ish haqining 0,5 foiziga oshiriladi.



15.3-rasm. O‘rtacha pensiyaning tashkil topishi.

Otasidan ham, onasidan ham judo bo‘lgan (chin yetim) bolalarga tayinlanadigan boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalarni oshirish ota va ona ish haqlarining umumiy miqdoridan kelib chiqib, eng kam oylik ish haqining sakkiz barobari miqdori doirasida amalga oshiriladi”.

O‘zbekiston Respublikasida o‘rtacha pensiyaning tashkil topishini quydagi ko‘rinishda ko‘rish mumkin (15.3-rasm). 60,7% - tayanch miqdorining ulushi, 17,3% - ustamlarning ulushi, 21,6% - talab qilingandan ortiqcha staj uchun oshirilish ulushi.

Ijtimoiy ta‘minot - keksaygan, mehnatga layoqatsiz bo‘lgan va boquvchisini yo‘qotgan fuqarolarga moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimi. Ijtimoiy himoyaning muhim tarmog‘i.

Ijtimoiy ta‘minot to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat byudjetidgn ajratiladigan mablag‘lari, homiylar (turli jamg‘arma va tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar) mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Ijtimoiy ta‘minot miqdori va taqdim etish tartibi milliy urf-odatlar va xalqaro me‘yorlarga asosan ishlab chiqilgan qonunchilik hamda davlatning iqtisodiy imkoniyati doirasida amalga oshiriladi. Pensiyalar (keksalik bo‘yicha, nogironlik bo‘yicha, boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha va ijtimoiy nafaqa (nogiron bolalarga, bolalikdan nogironlarga, ishlamagan yolg‘iz nogiron va keksalarga) to‘lovlari ijtimoiy ta‘minot ning eng muhim turlari hisoblanadi. Qariyalar va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish — nogironlarni "Muruvvat" uylariga, yolg‘iz qariyalarni "Sahovat" uylariga joylashtirish, muhtojlarni protez-ortopediya va harakatlanish vositalari bilan ta‘minlash, nogiron bolalarni kasbga o‘qitish va ishga joylashishda yordam ko‘rsatish, pensionerlarni sanatoriy va dam olish uylarida

sogʻlomlashtirish, ularga shahar jamoa transportlaridan foydalanishda, turar joy, maishiy xizmat va soliqlarga aloqador imtiyozlar berish ijtimoiy taʼminotda katta rol oʻynaydi.

Oʻzbekistonda ijtimoiy taʼminot tizimi XX asrning 20-yillari boshidan shakllana boshlangan.

Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan soʻng 90-yillar boshidan bozor munosabatlariga oʻtish va ijtimoiy-iqtisodiy tizimni isloh qilish davrida aholini, ayniqsa, nochor guruhlarni aniq manzilli va maqsadli ijtimoiy himoya qilish tizimi barpo etildi, pensiya jamgʻarmasi, ijtimoiy nafaqalar, pensiyalar va nafaqalar indeksatsiyasi kabi tushunchalar va tuzilmalar amal qila boshladi.

Quyidagilar Ijtimoiy taʼminot vazirligining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- mehnatga layoqatsiz aholining ijtimoiy taʼminoti va ularga ijtimoiy yordam berish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va olib borish;
- vazirliklar, idoralar, konsernlar, uyushmalar, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, hokimliklar, korxonalar va tashkilotlarning pensiya ishini rivojlantirish va mehnatga layoqatsiz aholiga ijtimoiy xizmat koʻrsatish masalalari boʻyicha faoliyatiga tashkiliy-uslubiy rahbarlik qilish va ularni muvofiqlashtirish;
- shakllanayotgan yangi iqtisodiy munosabatlar va mulkchilik shakllarining xilma-xilligi sharoitida keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish sohasida maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- pensiyalar va nafaqalar toʻlashga yoʻnaltiriladigan ijtimoiy sugʻurta mablagʻlaridan samarali foydalanish, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan imtiyozlarni berish ishlarini muvofiqlashtirish;
- xalqaro aloqalarni amalga oshirish, aholini ijtimoiy taʼminlash ishida chet el tajribasidan foydalanishni oʻrganish;
- aholini ijtimoiy himoya qilish boʻyicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini tahlil qilish uchun sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etish;
- aholini ijtimoiy himoya qilish boʻyicha davlatga qarashli boʻlmagan tashkilotlar, muassasalar va korxonalar barpo etishga

va ularning faoliyatini tashkil etishga ko'maklashish; ijtimoiy yordam dasturlarini mablag' bilan ta'minlash va ijtimoiy ta'minot tizimining moddiy negizini mustahkamlash uchun budjetdan tashqari mablag'larni jalb etish;

- axborotni umumlashtirishning, ijtimoiy ta'minot bo'yicha pensiyalar va nafaqalar tayinlash va to'lashning avtomatlashtirilgan tizimini ishlab chiqish va joriy etishni tashkil qilish;
- davolash-mehnat ekspertizasini tashkil etish, bu sohada davolash-mehnat ekspert komissiyalariga va ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish, nogironlarning tibbiy-ijtimoiy ekspertizasini va ularning mehnat qobiliyatini tiklashni tashkil etish;
- aholiga protez-ortopediya yordamini tashkil etish;
- nogironlar va keksalar uchun internat uylardagi, pansionat va sanatoriylardagi fuqarolarga moddiy-maishiy, tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish.

Ijtimoiy ta'minot vazirligi unga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi asosiy xizmatlarni amalga oshiradi:

a) ijtimoiy ta'minot tizimini rivojlantirish bo'yicha:

respublika davlat boshqaruv organlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining ijro etuvchi hokimiyat organlari ishtirokida pensionerlarni, nogironlarni, voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarni va aholining davlatning qo'llab-quvvatlashiga muhtoj bo'lgan boshqa guruhlarini ijtimoiy himoya qilish ishining asosiy yo'nalishlari bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

turmush darajasini tahlil qilish va istiqbolini belgilash asosida aholining qayd etib o'tilgan toifalarini ijtimoiy himoya qilish yuzasidan respublika dasturlari loyihalarini ishlab chiqadi, mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqish uchun uslubiy tavsiyalarni tayyorlaydi;

pensionerlar, nogironlar va davlatning qo'llab-quvvatlashiga muhtoj bo'lgan voyaga yetmagan bolali onalarni ijtimoiy himoya qilish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning yo'nalishini belgilaydi va ularni muvofiqlashtiradi;

b) pensiya xizmatlari ko'rsatish va nafaqalar bilan ta'minlashni tashkil etish bo'yicha:

davlat boshqaruvining manfaatdor respublika organlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan birgalikda ijtimoiy ta‘minot bo‘yicha pensiyalar va nafaqalar bilan ta‘minlash ishida davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi;

pensiyalar va nafaqalar tayinlash va to‘lash ishlarini tashkil etishni va ularga uslubiy rahbarlik qilishni amalga oshiradi;

davlat ijtimoiy sug‘urtasiga badallar va ajratmalar to‘lanishi va jamlanishini amalga oshiradi; pensiyalar va ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqalar belgilangan miqdorda to‘lanishiga sarflanadigan xarajatlarni mablag‘ bilan ta‘minlaydi.

ijtimoiy ta‘minot bo‘yicha pensiyalar va nafaqalar bo‘yicha qo‘shimcha imtiyozlar belgilash hamda bunday imtiyozlar va qo‘shimchalarni mintaqaviy darajada joriy etish to‘g‘risidagi takliflarni ishlab chiqish ishini tashkil etadi;

imtiyozli pensiya ta‘minoti huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlar ro‘yxatlarini qo‘llanish masalalari bo‘yicha respublika organlari, tarmoq uyushmalari, konsernlar va birlashmalar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi, ularni takomillashtirish bo‘yicha kelishilgan takliflarni tayyorlaydi;

pensiya ta‘minotining davlatga qarashli bo‘lmagan tizimini rivojlantirish metodologiyasini ishlab chiqishda va uning uchun sharoitlar yaratishda ishtirok etadi;

respublika oldidagi alohida xizmatlar uchun tayinlangan shaxsiy pensiyalarni to‘lashni tashkil etadi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ijtimoiy ta‘minot organlarining bu sohadagi ishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

v) ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohasida:

ijro etuvchi hokimiyatning respublika, viloyat, tuman, shahar organlari ishtirokida keksa fuqarolar, nogironlar, voyaga yetmagan bolalari bo‘lgan oilalar va davlatning qo‘llab-quvvatlashiga muhtoj bo‘lgan aholining boshqa guruhlariga ijtimoiy-maishiy xizmat ko‘rsatishni;

ularga qonunchilik bilan belgilangan imtiyozlarni, sanatoriy-kurortda davolanish yo‘llanmalarini va harakat qilishning maxsus vositalarini berishi, natural yordamning yangi shakllari va turlarini joriy etishni;

ijtimoiy ta'minot muassasalarida (internat uylarda, pansionatlarda, sanatoriylarda) bo'lgan keksa fuqarolar va nogironlarga moddiy-maishiy, tibbiy ijtimoiy va madaniy xizmat ko'rsatishni, bu muassasalarning moddiy negizini mustahkamlashni;

yolg'iz keksa fuqarolarga ijtimoiy yordam xizmatining kompleks tarmoqlarini tashkil etishni, ularning ishi ustidan nazoratni;

pensionerlar va nogironlarga ijtimoiy yordam beruvchi va xizmat ko'rsatuvchi davlatga qarashli bo'lmagan xizmatlar va muassasalar tashkil etishga ko'maklashishni;

aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatishning dasturlarini mablag' bilan ta'minlash ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'ziga qarashli ijtimoiy-maishiy muassasalar va tashkilotlarning amalga oshiriladigan ishini, shu jumladan, ularning tijorat faoliyatini muvofiqlashtirishni tashkil etadi;

g) davolash-mehnat va tibbiy-ijtimoiy ekspertiza, nogironlarning mehnat qobiliyatini tiklash hamda protez-ortopediya yordami ko'rsatish bo'yicha:

davolash-mehnat va tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xizmatiga, nogironlarning mehnat qobiliyatini tiklash bo'yicha ishlarga rahbarlikni amalga oshiradi;

nogironlarga hunar o'rgatish va ularni qayta o'qitish bo'yicha o'ziga qarashli o'quv yurtlariga rahbarlik qiladi;

infrastruktura obyektlarining va keksa fuqarolar uchun qulayligini ta'minlovchi shaharsozlik sohasida davlat siyosatini shakllantirishda qatnashadi;

nogironlar uchun ish joylari tashkil etishda va ularni ishga joylashtirishda nogironlarning jamoat tashkilotlariga yordam beradi;

nogironlar va pensionerlarning mehnatidan foydalanish bo'yicha ixtisoslashtirilgan korxonalar tashkil etilishi va rivojlanishi, mehnatning kasanachilik turlarini va ish bilan ta'minlashning boshqa shakllarini rivojlantirishga ko'maklashadi;

nogironlarni ijtimoiy jihatdan tiklash bosqichi sifatida ularning jismoniy tarbiyasi va sport harakati rivojlanishiga ko'maklashadi;

ishlab chiqarish va maishiy tUSDagi moslangan maxsus transport vositalari, nogironlarning mehnat qobiliyatini tiklash va ularni parvarish qilishning boshqa texnik vositalariga bo'lgan talabni

aniqlaydi va ularni ishlab chiqarish uchun buyurtmalarni amalga oshiradi;

aholiga protez-ortopediya yordami ko'rsatishni tashkil etishni, boshqa vazirliklar, sanoat birlashmalari va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan birgalikda protez-ortopediya buyumlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish, tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish, ularning yangi turlarini ishlab chiqarishlari amalga oshirilishini ta'minlaydi;

nogironlarni protez-ortopediya buyumlari va harakat qilish vositalari bilan ta'minlash tartibini belgilaydi, "Protezist" respublika ishlab chiqarish birlashmasining ishiga rahbarlik qiladi;

nogironlar tibbiy-ijtimoiy va kasb qobiliyatini tiklash ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, markazlari hamda nogironlar va keksalarni ijtimoiy himoya qilish funksiyalarini amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlarni tashkil etishga va ularning faoliyatini takomillashtirishga ko'maklashadi;

d) ijtimoiy ta'minot bo'yicha qonunchilik sohasida:

qonunchilik va normativ hujjatlarning bajarilishini tashkil etadi;

O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligiga tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha qonun hujjatlarining qo'llanilishi amaliyotini umumlashtiradi, manfaatdor vazirliklar va idoralar hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan birgalikda aholini ijtimoiy himoya qilishga doir qonun hujjatlarini takomillashtirish to'g'risidagi masalalarni ishlab chiqadi va ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining topshirig'iga binoan qonunchilik hujjatlari loyihalari hamda O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligiga tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha vazirliklar va idoralarning normativ hujjatlari bo'yicha xulosalarni tayyorlaydi;

aholini ijtimoiy ta'minlashga doir O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining respublikaning butun hududida bir xilda qo'llanilishini ta'minlaydi;

e) xalqaro hamkorlik sohasida:

pensionerlarni, nogironlarni va aholining boshqa toifalarini ijtimoiy himoya qilish masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar faoliyatida belgilangan tartibda ishtirok etadi;

MDH tarkibiga kiruvchi davlatlar bilan pensionerlarni, nogironlarni, voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha bitimlar loyihalariga, shuningdek, ijtimoiy siyosat masalalari bo'yicha boshqa xorijiy mamlakatlar bilan tuziladigan bitimlar loyihalariga takliflar tayyorlanishini ta'minlaydi;

aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha xorijiy davlatlar bilan shartnomalar tuzishda va ularni tayyorlashda o'z vakolati doirasida ishtirok etadi;

O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida pensionerlarni, nogironlarni va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj fuqarolarning boshqa toifalarini ijtimoiy himoya qilish masalalari bo'yicha hamkorlik qilish dasturlarini ishlab chiqishda va amalga oshirishda qatnashadi;

j) moliya va xo'jalik faoliyati bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi tizimida reja-moliya ishlarini, o'ziga qarashli tashkilotlar va muassasalar tomonidan o'tkaziladigan ijtimoiy himoya qilishga doir tadbirlarni hamda bu sohadagi ilmiy-tadqiqotlarni mablag' bilan ta'minlashni tashkil etadi;

aholiga ijtimoiy yordam berishning har xil turlarini tashkil etishni iqtisodiy jihatdan asoslab boradi;

pensionerlar va nogironlarga soliqlar bo'yicha imtiyozlar berish to'g'risidagi takliflarni ishlab chiqarishda qatnashadi;

tizim xodimlari mehnatiga haq to'lashni tashkil etish, normallashtirish bo'yicha tadbirlarni o'z vakolati doirasida amalga oshiradi;

o'ziga qarashli tashkilotlar va muassasalar xo'jalik faoliyatiga doir balanslar va hisobotlarni ko'rib chiqadi;

tarmoqda nazorat-taftish ishlarini tashkil etadi va ichki idoraviy moliyaviy nazoratni amalga oshiradi;

o'ziga qarashli tashkilotlar va muassasalar tomonidan davlat markazlashtirilgan sarmoya mablag'larining oqilona foydalanilishini ta'minlaydi, Ijtimoiy ta'minot vazirligi tizimida yangi tashkilotlar va muassasalar qurish, ishlab turganlarini qayta qurish va texnika bilan

qayta jihozlash bo'yicha istiqboldagi dasturlarni ishlab chiqishni tashkil etadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan birgalikda ijtimoiy ta'minot muassasalari tarmog'i qurilishi va ularni rivojlantirish hamda O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi vakolatiga kiruvchi boshqa masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

aholiga ijtimoiy yordam berish dasturlarini mablag' bilan ta'minlash uchun mablag'larni jalb etish ishida davlat, jamoat, diniy va xayriya tashkilotlari, muassasalar va korxonalarning o'zaro hamkorligini ta'minlaydi;

pensionerlar, nogironlar, voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning respublika va hududiy jamg'armalarini belgilangan tartibda tashkil etadi. Bu jamg'armalarga tushuvchi mablag'larning to'liqligini, o'z vaqtida tushishini va maqsadli foydalanilishini nazorat qiladi. Jamg'arma to'g'risidagi nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

15.2. Ijtimoiy himoya

Odatda, ijtimoiy ta'minot tizimi ishsizlik davrida, sog'lig'i yomonlashganda yoki nogironlikda daromad manbai bo'ladi, shuningdek, nafaqaxo'rlar uchun pensiya shaklida moliyaviy qo'llab-quvvatlashni amalga oshiradi.

Tizimlarning ijtimoiy himoyasi mamlakatlarda farq qilsa-da, bu elementlar barcha rivojlangan iqtisodiyotda mavjud. Ushbu bobda nafaqaxo'rlar uchun moliyaviy yordamning iqtisodiy tomonlariga qaratilgan. Ketma-ket avlodlar aylanishi iqtisodiyotda buning uchun ideal yechim bo'ladi.

Iqtisodiy jihatdan ijtimoiy ta'minot tizimining ta'minlovchi qismini tahlil qilamiz, ishsizlik yoki sog'lig'i yomon bo'lgan paytlarda yordam berish noaniqlik va sug'urta masalalari bilan bog'liq. Xususan, ishsizlik va sog'lig'idagi yomon holat sifatida ko'rish mumkin bo'lganlarni ijtimoiy xavfsizliklarini ta'minlash sug'urta tizimining vazifasidir. Aksincha, pensiya yoshiga yetganidan keyin pensiyaga chiqish kamida qo'shimcha variant bo'lishi mumkin. Shuning uchun

sug'urta asosiy muammo emas (to'plangan boylik moliyalashtirishi mumkin).

Buning o'rniga, pensiya bilan bog'liq masalalar resurslarni potensial avlodlar o'rtasida uzatishdir va iqtisodiyotda tejash xatti-harakatiga ta'siridir. Ikkala muammo ham aniq vaqt doirasida yechimni tashkil etishni talab qiladi.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda pensiya tizimlari "pensiya inqirozi", -deb ataladigan bosimi ostida qolgan. Bu inqiroz ildizlari tizimlarni loyihalashda va aholi strukturasi o'zgarishi jarayonida yotadi.

Ushbu inqirozning potensial ko'lami pensiya tizimini isloh qilishning hozirgi kunda eng dolzarb iqtisodiy siyosatning vazifalaridan ekanligini ifodalaydi.

Pensiya tizimlarining muqobil shakllarini ta'riflanganidan so'ng, pensiya inqirozi tavsiflangan. Bu pensiya va pensiya badallari bilan bog'liq nisbati tushunchasini joriy qiladi.

Ijtimoiy ta'minotning iqtisodiy tahlili uning iqtisodiyot muvozanatiga ta'sirini o'rganishdan boshlanadi. Avlodlar ketma-ketligi pensiya iqtisodiyotining joriy etilishi, uning raqobat jarayonida qanday qilib samarasiz bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi. Samarasizlik salohiyati samaradorlikni oshirish chora-tadbirlarini ko'rish siyosatiga imkoniyat ochadi. Shu nuqtai nazardan, biz ijtimoiy ta'minlash samaradorlikni oshirish uchun foydalanish mumkin yoki yo'qligini ko'rib chiqamiz. Ijtimoiy ta'minot dasturi samaradorlikni oshirishi mumkin ekanligini, asosiy kapital darajasida ijtimoiy ta'minot ta'siridan tushunish mumkin.

Ijtimoiy ta'minot dasturi majburiy shaklda tejash bo'lsa, iste'molchilar, albatta, ko'proq ikkinchi davrda daromad olish uchun, tejamkorlikni oshirib, kapitalni oshirish dasturini ishlab chiqarishni tanlagan bo'lardi. Bu iqtisodiyotning yetarli darajada kapitallashuvi mavjud bo'lmagan sharoitida foydali bo'ladi.

Aksincha, dastur shunchaki ishlayotgandan olib pensiyaga chiqqanga berishga moslashgan bo'lsa, jamg'arish darajasi pasayadi, shuningdek, kapital darajalari ham kamayadi. Ushbu kuzatishlar ijtimoiy ta'minot dasturlarini, iqtisodiyotning oltin qoidasiga olib kelishi mumkin bo'lgan izlanishlarga undaydi.

Tugʻilish darajasining tushib ketishi pensiya inqirozining sabablaridan biridir. Tugʻilish darajasining oʻzgarishi farovonlik darajasiga qanday taʼsir qilishini koʻrib chiqish, iqtisodiyotining barqaror holati avlodlar ketma-ketligi bilan taʼminlanishini oʻrganish juda qiziq masala. Bu savolni ijtimoiy taʼminot dasturi mavjudligida ham, yoʻqligida ham, tugʻilish darajasi isteʼmol imkoniyati chegarasining tuzilishiga qanday taʼsir koʻrsatishini oʻrganamiz. Ijtimoiy taʼminot iqtisodiyot uchun yaxshi boʻlishi mumkin, lekin dasturni davom ettirish, siyosiy iqtisod masalalari bilan bogʻliq. Dasturning tuzilishi bilan bajarilishi kuzatilganda amalda pensionerlar birinchi avlod uchun keyingi avlodlardan resurslarni, mablagʻlarni oʻtkazishga olib keladi (ular qabul qiling, lekin hissa qoʻshmang). Bunday dastur odatda, qanday qoʻllab-quvvatlanadi degan savolni koʻtaradi chunki, bu har bir avlodda mablagʻ qabul qilish, olish, lekin hissa qoʻshmaslik uchun ragʻbat bor. Yakuniy tahliliy Rikardiya ekvivalentligi tushunchasi va uning ijtimoiy taʼminotga taʼsiri savolini koʻrib chiqishdan iborat.

Rikardian ekvivalentligi – kuzatishlar natijasi, yaʼni isteʼmolchilar oʻz xulq-atvorini oʻzgartirish orqali hukumat harakatlarini qoplash (kompensatsiyalash) imkoniga ega ekanligidir. Buning ijtimoiy taʼminot uchun qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligini va argumentning cheklovlarini koʻrsatib oʻtamiz. Nihoyat, tahliliy material qurib chiqib, ijtimoiy taʼminot dasturlarini isloh qilish toʻgʻrisida bildirilgan ayrim takliflarni oʻrganib chiqishga oʻtamiz.

Tizimlarning turlari.

Ijtimoiy taʼminot tizimining belgilovchi xususiyatlaridan biri pensiyalar jamgʻarma fondidan toʻlanadimi yoki joriy soliq badallaridanmi kabi masalaga toʻxtalib oʻtish zarur. Bu xususiyat toʻliq moliyalashtiriladigan va pulli ijtimoiy taʼminot tizimlari oʻrtasida farqni tashkil qiladi. Bu ikki shakllar orasida iqtisodiy samaralar, samaradorlik va taqsimlash jihatidan ham, tizimning sezilarli farqlari mavjud.

Ijtimoiy taʼminot dasturi doirasida, oʻz-oʻzini ish bilan band quluvchi shaxslar, soliq orqali joriy toʻlovlar orqali nafaqaga chiqqanlar uchun pensiya bilan taʼminlashda oʻz hissasini koʻshadi.

Har qanday vaqtda tizimga qoʻshilgan badallar tizimi tomonidan yaratilgan pensiya toʻlovlariga mos kelishi kerak. Hozirda Amerika

Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya va boshqa ko'plab mamlakatlar amal qilayotgan ijtimoiy ta'minot tizimlari ushbu shaklga mosdir.

Saralash "keng", chunki ishlatiladi, masalan, Amerika tizimi ba'zi aktivlar bilan va qisqa muddatli yetishmovchilik, kamomadni yopish imkoniyaga ega bo'lishi mumkin, lekin u aktivlar faqat juda qisqa muddatda to'lovlarni moliyalashtiradi. Har qanday vaqtda, ish haqi tizimi pensionerlar tomonidan olinadigan pul = ishchi-xodim to'lovlari tengligini ta'minlab turadi.

Pensionerlar oladigan pul = ishchi-xodim to'lovlari (15.1)

Bu tenglikni ishchi va pensionerlar soni bo'yicha ifodalash mumkin:

$$B R = \tau E, (15.2)$$

bu yerda, τ -har bir xodimning o'rtacha ijtimoiy ta'minotdagi hissasi,

β -o'rtacha pensiya miqdori,

Ye - ish bilan band xodimlar soni,

R - pensiyadagilar soni.

Agar aholining doimiy o'sish sur'ati ega bo'lsa, ishchi kuchi doimiy bir necha marotaba pensiyadagi aholidan ortiq bo'lishi, u holda $E = [1 + n]R$. Buning yordamida (15.2)

$$\beta R = \tau [1 + n] R, \text{ yoki}$$

$$\beta = [1 + n] \tau. (15.3)$$

beradi.

Bu nisbat, yoshlikda to'lanadigan soliq, keksayib pensiya sifatida qaytarilishidan avval n stavka bo'yicha foiz olishini nazarda tutadi. Binobarin, badal, soliq orqali daromadni shakllantiradigan to'lov asosida pensiya tizimi, aholi o'sish sur'ati bilan belgilanadi.

To'liq moliyalashtiriladigan tizimda har bir xodim soliq orqali ijtimoiy ta'minotga soliq orqali hissa qo'shadi, va bu hissa ijtimoiy ta'minot dasturi tomonidan investitsiya qilinadi.

Shunday qilib, dastur har bir xodim uchun pensiya jamg'armasini yaratadi. Pensiyaning umumiy miqdori nafaqaga chiqqan xodim tomonidan olingan hissasi va investitsiyadan olingan daromadga teng. Bunday dastur tengliklarni qanoatlantiradi.

Pensiyalar = ijtimoiy ta'minotga soliq + foiz = investitsiya + daromadlilik. (15.4)

Ushbu cheklovning natijasi shundaki, fond r stavkasida foiz oladi, shuning uchun pensiya va soliq bilan bog'liq.

$$\beta = [1 + r] \tau. \quad (15.5)$$

To'liq moliyalashtiriladigan ijtimoiy ta'minot tizimi har bir xodimni kamida ular to'laydigan soliqqa teng miqdorni ijtimoiy ta'minotga ajratishga majbur qiladi. Agar xodim ushbuni amalga oshirishga jazm qilsa, ko'proq jamg'arish imkoniga ega bo'ladi. Agar ijtimoiy ta'minot bo'lmasa, barcha xodimlar, dastur tomonidan undiriladigan soliqdan ortiqcha, ma'lum bir miqdorni tejashga qaror qilsalar, keyin bu doimiy bo'lsa, davlat jamg'arma tizimining ekvivalent miqdorini xususiy jamg'armalar bilan almashtiradi. Bunday holda, to'liq moliyalashtiriladigan tizim muvozanat natijaga ta'sir qilmaydi. Biz bu kuzatishni rikardo ekvivalentligi muhokamasida ko'rib o'tamiz.

Umumiy jihatdan turli investitsiyalar imkoniyatlar doirasida qaraganda, xususiy jamg'armalarni foyda me'yori, davlat jamg'armalaridan farq qilishi mumkinligini hisobga olish kerak. Qachon to'liq moliyalashtiriladigan tizim muvozanatni ta'sir qilishi mumkin, bunday holat sodir bo'lishi mumkin.

Bunday holat pensiya islohoti tahlili jarayonida yuzaga kelishi mumkin.

Tizimning bu ikki shaklini bir-birlariga qarama-qarshi qo'yib shuni ta'kidlash mumkinki, ish haqi tizimi resurslarni joriy ishchilardan joriy nafaqa oluvchilarga berishni ifodalasa, to'liq moliyalashtiriladigan tizim har bir avlod uchun eng yaxshi qayta taqsimlanishiga olib kelishi mumkin. Bu kuzatish ikki tizimda ham farovonlikka aytarli farqlanadigan oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin, ular quyidagi bo'limlarda o'rganiladi. Bundan tashqari, imkoniyatga qarab to'lash tizimi hissasi bo'yicha n daromadlilikka ega, to'liq moliyalashtiriladigan tizim r daromadlilikka ega. r hosilga ega. Bu daromadlar qachonki iqtisodiyot Oltin qoida bo'yicha taqsimlash darajasida bo'lmasa farq qiladi.

Bu ikki ekstremum (qutb) orasiga tushadigan tizimlar to'liq moliyalashtirilmagan deyiladi. Bunday tizimlar muayyan investitsiyalar qilishadi, lekin har qanday davrda amalga oshirilgan

to'lovlar soliq to'lovlari plus qilingan investitsiyalardan daromaddan ko'p yoki kam bo'lishi mumkin.

To'lovlar va daromad o'rtasidagi farq pensiya jamg'armasi investitsiya qilish kerak yoki kerak emasligini o'z ichiga oladi.

Aholining kam ta'minlangan va zaif qatlamlarini ijtimoiy yordam tizimiga kiritish va ularning mehnat bozoridagi ishtirokini kengaytirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Moliya vazirligi bilan birgalikda Jahon banki ishtirokida "Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini mustahkamlash" loyihasini amalga oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi va Xalqaro taraqqiyot uyushmasi o'rtasida 2019-yil 19-iyuldagi 6446-UZ-sonli 50 million AQSH dollari miqdoridagi kredit mablag'larini ajratish uchun moliyalashtirish shartnomasi imzolandi.

Loyiha Jahon banki vitse-prezidentining 2019-yil 18-19 iyul kunlari O'zbekistonga tashrifi chog'ida kelishuvlarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" hamda XTU/XTB bilan 2020-21-yillar uchun hamkorlik dasturi doirasida amalga oshirilmoqda.

Loyihani amalga oshirish muddati 5 yildan iborat. (2020-2024).

Loyiha qashshoq oilalarning mehnatga layoqatli ishsiz a'zolari, aholi bandligiga ko'maklashish markazlarida (ABKM) ro'yxatdan o'tgan ishsizlar va boshlang'ich tadbirkorlarga ko'maklashishga qaratilgan.

Ushbu loyiha uchta tarkibiy qismdan iborat:

I. Ijtimoiy yordam tizimini modernizatsiya qilish. Bunga:

a) yagona ijtimoiy reyestrni joriy etish va joylashtirish, shuningdek milliij ijtimoiy reyestriga o'tish;

b) kam ta'minlangan oilalar uchun ijtimoiy nafaqalar samaradorligini oshirish orqali ijtimoiy yordam tizimini mustahkamlashni qo'llab-quvvatlash;

c) pul nafaqasini to'lab berishdagi pilot loyihani ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashni qo'llab-quvvatlash;

d) ijtimoiy nafaqalar tizimining nazorati, hisobdorligi va shaffofligini oshirishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar kiradi.

II. Mehnat bozorini jonlantirishga qaratilgan dasturlarning samaradorligini oshirish, shu jumladan:

a) yangi biznesni boshlash uchun subsidiyalarni oluvchilarga, shuningdek, ishsizlar uchun imtiyozli mikrokreditlar oluvchilarga o'z

biznesining rentabelligi va muvaffaqiyatini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlari;

b) bandlik va tadbirkorlikni rag'batlantirishga, shuningdek, ish beruvchilar va ishsizlarga subsidiyalar berish orqali ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan mehnat bozori dasturlarini amalga oshirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash;

c) yagona milliy mehnat tizimini (YMMT) takomillashtirish, shu jumladan, milliy vakansiyalar platformasi bilan integratsiyalash, BMMV AT bo'limlari salohiyatini oshirish va ABKMlardagi AKT resurslarini modernizatsiya qilish;

d) ABKMlarga bandlikka ko'maklashish dasturlari va xizmatlarini ko'rsatish uchun xususiy tadbirkorlik subyektlarini qamrab olish, mehnat inspeksiyasini kuchaytirish, zamonaviy IT-texnologiyalaridan foydalangan holda xatolar va suiiste'molliklarni kamaytirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishda texnik yordam ko'rsatish;

e) xizmat oluvchilarning profillashning va shaxsiy yondashuv metodologiyasining samarali vositalarini ishlab chiqish, ABKM xodimlari uchun muntazam treninglar.

III. Loyihani monitoring qilish va boshqarish, shu jumladan:

a) mehnat bozoridagi aralashuvlar monitoringini kuchaytirish, mavjud dasturlarning ta'sirini baholashda Mehnat vazirligi qoshidagi Respublika ilmiy markazining salohiyatini oshirish, malakali kadrlarga bo'lgan talabni o'rganish, mehnat organlarining ish jarayonlarini baholash, dasturlarning benefitsiarlari o'rganishga qaratilgan chora-tadbirlar;

b) loyihaning barcha uchta komponentlarining monitoringini o'tkazish va boshqarish bo'yicha tadbirlar.

O'zbekistonda ijtimoiy sohaga jamiyat e'tiborini kuchaytirish, manzilli ijtimoiy himoyani kafolatlash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ayniqsa, so'nggi yillarda mazkur sohada mamlakatimizda beqiyos ishlar amalga oshirildi. Bunda Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi muhim dasturilamal bo'layotir. Ijtimoiy sohaga oid qator huquqiy hujjatlar, maqsadli dasturlar qabul qilindi.

Bundan tashqari, joriy yilda koronavirus tarqalishi tufayli global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini kamaytirish, aholi va tadbirkorlik subyektlarini manzilli qo'llab-quvvatlashning

qo‘shimcha chora-tadbirlari yuzasidan kechiktirib bo‘lmaydigan va o‘ta muhim vazifalarni o‘z ichiga olgan huquqiy hujjatlar qabul qilinib, pandemiya oqibatlarini yumshatishga erishildi.

Hech bir sohani uning qonunchilik asoslarini mustahkamlamasdan turib, rivojlantirib bo‘lmaydi. Shu ma’noda, so‘nggi uch yilda Oliy Majlis tomonidan ijtimoiy sohaga oid 30 dan ziyod qonun qabul qilingani soha taraqqiyotida muhim omil bo‘ldi. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida”gi, “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi, “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonunlar shular jumlasidandir.

Joriy yilda esa Qonunchilik palatasi tomonidan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi, “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilinib, Senatga yuborildi. Parlamentimiz tomonidan 10 dan ortiq xalqaro shartnoma, xususan, Xalqaro mehnat tashkilotining 4 ta konvensiyasi ratifikatsiya qilindi.

Shuningdek, keyingi yillarda kambag‘allikka barham berish, aholi sog‘lig‘ini saqlash, ayniqsa, xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashish, gender tenglikni ta’minlash kabi muhim sohalaridagi ishlarni tashkil etishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Birgina 2019-yilda ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish uchun davlat byudjetidan umumiy xarajatlarning 53,8 foizi miqdorida mablag‘ sarflandi. Bu xarajatlar YAIMga nisbatan 12,4 foizni tashkil etdi. Ushbu xarajatlarning 93,5 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Ijtimoiy sohani rivojlantirish sohasida aholi bandligini ta’minlash va yangi ish o‘rinlarini tashkil etishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Shuningdek, xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, tegishli dasturga asosan, 2019-yilda og‘ir turmush sharoitida yashayotgan 13 ming 44 nafar xotin-qizning bandligi ta’minlandi.

Dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik kuzatilayotgan bugungi murakkab davrda mamlakatimizda inson manfaatlarini barcha narsadan ustun qo‘yib, amalga oshirilayotgan bunday xayrli ishlar xalqimizning turmush farovonligini yuksaltirish, oilalarda mehr-oqibat muhitini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday ezgu ishlar tizimli asosda davom ettirilishi yurt taraqqiyotini yana-da jadallashtirishda o‘z samaralarini beraveradi.

15.3. Pensiya inqirozi

Ko‘p mamlakatlar pensiya inqiroziga duch kelmoqda, bu ularning pensiya tizimlarini sezilarli isloh qilish zarurligini talab qiladi. Ushbu bo‘limda ushbu inqirozning tabiati va oqibatlari ochib beriladi.

Ijtimoiy ta‘minot tahlilini yakunlab, biz ushbu inqiroz asosida tizimni isloh qilish bo‘yicha bir qator takliflarni ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Ijtimoiy masalalarni ijobiy tomonga yo‘naltirish jarayonida nafaqa oluvchilarga asosiy e‘tibor qaratiladi. Juda qiyin vaziyatda bo‘lgan nafaqaxo‘rlar va nogironlar ham cheklangan ijtimoiy nafaqa: pensiya yoki nogironlik nafaqasi bo‘yicha yashashadi, bu ularning ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga tarkibiga kiradi. O‘zbekistonda yillar bo‘yicha eng past darajadagi nafaqalar dinamikasi quyidagi jadvalda keltirilgan.

15.1-jadval

O‘zbekistonda o‘rtacha oylik nafaqalar va minimal nafaqalarning dinamikasi: 2016-2019 yillar*

Ko‘rsatkichlar	2016	2017	2018	2019
O‘rtacha oylik nafaqa				
So‘mda (ming so‘m)	494,2	556,8	640,5	701,7
AQSH dollarida	164,0	98,1**	78,0	78,7
Minimal nafaqa				
So‘mda (ming so‘m)	292,9	336,9	396,5	436,2
AQSH dollarida	97,1	59,4	48,2	49,0

*Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari

**2017 yil 5 sentyabrdan valyuta islohotlari natijasida dollar kursi ikki baravarga oshgan.

Mamlakatimizda o‘rtacha oylik nafaqalar va minimal nafaqalar mos holda 2016 yilda 494200 so‘m va 292900 so‘mni, halqaro valyuta hisoblangan AQSH dollarida 164 va 97,1 ni tashkil etgan,

2017 yilda 556800 so‘m va 336900 so‘mga ko‘paygan, AQSH dollarida esa 98,1 va 59,4 ni tashkil etdi (nafaqalar darajasini AQSH dollarida keskin pasayishiga 2017 yil 5 sentyabrda o‘tkazilgan valyuta islohotlaridir). 2019 yilda ushbu ko‘rsatkichlar mos holda so‘mdagi qiymati 701700 so‘m va 436200 so‘mni tashkil etib avvalgi davrga nisbatan ortganini ko‘rsak, AQSH dollaridagi qiymati pastlaganini ko‘rishimiz mumkin 78,7 va 49,0 ni tashkil qildi.

Pensiya inqirozining asosi uch ko‘rinishda uchraydi. Birinchi, tug‘ilish darajasi ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlarda pasaygan. Immigratsiya qisman buning ta’sirini bartaraf etayotgan bo‘lsa-da, ba’zi mamlakatlarda, yangi ishchilar oqimi barqaror pasayishi kuzatilmoqda. Ikkinchi ta’sir odamlar o‘rtacha umr ko‘rishi darajasi uzaymoqda. Har qanday pensiya yoshi uchun bu raqamning nafaqaxo‘rlar ko‘payishini anglatadi. Uchinchidan, pensiya yoshidagi pasayish tendensiyasi ham mavjud.

Bu uch omilning sof ta’siri shundaki, aholi orasida pensionerlar ulushi o‘tib bormoqda va bu muammoli o‘rish hisoblanadi. Umumiy ma’noda, aholining nafaqaga chiqish nisbati ko‘proq ishchi xodimlar bilan qo‘llab-quvvatlanishi kerak.

15.2-jadval

Bog‘liqlik darajasi (65 yoshdan katta aholining 15-64 yoshgacha bo‘lganlar ichidagi ulushi sifatida)

Davlatlar / yillar	1980	1990	2000	2010	2020	2030	2040
Avstraliya	14.7	16.7	18.2	19.9	25.9	32.3	36.1
Fransiya	21.9	21.3	24.5	25.4	32.7	39.8	45.4
Yaponiya	13.4	17.2	25.2	34.8	46.9	51.7	63.6
Buyuk Britaniya	23.5	24.1	24.1	25.3	31.1	40.4	47.2
AQSH	16.9	18.9	18.6	19.0	25.0	32.9	34.6

Manba: OECD (www.oecd.org/dataoecd/40/27/2492139.xls).

Aholi jon boshiga ishlab chiqarishning o'sishi faqat aholi jon boshiga iste'mol qilish doimiy bo'lib qolishi uchun kerak. Agar ishlab chiqarish yetarlicha tez o'smasa, unumdorlikning o'sish sur'ati yo'qqa chiqadi va jon boshiga mahsulot pasayadi. Bundan tashqari, aholi turmush darajasining ushbu darajasida pensionerlarni qo'llab-quvvatlash iqtisodiyotga ortiqcha yukni yuklaydi.

Bu ta'sirning hajmini qarama-qarshiliklar nisbati bashoratlariga qarab ko'rish mumkin. Bog'liqlik nisbati nafaqaga chiqqan aholining nisbiy hajmini o'lchaydi, ya'ni mehnatga layoqatli aholi soniga nisbatan pensiyaga chiqqan aholi soni sifatida.

15.2-jadvalda bir qator mamlakatlar uchun bog'liqlik nisbati keltirilgan bu yaqin o'tmishda va kelajakda uning rivojlanishi uchun prognozlar. Jadvalda ko'rsatilgan mamlakatlar muhim ahamiyatga ega bog'liqlik nisbati barcha hollarda oshib bormoqda, u 1980-yildan 2040- yilgacha bo'lgan davr uchun ikki barobardan ko'proq ortiq. Bu nafaqaxo'rlarning ortayotgan ulushini, mehnat qilayotgan odamlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi kerak, degan ma'noni anglatadi. Ba'zi hollarda, masalan, Yaponiyada, bog'liqlik nisbati prognoz o'sishi dramatik holatda bo'ladi.

Bog'liqlik nisbatining ortishi ta'siri, ijtimoiy ta'minotga to'lovlar va ijtimoiy ta'minot darajalari o'rtasidagi munosabatlarni hisobga olgan holda ko'proq yoritish kerak. Uxshashlikdan foydalanib, imkoniyatga qarab to'lash tizimi va uni Ye ga taqsimlash orqali, biz soliqlarni ijtimoiy ta'minotga nisbatini, pensiya va bog'liqlik koefitsienti asosida quyidagicha ifodalashimiz mumkin.

$$\tau = \beta D, (15.6)$$

bu yerda, D- bog'liqlik koefitsiyenti, R / Ye.

Bundan kelib chiqadiki D oshgan sari τ ning darajasi ortib boradi, agar pensiya β qo'llab - quvvatlanishi kerak. Agar soliq stavkasi o'zgarishsiz qolsa, shu bilan bir qatorda D oshgan sari pensiya kamayib boradi. Agar bunday o'zgarishlarning ayrim kombinatsiyasi amalga oshirilmasa, agar qarama-qarshiliklar nisbati oshsa, ijtimoiy ta'minot tizimi kamomadga o'tadi (defitsit bo'ladi).

Na kamomad, na tushib borayotgan pensiya, na ortib borayotgan soliq hukumatlar uchun o'z saylovchilariga taqdim etish uchun jozibador variant hisoblanadi.




Figure 23.1
Annual income and cost forecast for OASI

15.4-rasm. OASI uchun yillik daromad va xarajatlar prognozi (Daromad darajasi, Xarajatlar darajasi).

Ushbu omillar AQSH ijtimoiy siyosatining kelajakdagi istiqbolini, xavfsizlik dasturi, qarilik va boquvchisini yo'qotish uchun maqsadli Federal fond mablag'lari, vasiylik Kengashi tomonidan bashorat sifatida va nogironlik sug'urtasini (OASDI) prognoz qilishda ko'rinadi. 15.4-rasmda ko'rsatilgan Amerika qarilik va boquvchisini yo'qotganlik sug'urta jamg'armasi prognoz kamomadi (lekin nogironlik sug'urta Fondini o'z ichiga olamagan) keltirilgan.

Daromad darajasi ish haqiga hisoblangan soliq to'lovlaridan tushgan daromadni soliq solinadigan ish haqi (haqiqatda o'rtacha ijtimoiy ta'minot badallari uchun soliq stavkasi) nisbati orqali aniqlanadi, xarajat darajasi esa - soliq solinadigan ish haqiga dastur xarajatlarning nisbati asosida. Prognozlar ijtimoiy ta'minot dasturining tuzilishiga asoslangan, bugungi kunda ham xuddi ana o'shanday bir xil bo'lib qolgan (solik stavkasi va imtiyozlar qiymati nuqtai nazaridan). Rasmda ko'rsatilishicha, fond 2018-yilda kamomadga o'tishi prognoz qilinmoqda va ba'zi muhim islohotlar amalga oshirilmasa, kamomadda qoladi.

Bunday kamchiliklarning oldini olish uchun, bu faktlar hukumatlar tobora ortib borayotgan soliq stavkasi bilan pensiya to'lovlari miqdorini saqlab qolish yoki pensiyalar miqdorining pasayishiga

qo'yib berib umuman soliq stavkasini xuddi shu darajada ushlab qolish o'rtasida bir tanlovga kelishi kerak. Masalan, Buyuk Britaniya hukumati bu holatga quyidagicha yondoshdi: davlat pensiyasi miqdorining real qiymatining pasayishiga imkon berdi. 15.3-jadvalda ko'rsatilganidek, pensiya 1975 – 2000-yillar orasida o'rtacha daromaddan deyarli 40 foizdan 26 foizga tushib ketdi, kamayish davom etishi kutilmoqda, va u, ayniqsa, endi daromad bilan emas balki, narxlar bilan indeksatsiya qilinadi. Ushbu qisqartirishlar pensiya hajmini yashash minimumidan sezilarli darajada past bo'lishiga olib keldi. Demak, boshqa daromad manbaiga ega bo'lmagan pensionerlar, ularning daromadlarini yashash minimumiga tenglashtirish uchun davlatdan qo'shimcha yordam olishlari kerak. Bu davlat pensiyasining kamayishi hukumat tomonidan xususiy pensiyalardan foydalanishni rag'batlantirish bilan kuzatildi.

15.3-jadval.

Buyuk Britaniya asosiy davlat pensiya uchun prognozlar

Sana	O'rtacha daromadning foiz nisbati
1975	39.3
1980	39.4
1985	35.8
1990	29.1
1995	28.3
2000	25.7

Manba: UK Department of Work an Pensions
([www.dwp.gov.uk/asd/asd1/abstract/Abstrat2003 .pdf](http://www.dwp.gov.uk/asd/asd1/abstract/Abstrat2003.pdf)).

2021-yilgi davlat dasturi doirasida bu sohada qator o'zgartirishlar kiritilishi rejalashtirildi.

“Taraqqiyot strategiyasi” markazi tomonidan 2021-yil uchun davlat dasturi loyihasi muhokamalar uchun taqdim etildi. Unga ko'ra pensiya va nafaqalar ta'minoti tizimida 2021-yil 1-iyundan boshlab:

- pensiyalarni tayinlashda shaxsning ish haqi va mehnat staji to'g'risidagi ma'lumotlarning elektron bazasi yuritilmagan davr – 2005- yildan avvalgi yillar uchun ish staji shaxsning mehnat

daftarchasidagi mavjud yozuvlar asosida hech qanday tasdiqlovchi hujjatlar talab etilmasdan hisoblanadi;

- uch yildan ortiq davr uchun tayinlangan yoki qayta hisoblangan pensiya va nafaqalarni tekshirish va ular bo'yicha ortiqcha to'lovini undirish bekor qilinadi;

- ishlovchilar tomonidan ishlamaydigan turmush o'rtoqlari kelgusida pensiya ta'minotiga ega bo'lishlari uchun o'z daromadlaridan ixtiyoriy ravishda har oyda ijtimoiy soliq to'lash huquqi beriladi;

- pensiya va nafaqalar fuqaroning xohishiga ko'ra ro'yxatga olingan doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha tayinlanadi va to'lanadi;

- pensiya va nafaqalarni naqd pulsiz shaklda olish uchun arizalar fuqarolar tomonidan Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tegishli bo'limiga murojaat qilmagan holda, tijorat banklarida plastik kartalarni ochish jarayonida yoki bank mobil ilovalari orqali elektron shaklda rasmiylashtiriladi;

- fuqarolarning pensiyaga bo'lgan huquqi yo'qolganligini tegishli idoralar tomonidan taqdim etiladigan elektron ma'lumotlar asosida aniqlash orqali to'lovlarni naqd pulsiz shaklda oluvchilar tomonidan har olti oyda Pensiya jamg'armasining bo'limiga kelish yoki joyiga chiqqan holda monitoring o'tkazish majburiyati bekor qilinadi.

Bundan tashqari, pensiya va nafaqalar to'g'ri tayinlanishi hamda to'lanishi bo'yicha tekshirishlar natijasida aniqlangan ortiqcha to'lov summasining 2021-yil 1-yanvar holatiga qarzdorligi hisobdan chiqarilishi ko'zda tutilgan.

Yoshga doir pensiya olish huquqiga:

erkaklar — 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda;

ayollar — 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar.

Pensiya tayinlash uchun (7-modda) yetarlicha ish stajiga ega bo'lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar ushbu Qonun 37-moddasi birinchi qismining "a", "b", "v" va "g" bandlarida nazarda tutilgan kamida 7 yil ish staji mavjud bo'lgan taqdirda, bor stajga mutanosib miqdorda (29-modda) tayinlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ro‘yxatlarga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalari imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar, chunonchi:

Yoshidan qat’iy nazar pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar va lavozimlarning 1-sonli ro‘yxati;

Umumiy belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarning 2-sonli ro‘yxati;

Umumiy belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, vazifalar va ko‘rsatkichlarning 3-sonli ro‘yxati.

Imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga urush nogironlari, bolalikdan nogiron farzandlarning onalari, liliputlar va pakanalar ham ega.

Yoshidan qat’iy nazar, quyidagilar imtiyozli pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar:

a) kon sanoatidagi yetakchi kasb egalari bo‘lgan xodimlar — basharti, ular ana shu ishlarda kamida 20 yil ishlagan bo‘lsalar (1-sonli ro‘yxat, I qism);

b) bevosita yerosti va ochiq kon ishlarida (shu jumladan, kon-qutqaruv qismlarining shaxsiy tarkibi) ko‘mir, ma‘danlar va boshqa foydali qazilmalarni qazib olishda, shaxtalar va konlar qurilishida to‘liq ish kuni davomida band bo‘lgan xodimlar — basharti, ular ana shu ishlarda kamida 25 yil ishlagan bo‘lsalar (1-sonli ro‘yxat, II qism);

v) uchuvchilar va uchuvchi-sinovchilar tarkibiga kiruvchi xodimlar, ular xizmat qilgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning idoraviy bo‘ysunuvidan qat’iy nazar, belgilangan xizmat muddatini ana shu lavozimlarda erkaklar kamida 25 yil va ayollar kamida 20 yil ado etganlari taqdirda (1-sonli ro‘yxat, III qism).

Yuqorida qayd etib o‘tilgan xodimlar salomatligiga (kasalligiga) ko‘ra uchish ishlaridan bo‘shatilgan taqdirda, belgilangan xizmat muddatini — erkaklar kamida 20 yil va ayollar kamida 15 yil ado etgan bo‘lsalar;

g) teatrlar va boshqa teatr-tomosha korxonalari artistlarining ayrim toifalari:

ijodiy ish staji kamida 20 yil bo'lganda (1-sonli ro'yxat, IV qism);

ijodiy ish staji kamida 25 yil bo'lganda (1-sonli ro'yxat, V qism);

ijodiy ish staji kamida 30 yil bo'lganda (1-sonli ro'yxat, VI qism);

d) sportchilarning ayrim toifalari — ish staji kamida 20 yil bo'lganda (1-sonli ro'yxat, VII qism).

Oxirgi ish joyidan qat'iy nazar, quyidagilar ushbu Qonunning 7-moddasida belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar:

a) yerosti ishlarida, mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda to'liq ish kuni davomida band bo'lgan xodimlar (2-sonli ro'yxat, I qism):

erkaklar — ish staji kamida 20 yil bo'lib, bundan kamida 10 yili ko'rsatib o'tilgan ishlarga to'g'ri kelgan taqdirda;

ayollar — ish staji kamida 15 yil bo'lib, bundan kamida 7 yilu 6 oyi ko'rsatib o'tilgan ishlarga to'g'ri kelgan taqdirda.

Yer osti ishlaridagi mehnat staji erkaklarda 10 yildan kam va ayollarda 7 yilu 6 oydan kam bo'lgan hollarda xodimlarga bu ishlardagi har bir to'liq yil uchun ushbu Qonunning 7-moddasida nazarda tutilgan pensiya yoshi 1 yilga qisqartiriladi.

Mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda — erkaklar kamida 5 yil, ayollar kamida 3 yil 9 oy — ishlagan xodimlarga pensiya ushbu Qonunning 7-moddasida nazarda tutilgan pensiya yoshi shunday ishda band bo'lingan har bir to'liq yil uchun 1 yilga qisqartirilgan holda tayinlanadi;

b) sirkar va konsert tashkilotlari artistlarining ayrim toifalari ijodiy ishdagi staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda (2-sonli ro'yxat, II qism).

Oxirgi ish joyidan qat'iy nazar, quyidagilar ushbu Qonunning 7-moddasida belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar:

a) urush nogironlari va ularga tenglashtirilgan shaxslar;

b) mehnat sharoiti zararli va og'ir ishlarda to'liq ish kuni davomida band bo'lgan xodimlar (3-sonli ro'yxat, I qism):

erkaklar — ish staji kamida 25 yil bo'lib, bundan kamida 12 yilu 6 oyi ko'rsatib o'tilgan ishlarga to'g'ri kelgan taqdirda;

ayollar — ish staji kamida 20 yil bo‘lib, bundan kamida 10 yili ko‘rsatib o‘tilgan ishlarga to‘g‘ri kelgan taqdirda.

Mehnat sharoiti zararli va og‘ir ishlarda — erkaklar kamida 6 yilu 3 oy, ayollar kamida 5 yil — ishlagan xodimlarga pensiya ushbu Qonunning 7-moddasida nazarda tutilgan pensiya yoshi erkaklarning bunday ishdagi har 2 yilu 6 oyi uchun va ayollarning bunday ishdagi har 2 yili uchun 1 yilga qisqartirilgan holda tayinlanadi;

z) bolalikdan nogiron farzandlarning onalari ularni sakkiz yoshgacha tarbiyalagan bo‘lsa — ish staji kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda. Basharti, ayol o‘gay o‘g‘il va o‘gay qizni ular 8 yoshga to‘lguniga qadar kamida 5 yil tarbiyalagan bo‘lsa, pensiya tayinlashda ular haqiqiy farzandlar bilan teng ravishda hisobga olinadi;

k) nogiron bolalar uchun ixtisoslashgan ta‘lim muassasalari, “Mehribonlik” uylari, harbiy akademik litseylar, tarbiya koloniyalari o‘qituvchilari — maxsus ish staji kamida 25 yil bo‘lgan taqdirda (3-sonli ro‘yxat, VII qism);

l) ixtisoslashgan tibbiy muassasalarning shifokorlari va o‘rta tibbiy xodimlari — maxsus ish staji qishloq joyda kamida 25 yil va shaharlarda kamida 30 yil bo‘lgan taqdirda (3-sonli ro‘yxat, VIII qism);

m) qariyalar, nogironlar va yolg‘iz fuqarolarga xizmat ko‘rsatishda bevosita band bo‘lgan ijtimoiy xodimlar (3-sonli ro‘yxat, IX qism):

erkaklar — maxsus ish staji kamida 25 yil bo‘lgan taqdirda;

ayollar — maxsus ish staji kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda.

Qonun 37-moddasining “a”, “b”, “v” va “g” bandlarida nazarda tutilgan kamida yigirma yillik ish staji bo‘lgan ayollar ellik to‘rt yoshga to‘lganda pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar.

Qonunning 7-moddasida belgilangan yoshni 15 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga gipofizar mittilik kasaliga chalinganlar (liliputlar) va gavda tuzilishida mutanosiblik buzilgan pakanalar:

erkaklar — ish staji kamida 20 yil bo‘lganda;

ayollar — ish staji kamida 15 yil bo‘lganda ega bo‘ladilar.

Texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o‘zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o‘zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud

korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslar:

erkaklar — 58 yoshga to'lganda va ish staji kamida 25 yil bo'lgan taqdirda;

ayollar — 53 yoshga to'lganda va ish staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

Nogironlik pensiyalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari deb topilgan shaxslarga tayinlanadi.

Sog'lig'ini yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga qarab, nogironlikning uch guruhi aniqlanadi.

Nogironlik sabablari va guruhleri, shuningdek, nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ular to'g'risidagi Nizom asosida ishlovchi tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan aniqlanadi.

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat'iy nazar, tayinlanadi.

Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari nogironlik boshlangan paytga qadar quyidagicha ish stajiga ega bo'lgan taqdirda tayinlanadi 15.4-jadval.

15.4-jadval

Nogironlik pensiyalarini tayinlanishi

Yosh	Ish staji
23 yoshga qadar	2
23 yoshdan 26 yoshga qadar	3
26 yoshdan 31 yoshga qadar	5
31 yoshdan 36 yoshga qadar	7
36 yoshdan 41 yoshga qadar	9
41 yoshdan 46 yoshga qadar	11
46 yoshdan 51 yoshga qadar	14
51 yoshdan 56 yoshga qadar	17
56 yosh va undan oshganda	20

20 yoshga to'lgunga qadar umumiy kasallik tufayli ish davrida yoki ishlash to'xtatilganidan keyin nogiron bo'lib qolgan shaxslarga pensiyalar ish stajidan qat'iy nazar tayinlanadi.

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyasidan umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyasiga o'tkazilganda zarur staj nogironlik dastlab belgilangan vaqtdagi yoshga qarab aniqlanadi.

Pensiyatayinlashuchun yetarlicha ish stajiga ega bo'lmagan (17-modda)

umumiy kasallik oqibatidagi I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi bor stajga mutanosib miqdorda (29-modda) tayinlanadi.

Xulosa qilib aytganda, pensiyainqirozining asoslarini aniqlandi va ularni kelajakda to'lanadigan davlat pensiyalariga qanday ta'sir qilishini ko'rsatildi. Ushbu inqirozning chuqur amal qilishi, nima uchun ijtimoiy ta'minot masalasini muhim siyosiy masala ekanligini ifodalaydi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Fiskal (soliq-budjet) siyosati – davlat tomonidan iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish maqsadida soliqqa tortish va davlat sarfi tarkibini o'zgartirish bo'yicha qo'llaniluvchi chora-tadbirlar.

Davlat budjeti – davlat daromadlari va xarajatlari hamda ularni moliyaviy ta'minlash manbalarining tartiblashtirilgan rejasi.

Budjet taqchilligi – davlat budjeti xarajatlarining daromadlardan ortiqchaligi.

Davlat ichki qarzi – davlatning mamlakat ichida qimmatli qog'ozlarini chiqarish, turli nobudjet fondlaridan olgan qarzi.

Davlat tashqi qarzi – xorijiy davlatlardan, ulardagi jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan olingan qarz.

Davlat krediti – davlat qarz oluvchi yoki kreditor sifatida maydonga tushadigan barcha moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi.

Ijtimoiy to'lovlar – kam ta'minlanganlarga pul yoki natural shaklda yordam ko'rsatishga qaratilgan turli xil to'lovlar.

Ijtimoiy siyosat – davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni, iqtisodiyot qatnashchilari o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo‘naltirilgan siyosat.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Davlat budjeti milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashda qanday rol o‘ynaydi? Bunda qanday usullardan foydalaniladi?

2. Budget taqchilligi nima? Ijobiy va salbiy budget taqchilligini tushuntiring.

3. Davlatning ichki va tashqi qarzlari manbalarini izohlab bering.

4. Soliq yuki nima? Uning iqtisodiyotga ta’sirini ko‘rsatib bering.

5. Mamlakatimizdagi aholi daromadlari tarkibining o‘zgarishida qanday tendensiyalar kuzatilmoqda?


FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jonathan Gruber, Public Finance and Public Policy, 6th edition, Macmillan, 2019
2. Hindriks J. and Myles G.D. Intermediate Public Economics, second edition, MIT Press. 2013
3. Hashimzade N., Hindriks J. and Myles G.D. Solutions Manual to Accompany Intermediate Public Economics, most recent edition, MIT Press.
4. Richard E. Wagner Public Debt as a Form of Public Finance: Overcoming a Category Mistake and its Vices Cambridge University Press. First published 2019
5. [Masayuki Tanimoto](#), [R. Bin Wong](#) Public Goods Provision in the Early Modern Economy: Comparative Perspectives from Japan, China, and Europe. 2019. p.328
6. Swaziland: A Framework for National Development Strategy (NDS) Review / Ministry of Economic Planning and Development (MEPD). January 2013
7. Andrikopoulos, A. Four decades of the Journal of Econometrics: Coauthorship patterns and networks /A. Andrikopoulos //Journal of econometrics. 2016. — Vol. 195. — №1. — P. 23-32.
8. Kiani K.M. On business cycle fluctuations in USA macroeconomic time series / K.M. Kiani // Economic modelling. – 2016. — Vol. 53. — P. 179-186.
9. Kollias C. Defence and non-defence spending in the USA: stimuli to economic growth? Comparative findings from a semiparametric approach / C. Kollias // Bulletin of economic research. — 2015. — Vol. 67. — № 4. — P. 359-370.

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
1-MAVZU. DAVLATNING IQTISODIY SIYOSATIGA	
KIRISH.....	5
2-MAVZU.DAVLATSEKTORINAZARIYALARI.....	13
3-MAVZU.OVOZBERISHJARAYONLARI	23
4-MAVZU.IJARANIIZLASH	33
5-MAVZU. RAQOBATBARDOSH IQTISODIY TIZIMLAR	42
6-MAVZU.JAMOATTOVARLARI	53
7-MAVZU.MAHALLIYOMMAVIYMAHSULOTLAR ...	64
8-MAVZU.TASHQIJIHATLAR	78
9-MAVZU. OPTIMALLIK VA TAQQOSLASH	90
10-MAVZU. TENGSIZLIK VA KAMBAG‘ALLIK	105
11-MAVZU. TOVAR VA DAROMAD SOLIG‘I	121
12-MAVZU. TAQSIMLASH CHEGARALARI	144
13-MAVZU. SOLIQ TO‘LASHDAN BO‘YIN TOVLASH	159
14-MAVZU. VAQTINCHALIK SAMARADORLIK	168
15-MAVZU.IJTIMOIIYXAVFSIZLIKVAQARZLAR	188
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	220

[illegible]



U.V.G‘AFUROV, M.SH.XALILOV, SH.BAYMURADOV

DAVLAT IQTISODIYOTI VA SIYOSATI

O‘QUV QO‘LLANMA

**Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH
NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021**

Muharrir:	YU.Isoqova
Tex. muharrir:	M.Tursunov
Musavvir:	A.Shushunov
Musahhih:	L.Ibragimov
Kompyuterda sahifalovchi:	M.Zoyirova

E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35
Nashr.lits. № 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.
Bosishga ruxsat etildi 05.08 .2021.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez Uz» garniturası.
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 14,5. Nashriyot bosma tabog‘i 13,75 .
Tiraji 50. Buyurtma № 108.

**«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI»
bosmaxonasida chop etildi.**

**100174, Toshkent sh, Olmazor tumani,
Universitet ko‘chasi, 7-uy.**



ISBN 978-9943-7395-2-9



9 789943 739529